



*Zebiniso ALLAYAROVA,*  
*Shahrisabz davlat Pedagogika insituti f.f.f.d.(PhD) dotsent v/b*  
*E-mail: zeboallayarova51@gmail.com*

*O'ZMU dotsenti, f.f.d. (DcS) Sa'dullayeva taqrizi asosida*

## O'ZBEK TILIDAGI O'Z QATLAM AGROTERMINLARINING LISONIY-STRUKTUR XUSUSIYATLARI VA O'ZBEK TILINI BOYISH MANBALARI

Аннотация

Dehqonchilik, agrar soha terminlari tizimi har qanday ilmiy terminosistema kabi tushunchalarning shunchaki ro'yxati emas, balki o'ziga xos semiologik tizimdir. Agroterminlar soha tushunchalarining muayyan tizimini ifodalovchi, shuningdek, muayyan ilmiy dunyoqarashni aks ettiruvchi xususiyatlari bilan alohida ajralib turuvchi maxsus leksikani tashkil qiladi. Ayni paytda tabiiy tilga xos lingvistik qonuniyatlar terminologik tizimda ham o'z ifodasini topadi. Shuning uchun agroterminlarni ham tartibga solib turish zaruriyati mavjud. O'zbek tilining alohida mazmuniy maydonini tashkil etgan agrar sohani bildiruvchi tushunchalarning lisoniy ifodasi turli shakliy struktur, semantik, genetik, derivatsion xususiyatlarga ega sanalib, o'ziga yondosh boshqa terminlar tizimi bilan umumiylik va alohidalik kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** Ilmiy dunyoqarash, o'z qatlam, maxsus leksika, umumturkiy va o'zbekcha terminlar, o'zlashgan qatlam, arabcha agroterminlar, dehqonchilik terminlari, forscha agroterminlar, ruscha agroterminlar, baynalmilal agroterminlar, suv, asos, affiks.

## LINGUISTIC-STRUCTURAL FEATURES OF AGROTERMS OF THEIR OWN LAYER IN THE UZBEK LANGUAGE

Annotation

Farming, agricultural industry term system is not just a list of words like every science term system, and it is a typically semiological system. Agro terms represent a specific system of field concepts, and so, they form a special lexicon that is distinguished by its features that reflect a specific scientific worldview. At the same time, the linguistic regularities characteristic of natural language are also expressed in the terminological system. Therefore, there is a need to regulate agro terms. The linguistic expression of the concepts denoting the agrarian field, which constitutes a separate meaningful area of the Uzbek language, has various formal-structural, semantic, genetic, derivational characteristics, and acquires commonality and uniqueness with the system of other related terms.

**Key words:** Scientific worldview, original layer, special vocabulary, common Turkic and Uzbek terms, mastered layer, Arabic agricultural terms, agricultural terms, Persian agricultural terms, Russian agricultural terms, international agricultural terms, water, basis, affix.

## ЛИНГВО-СТРУКТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ АГРОТЕРМИНОВ СОБСТВЕННОГО СЛОЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

Система терминов земледелия, аграрного поля представляет собой не просто перечень понятий, как любая научная терминология, а своеобразная семиологическая система. Агротермины представляют собой специфическую систему полевых понятий и в то же время образуют особую лексику, отличающуюся своими особенностями, отражающими конкретное научное мировоззрение. В то же время языковые закономерности, характерные для естественного языка, выражаются и в терминологической системе. Поэтому возникает необходимость регулирования агротерминов. Языковое выражение понятий, обозначающих аграрную сферу, составляющую отдельную содержательную область узбекского языка, имеет различные структурно-семантические, генетические, словообразовательные особенности, приобретает общность и своеобразие с системой других родственных терминов.

**Ключевые слова:** Научное мировоззрение, собственный пласт, специальная лексика, общетюркские и узбекские термины, исконный пласт, арабские агротермины, сельскохозяйственные термины, персидские агротермины, русские агротермины, международные агротермины, вода, основа, аффикс.

**Kirish.** Bugungi o'zbek tili agroterminlar tizimi ibtidoiy dehqonchilik va zamonaviy agrar sohaning uyg'unlashgan nuqtasidagi tushuncha va hodisalarni ifodalovchi turli ifoda va ma'nolarga ega bo'lgan terminlardan tarkib topgan. Qadim dehqonchilik madaniyati bilan zamonaviy agrar sohalarning o'zaro integratsiyasi natijasi soha terminlari ma'no ko'lamining kengayishi va terminlar tizimining boyish omili sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek xalqi tarixi va madaniyatida dehqonchilikning bog'dorchilik, sabzavotchilik, polizchilik, paxtachilik kabi ichki sohalari alohida ahamiyat kasb etib, barqaror o'rin egallab keladi. Shuningdek, fan-texnika yutuqlari, islohot hamda innovatsiyalarning agrar sohaga keng va samarali tatbiq

qilinishi bu sohaning shiddat bilan rivojlanishiga muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Bu jarayon va holat esa agrar soha terminlari tizimi va tarkibida, ularning leksik-semantik tabiatida ham namoyon bo'lishi tabiiy.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Turli tillarga mansub terminlar, terminologiyaning nazariy muammolari bilan shug'ullangan G.O.Vinokur, A.A.Reformatiskiy, V.V.Vinogradov, S.G. Barxudarov, O.S. Axma'nova, K.A.Levkovskaya, B.N.Golovin, V.P.Danilenko, V.M.Leychik, shuningdek, muammoning amaliy jihatlarini o'rgangan D.S.Lotte, S.A.Chapligina, S.I.Korshunova, G.L.Kandelaki tadqiqotlarida terminologiya so'zi asosan ikki ma'noda qo'llanilgan:

1. Terminologiya – muayyan sohalarda maxsus ma'noni ifodalovchi so'z va so'z birikmalari majmui. 2. Terminologiya-terminlarning grammatik sathdagi o'rni va tilda amal qilish bilan bog'liq bo'lgan muayyan qonuniyatlarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi lingvistikaning alohida aspekti [1]. O'zbek tilining izohli lug'atida termin so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan: Termin [lot.terminus-cheh. chegara] Fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z e'ki so'z birikmasi; atama. Botanika terminlari. Zargarlik terminlari. Paxtachilik terminlari. – Yo'ldosh Elmurodga notanish terminlarni tushuntira ketdi. Shuhrat, Shinelli yillar.[2] Terminlar ilmiy kommunikatsiyadan jonli so'zlashuvga o'tganda, xalq uchun tushunarli so'zga aylana boradi. —O'TAL. XX asrning 70-yillarida nashr etilgan —The World Encyclopedia Dictionary lug'atida termin so'zi quyidagicha ta'riflangan: —Terminology-the special words or terms used in science, art, business and economy[3]. Tarjimas: terminologiya fanda, san'atda, biznes va iqtisodda ishlatiladigan maxsus so'zlardir. Demak, termin bu ma'lum bir soha e'ki sohalarda doirasida (terminlarda ham polesemantiklik xususiyati mavjud) qo'llanuvchi aniq ma'noni ifodalovchi so'z e'ki so'z birikmasi, deya olamiz. Chunki terminlarni qo'shma so'z va birikma shakliga yetarlicha misollar keltirish mumkin. Muayyan soha ilmiy leksikasining ichki tarmoqlari xususiyatlarini ko'rsatish uchun uning leksikasiga xos sohaviy semik xususiyatlari va mikrosistemalardagi ichki modifikatsiyasini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish katta ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilining agroterminlar tizimi ham boshqa leksik-terminologik tizimlarda kuzatilganidek o'zbek tili ichki imkoniyatlari va tashqi manbalar hisobiga ham boyib, rivojlanib, takomillashib kelmoqda. Hozirgi kunda mavjud tarixiy adabiyot va manbalar, lug'atlarga asoslanib o'zbek tili agroterminlarini asosan turkiy tillar, xususan, o'zbek tili, arab, fors, rus va boshqa tillarga mansubligini belgilaymiz. Shunga monand, o'zbek tili agroterminlarini o'z va o'zlashganlik nuqtai nazaridan quyidagicha tasniflash mumkin:

1) o'z qatlam (umumturkiy va o'zbekcha terminlar);

2) o'zlashgan qatlam:

arabcha agroterminlar;

forscha agroterminlar;

ruscha agroterminlar;

baynalmilal agroterminlar.

O'zbek tilining tarixi bilan bog'liq yozma manba va tadqiqotlarga ko'ra, o'zbek tilining umumturkiy va o'zbekcha agroterminlari sifatida quyidagilarni qayd etish lozim: ariq, arpa, bug'doy, burchoq, bo'yinturuq, irmoq, boshqoq, alang, chechak, maysa, kunjut, olma, ekin, ekma, sochma, terim, urug', ildiz, tegirmon, buloq, yer, tuproq, otiz, yaproq, dala, cho'l, qumloq, qumoq, suv, o'zan, dengiz, tomir, tarvuz, tariq, chiy, bo'g'im, uzum, qo'sh, qatqaloq, quloq, jilg'a, o'ra, ko'l, chopiq, taqir, adoq, balchiq, o'p'qon, oqim, oqzoq, yoyilma, uya, sug'orish, ekish kabilar[4].

O'zbek tili agroterminlari tizimidagi turkiy tilga xos birliklarni belgilash va aniqlashda muhim asos bo'lib xizmat qiluvchi "Devonu lug'otit turk" asarida suv va suvchilik tushunchalari bilan bog'liq 1200 dan ortiq so'z va termin mavjudligi aniqlangan. Suvlamoq, aqindi suv, suzundi suv, suzuk suv, suvlag', suvsamoq, suvg'armoq, oqmoq kabi umumturkiy qatlamga mansub atamalarni misol sifatida keltirish mumkin[5].

O'zbek tili agroterminlari tarkibida, yuqorida ta'kidlangandek, o'zlashma qatlamga mansub terminlar

mavjud bo'lib, o'z qatlam agroterminlari tizimining muhim boyish manbaini tashkil etadi. Shunga muvofiq, hozirgi o'zbek tilining o'z qatlam agroterminlarini quyidagicha guruhlarga ajratishimiz mumkin:

1. Fors-tojikcha asosli o'z qatlam agroterminlari. O'zbek tili leksik tizimida fors-tojikcha so'zlar va terminlar miqdori anchani tashkil qiladi. A.K.Borovkov, F.Kamolov, S.Usmonov kabi tilshunoslarning tadqiqotlariga ko'ra [6], o'zbek tiliga turli xil ma'noli leksik birliklar o'zlashishi bilan birga dehqonchilik va agrar sohaga oid terminlar ham o'zlashgan. Shu agroterminlar asosida esa yasovchi affiksalar orqali fors-tojikcha asosli o'zbekcha agroterminlar hosil qilingan: dehqonchilik, bahorgi, gullash, yaganalash, marza olmoq, payvandlash, g'allachilik, shonalash, parvarishlash, zaharlanish, changlanish, changlantirish, namlik, namlanish, shikastlanish, shudgorla, shudgorlash, dorilash kabi. Fors-tojik tilidan o'zlashgan so'zlarga -la, -lan, -lash, -gi, -chi, -chilik so'z yasovchi affiksalar va olmoq, qilmoq, bermoq kabi yordamchi fe'llar yordamida ko'plab o'zbek tilining qo'shma fe'llari yasalgan: marza olmoq, payvand qilmoq, parvarish qilmoq, yagana qilmoq, shudgor qilmoq, dori bermoq kabilar.

2. Arabcha asosli o'z qatlam agroterminlari. Yasalish asosi arabcha bo'lgan o'z qatlamga mansub agroterminlar ham o'zbek tili lug'at tarkibida ancha miqdorni tashkil qiladi. Yuqorida qayd qilingan yasovchi affiksalar arabcha asosli o'z qatlam agroterminlarini hosil qilishda ham faol ishtirok etadi: ijara, mulkchilik, hasharchi, hosilotlik, iqlimlashish, zararlanish, kasallanish, mahalliy lashtirish singari.

3. Ruscha va baynalmilal asosli o'z qatlam agroterminlari. O'zbek tilining o'z qatlam agroterminlari tizimida asosi rus tili va g'arb tillaridan bo'lgan terminlar ham talaygina. Rus tilida Yevropa tillaridan o'zlashtirilgan jarayonlarni anglatuvchi terminlarning bir qanchasi "asos+siya (-siya)", "asos+atsiya", "asos+yatsiya" qoliplari asosida shakllantirilgan bo'lib, o'zbek tilining yasovchi affiksalar yordamida o'z qatlam agroterminlari maqomiga ega bo'lgan. Ular "o'zlashma asos+o'zbekcha yasovchi" derivatsiya qolipi asosida yuzaga kelgan hisoblanadi. Bular baynalmilal o'zlashmaga, asosan, -lash, ayrim holatlarda -lashtirish affiksalar qo'shilishi natijasidir: melioratsiyalash, drenajlash, kaliylash, dezinseksiyalash, dezinpeksiyalash, defoliatsiyalash, dustlash, boronalash, intensivlash, kollektivlashtirish, mexanizatsiyalash, mexanizatsiyalashtirish, klasterlashtirish, minerallash, kultivatsiyalash, fosforlash, chizellash, gibridlash kabilar. Bundan tashqari, -chi, -lik, -chilik yasovchi affiksalar vositasida ham o'zlashma asosli o'z qatlam agroterminlari hosil qilingan: fermerlik, agronomlik, seleksiyachi, kombaynchi, seleksiyachilik va boshq. Shuni ta'kidlash lozimki, qayd etilgan agroterminlarning asosi mustaqillik davrigacha o'zbek tiliga rus tilidan, istiqloq davrida esa bevosita boshqa xorijiy tillardan, xususan, ingliz tilidan to'g'ridan to'g'ri o'zlashmoqda. Kuzatilganidek, o'zbek tilining agroterminlar tizimi o'z va o'zlashma qatlam birliklari hisobiga boyib, rivojlanib kelmoqda. O'z qatlamga mansub yangi terminlarning vujudga kelishida o'zlashma terminlar ham muhim omil sanalib, yasalish asosi va vositasi sifatida faol ishtirok etadi. Bu holat o'zbek tilining agroterminlari tizimida ham kuzatiladi. Xulosa qilinganda, terminlar tadqiqiga bag'ishlangan ishlar va leksikografik manbalarga diqqat qaratsa, ularda ikki komponentli terminlar boshqa murakkab tarkibli terminlarga nisbatan katta miqdorni tashkil etishi kuzatiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Лейчик В.М. Номенклатура-промежуточное звено между терминами и собственными именами // Вопросы терминологии и лингвистической статистики.- Воронеж: 1971.-161с.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jild. 1-5-jildlar. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006-2008;
3. Sherman Le Roy Wallace. Taxation in Egypt .Princeton, N.J.:Princeton University Press, 1938.521 h

4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. – Toshkent: Universitet, 2009. – 284 b.;
5. Dehqonchilik so'zlarining qisqacha izohli lug'ati. (Tuzuvchi: Jabborov X.) – Qarshi: Nasaf, 2016. – 296 b.; Jabborov X. O'zbek tilining dehqonchilik leksikasi. – Toshkent: FAN, 2011. – 160 b
6. Jabborov X. O'zbek tilining dehqonchilik leksikasi. – Toshkent: FAN, 2011. –160 b. –B. 49.
7. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: FAN, 1985. – B. 85.



**Maxbuba AXATOVA,**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti, f.f.d. (DSc)*

*E-mail: oqkabutar75@list.ru*

*ToshDO'AU professori, f.f.d. H.Dadaboyev taqrizi asosida*

## TILSHUNOSLIKDA SO'ZLARNI MA'NOVIY GURUHLARGA BO'LIB O'RGANISH MASALASI

Annotatsiya

Ilmiy sohalarga oid ilmiy adabiyotlar, darslik va qo'llanmalarda bir tushunchaning xilma-xil til birliklari orqali ifodalanishi natijasida chalkashliklar kelib chiqishi muammosi, xususan, tilshunoslikda so'zlarni mavzuviy guruhlariga ajratish va mazkur lingvistik hodisani nomlash masalasi haqida mulohazalar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Leksema, jahon tilshunosligi, o'zbek tilshunosligi, an'anaviy tilshunoslik, sistem tilshunoslik, ilmiy termin, ilmiy terminologiya, mavzuviy qator, leksikani tasnif qilish, mavzuviy tasnif metodi, til lug'at sistemasi, terminologik guruh, leksikogrammatik sinflar, terminologik izohli lug'atlar, terminshunos.

## ПРОБЛЕМА ИЗУЧЕНИЯ СЛОВ ДУХОВНЫМИ ГРУППАМИ В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

В научной литературе, учебниках и пособиях по научным направлениям решена проблема путаницы, возникающая при выражении одного и того же понятия посредством разных языковых единиц, в частности, вопрос разделения слов на тематические группы в языкознании и вопрос наименования этого языкового явления.

**Ключевые слова:** Лексема, мировое языкознание, узбекское языкознание, традиционное языкознание, систематическое языкознание, научный термин, научная терминология, тематический ряд, классификация лексики, метод тематической классификации, языковая словарная система, терминологическая группа, лексико-грамматические классы, терминологические пояснения. словари, терминолог.

## THE PROBLEM OF STUDYING WORDS BY SPIRITUAL GROUPS IN LINGUISTICS

Annotation

In the scientific literature, textbooks and manuals of scientific fields, the problem of confusion arising from the expression of the same concept through different language units, in particular, the issue of dividing words into thematic groups in linguistics and the issue of naming this linguistic phenomenon.

**Key words:** lexeme, world linguistics, Uzbek linguistics, traditional linguistics, systematic linguistics, scientific term, scientific terminology, thematic series, classification of the lexicon, method of thematic classification, language dictionary system, terminological group, lexicon – grammar classes, terminological explanatory dictionaries, terminologist.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M. Mirziyoyev boshchiligida ilgari surilayotgan, Prezident asarlarida o'z ifodasini topgan 3-rensans poydevorini qurish davlat siyosatining amalga oshirilishi davlat tili sanalgan, o'zbek milliy tilining (o'zbek terminologiyasining ham) nufuzini oshirish, undagi kamchiliklarni bartaraf etish, tilni takomillashtirish bilan bevosita chambarchas bog'liqdir.

Ma'lumki, og'zaki va yozma nutqning ma'daniyatli, yuksak saviyasi, jozibador, ta'sirchan, maqsadga muvofiq tarzda tuzilishida ma'nodoshlarning o'zni beqiyos. Ayniqsa, o'zbek tili ma'nodoshlarga boyligi bilan ajralib turadi va uning bu xususiyati boy til sifatida namoyon bo'lishiga zamin yaratadi.

Biroq, ilmiy sohalar terminologiyasida ma'nodoshlik va variantlilikka salbiy qaraladi. Buning boisi sohaga oid ilmiy adabiyotlar, darslik va qo'llanmalarda bir tushunchaning xilma xil birliklar orqali ifodalanishi natijasida chalkashliklar kelib chiqadi. Shuning uchun darslik, o'quv qo'llanmalarda sohaning ilmiy termini sifatida ma'nodoshlarning faqat birini qo'llashga ehtiyoj tug'iladi.

Shu bois, zamonaviy o'zbek terminologiyasida ilmiy terminning oldiga muayyan ilmiy sohaga oid bir tushuncha bir termin bilan atalishi kerak, ma'nodoshlik va variantdorlikka yo'l qo'yilishi kerak emas, degan dastlabki va muhim talab qo'yiladi.

Tilshunoslikda so'zlarni mavzuviy guruhlariga bo'lib o'rganish tushunchasini lingvistik termin bilan atash masalasida ham anchayin chalkashliklar mavjud.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Til nazariyasiga oid asarlar tarjimalari, ilmiy jurnallarda e'lon qilingan maqolalar, konferensiya materiallari, tilni ma'noviy guruhlariga bo'lib sistemali o'rganishga bag'ishlangan dissertatsiya ishlari, lug'atlar, darslik va qo'llanmalardan to'plangan lisoniy materiallar tahlil qilingan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bugun zamonaviy va mukammal tadqiqot usul va vositalari asosida yaratilgan ilmiy asarlarga umumbashariy sivilizatsiyaga tom ma'noda xizmat qila oladi.

Shuning uchun, mazkur mavzuni yoritishda shunday tadqiqot usul va vositalaridan, asosan, kuzatish va qiyoslash, leksikani, xususan, sohalar leksikasini sistema sifatida tadqiq etish, qiyosiy-tarixiy, tavsifiy, tasnifiy, genetik tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** So'zlarni ma'noviy guruhlariga ajratib o'rganish tilda chegaralangan leksikaga oid lug'at fondining boy yoki kambag'alligini aniqlashga yo'l ochadi. O'z va o'zlashma qatlamlar leksikasini mavzuviy guruhlariga bo'lish va ularni qiyosiy o'rganish tilda sinxron qatlamda umumleksika va sohalariga oid qanday so'zlar iste'molda ekani, ularning semantikasini yaqqol ochib beradi.

Mavzuiy guruhlar muammolari hal kilinishi, shuningdek, so'zlarning semantikasi, so'z yasaliş usullari, istilohlarning til manbasi, o'z va o'zlashma qatlamlari aniqlanishi tilning ochilmagan nozik qirralarining ochilishiga zamin yaratadi. Ilmiy terminologiyada salbiy hodisa hisoblangan sinonimiya muammosining hal qilinishiga turtki beradi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, Co'zlarning mavzuiy qatorlari tushunchasi leksikani tasnif qilishda turli darajada qo'llanilmoqda. Bu usuldan foydalanishda izchillik va birlik yo'q, mavzuiy guruh, mavzuiy qator tushunchalari va ularning mezonlari yetarli aniqlikka ega emas.

Terminlar tadqiq qilingan monografik tadqiqotlarda kam miqdordagi terminlar ilmiy sohalarda qo'llash uchun tavsiya qilingan. Bizningcha, bunday holat bilan ilmiy terminologiyada mavjud sinonimiya muammosi hal qilinib qolinmaydi. Muayyan sohada bir tushunchaning bitta termin bilan ifodalinishini ta'minlashga erishishning birdan bir yo'li, o'zbek terminologiyasi faoliyatining izchil oshirilishidir. O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori ilmiy tadqiqot institutida Terminologiya bo'limi qoshida yagona maxsus terminologik kengash tuzilib, o'zbek tilida nashr qilinayotgan ilmiy adabiyotlar, ayniqsa o'quv yurtlari uchun yaratilayotgan darslik va o'quv qo'llanmalari terminologik nuqtai nazardan muhokamadan o'tkazilishi shart qilib qo'yilishi kerak.

Leksik qatlamlarda so'zlarni mavzuiy guruhlariga bo'lib o'rganish va bu lingvistik hodisani ilmiy terminologiyada nomlash masalasida tilshunoslikda, xususan, o'zbek tilshunosligida ko'plab mulohazalar bildirilgan.

Til birliklarini ma'noviy guruhlariga ajratish muayyan xalq tilida qaysi sohalarga oid leksikaning boy yoki kambag'alligini belgilashga imkon beradi. O'z va o'zlashma qatlamlar leksikasini mavzuiy guruhlariga bo'lish va ularni qiyosiy o'rganish o'z qatlamda qanday sohalarga oid so'zlar saqlanib turganini, qaysi sohalarga oid so'zlar tarixan chiqib ketgani va ular o'rmini o'zlashgan so'zlar egallaganini aniqlashga yo'l ochadi.

«Xalqing ijtimoiy-siyosiy hayoti, xo'jaligi, sotsial-madaniy turmushi, diniy qarashlariga oid ma'lumotlar tematik guruhlarida yorqin ifodalanadi. Demak, so'zlarni tematik guruhlariga ajratib tadqiq qilish tilning xalq hayoti bilan bog'liq xususiyatlarini ham namoyish qilishga imkon beradi. Bu jihatdan mavzuiy tasnif metodi lingvosotsiologik qimmatga egadir. Bu usul ba'zi hollarda alohida ijodkorlarning lug'aviy boyligini namoyish etishga ham imkon beradi. Mavzuiy tasnif metodi keyingi paytlarda ilmiy terminologiya sohasida ko'p qo'llanadigan bo'ldi» [2].

E. Begmatovning yuqoridagi fikrlarini ma'qullaymiz.

Xullas, «so'zlarni mavzuiy guruhlariga ajratish so'zlarni ularning ma'nosi va nominatsion funksiyasiga ko'ra o'xshash qatorlarga jamlashni ko'zda tutadi. So'zlarning mavzuiy qatori deganda bir umumiy mavzu, g'oya atrofida birlashgan (uyg'unlashgan) so'zlarni muayyan guruhlar (mavzular)ga jamlash tushuniladi» [2].

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, so'zlarning mavzuiy qatorlari tushunchasi leksikani tasnif qilishda turli darajada qo'llanilmoqda. Bu usuldan foydalanishda izchillik yo'q. Buning ustiga mavzuiy guruh, mavzuiy qator tushunchalari va ularning mezonlari yetarli aniqlikka ega emas. Chunonchi, N. M. Shanskiy rus tilining o'z qatlam so'zlarini tasnif qilar ekan, guruh (группа) terminini qo'llaydi [14].

D. N. Shmelyov esa, shunchaki «...bunday so'zlarga shular kiradi...» iborasidan [15. B-135] foydalanadi. M. I. Fominaning asarida «генетик групалар» termini [13] uchraydi. Qoraqalpoq tilshunosi YE. Berdimuratov qoraqalpoq tilidagi umumturkiy so'zlarni mavzuiy qatorlarga

ajratar ekan, «so'zlarning quyidagi turlari mavjud [3] iborasidan foydalanadi.

Shuningdek, so'zlarni mavzuiy qatorlarga ko'ra tasnif qilish va bu usulni bir termin bilan nomlash masalasida o'zbek tilshunosligida ham izchillik va birlik yo'q. F. Abdullayev o'zbek tilidagi arabcha o'zlashma qatlam so'zlarini mavzuiy tasnif qilar ekan, shunday yozadi «Tilimizdagi turli tarixiy davrlarda kirib qolgan arab so'zlarini quyidagi asosiy leksik gruppalariga bo'lishimiz mumkin» [1].

S. Usmonov o'zining ba'zi ishlarida o'zbek tili lug'at tarkibidagi so'zlarni 7 ta yirik qatlamga ajratib, ularning ayrimlarini tematik gruppalariga ajratsa [19], boshqa bir ishda tematik gruppalar o'rnida so'zlarning ma'no gruppalarini [11] shaklini qo'llaydi. Ba'zi ishlarda semantik guruh, tematik gruppalar, leksik gruppalar [6] birikmalari uchraydi.

A. A. Ufimseva so'zlarning mavzuiy guruhlarini til lug'at sistemasidagi terminologik gruppalar, etimologik gruppalar, leksik-grammatik sinflar, so'zlarning so'z yasaliş munosabatlariga doir guruhlar qatorida talqin qiladi. Uning fikricha, mavzuiy guruhlar so'zlarning funksiyasi, nominatsion xususiyatlariga tayanadi [12]. Uning uqtirishicha, so'zlarning ashyoviy («predmetniye»), guruhlar so'zlarning leksik-semantik guruhlaridan, shuningdek, tushunchalar munosabati («ponyatiyniye poli») hodisasidan farqlanadi [12].

So'zlarni u yoki bu mavzuiy guruhga mansub deb bilish: a) so'zlar orasidagi ma'no munosabatlariga; b) so'zlarning ashyoviylik (predmetlilik) xususiyatiga, ya'ni so'zning qanday predmet haqidagi tushunchani ifodalashiga; v) so'zlarning nominatsion belgilariga bog'liqdir.

Bizningcha, so'zlarning mavzuiy guruhlariga ma'no jihatdan bir yo'nalishdagi so'zlar (masalan, bir so'z turkumiga oid so'zlar) yoki aralash tipli so'zlar kirishi mumkin. Bunday so'zlarni bir mavzuiy guruh doirasida birlashtiruvchi kuch va o'lchov bu - ma'no va mavzuiy belgidir.

Shuni ta'kidlash kerakki, mavzuiy guruhlar ikki tushunchani anglatadi: so'zlarni tasnif qilishning lingvistik metodlaridan birini, mavzuiy guruhlarini... Mavzuiy guruhlar, avvalo, ilmiy metod (lingvistik usul) dir. Bu usul yordamida belgilanuvchi leksik guruhlarini til materialini beradi.

«Muayyan biror tilda u yoki bu tip so'zlarning bor bo'lishi yoki bo'lmasligi, ko'p bo'lishi yoki aksincha kam bo'lishi til egasi bo'lgan xalqning obyektiv ehtiyojiga bog'liq. Bunday ehtiyojni o'sha xalq yashab turgan tabiiy muhit, iqtisodiy-ijtimoiy sharoit, madaniy-ma'naviy talablar belgilaydi. Masalan, o'zbek tilida dehqonchilik, suvchilik va boshqa xil kasb-kor bilan bog'liq terminlar ko'p. Uzoq shimolda yashovchi xalqlar tilida esa qor va sovuq bilan bog'liq, bug'uchilik va baliqchilik xo'jaligi bilan aloqador so'z va terminlar ko'p. Demak, tillarning lug'at tarkibi unga kiruvchi so'zlar tarkibiga ko'ra ham farqlanadi. Mana shu farqni aniqlash maqsadida so'zlar ma'lum guruhlariga ajratiladi. Tilshunoslikda "so'zlarni mavzuiy guruhlariga ajratish" deb yuritiluvchi tasnif usuli mana shu maqsadni nazarda tutadi. So'zlarni mavzuiy guruhlariga ajratish ularni vazifasi va ma'nosiga ko'ra ma'lum o'xshash qatorlarga jamlashni ko'zda tutadi.

Mavzuiy guruhlar so'zlarning ma'lum umumiy mavzu atrofida birlashishi, uyg'unligidir.

So'zlarni mavzuiy guruhlariga ajratib o'rganish usuli lingvistik uchunina emas, xalq tarixi, etnografiyasi uchun ham qimmatlidir. Chunki mavzuiy guruhlarini o'rganish orqali xalqning xo'jaligi, ijtimoiy-tarixiy xususiyatlari: etnografiyasi, madaniy-ma'naviy qarashlari haqida aniq tasavvurlar olish mumkin» [4].

Sistem leksikologiya yo'nalishida esa bu masalaga shu tarzda qaraladi: «...har bir leksema muayyan birlashtiruvchi sema asosida boshqa leksemalar o'zaro birlashgan, birikkan guruhni ham tashkil etadi. Chunonchi, [ko'z] - [quloq] - [burun] - [og'iz] leksemalari «sezgi a'zolari» birlashtiruvchi

semasiga ko'ra, [daraxt] – [tol] – [mirzaterak] – [baqaterak] – [qayin] – [archa] va h. k. «daraxt» umumiy semasiga ko'ra bir guruhga birlashadi. Bunday guruhlar leksemalarning mazmuniy guruhları (LMG) deb ataladi.

Bunday LMGlari o'z birlashtiruvchi semasining nomi, atamasi bilan nomlanadi. Masalan, «sezgi a'zolari LMG», «daraxt LMG», «tana a'zolari LMG» va b [7].

Turlicha LMG lar o'zaro umumiy sema – birlashtiruvchi sema asosida yana ham kattaroq to'dalarga, guruhlariga birlashadi. Chunonchi, «daraxt», «gul», «o't» LMGlari birlashtiruvchi «o'simlik» semasi asosida leksemalarning mavzu to'dalari (LMT)ga birlashadi. LMT lar o'z ichiga kamida ikkita LMG dan tortib o'ntagacha va undan ortiq LMG larni olishi mumkin [7].

Bir turkumga oid leksemalarni birlashtiruvchi leksik tizimlardan tashqari turli turkumlarga oid bo'lgan, ammo bir mavzu doirasidagi leksemalarni birlashtiruvchi leksik maydonlar (mavzuviy maydonlar) ham ajratiladi. «Ruhii holat» mavzuiy maydoni (xursand - xafa), (shod - g'amgin), (sog' - devona), (kasal - tetik), (g'azab - nafrat), (ishonch - gumon), (kulmoq - yig'lamoq), (quvonmoq - zerikmoq), (shodlanmoq - xafalanmoq), (mayuslanmoq - tetiklanmoq), (bo'shashmoq - jonlanmoq) kabi o'nlab LMT va LMG larni o'z ichiga oladi [7].

Ammo LMGlarni ajratish nazariyasi ham o'zbek tilshunosligida hali to'la ishlab chiqilmagan. O'zbek tili leksemalarining mazmun guruhları sistem usulda yetarlicha o'rganilmagan. Faqat nutq fe'llari I. Qo'chqortoyev tadqiqotlarida, holat fe'llari R. Rasulov ishlarida, qavm-qarindoshlik nomları M. Narziyeva, baholash sifatları S. G'iyosov, hayvon nomları R. Safarova, tana a'zolari nomları B. Jo'rayev, ko'lam sifatları I. Abdurahmonov izlanishlarida sistem usulda LMG lar sifatida tahlil etilgan.

Jumladan, I. Qo'chqortoyev o'zbek tilidagi nutq fe'llarini 8 ta LMG ga ajratadi: «1) demoq fe'li; 2) gapiruv fe'llari: (gapirmoq, atamoq, aljimoq, maqtamoq, tushuntirmoq, isbotlamoq, yakunlamoq); 3) ifodalov fe'llari (aytmoq, bildirmoq, ta'kidlamoq); 4) talaffuz fe'llari: (boshqarmoq, o'shqirmoq, qichqirmoq, big'illamoq); 5) subyektiv hukm fe'llari: (kesatmoq, maqtamoq, ta'riflamoq, yomonlamoq, chalpimoq, o'pkalamoq, jerkimoq ...); 6) nutqiy da'vat fe'llari (buyurmoq, undamoq, targ'ib qilmoq, taklif etmoq, qistamoq ...); 7) simmetrik nutq fe'llari: (suhbatlashmoq, gaplashmoq, otamlashmoq, hangomalashmoq, chaqchaqlashmoq, o'rtoqlashmoq, sirlashmoq, dardlashmoq, fikrlashmoq, maslahatlashmoq ...)» [17].

R. Rasulov o'zbek tilidagi holat fe'llarini 9 ta LMG ga ajratadi: «1) davomli holat fe'llari: (turmoq, yotmoq, o'tirmoq, qolmoq ...); 2) harakat natijasi bo'lgan holat fe'llari: (to'xtamoq, tinmoq, qoraymoq, yorishmoq ...); 3) ijro holati fe'llari: (saqlamoq, asramoq, qo'riqlamoq, poylamoq ...); 4) harakatning holati fe'llari: (kuchaymoq, qizimoq, ko'paymoq

...); 5) malaka holati fe'llari: (odatlanmoq, o'rganmoq, ko'nikmoq ...); 6) obrazli holat fe'llari: (qaqqaymoq, olovlanmoq, charaqlamoq, oltinlanmoq ...); 7) biologik holat fe'llari: (keksaymoq, chanqamoq, gullamoq, qovjiramoq ...); 8) fiziologik holat fe'llari: (uxlamoq, charchamoq, kasallanmoq, semirmoq); 9) ruhiy holat fe'llari: (qo'rqmoq, zavqlanmoq, g'azablanmoq, uyalmoq ...)» [8].

R. Safarova faqat uy hayvonları terminları ichida quyidagi LMGlarni ajratadi: «qoramol» LMG: (sigir, buzoq, tana, g'unajin, hukiz, buqa, govmish. ...); «ot» LMG: (ot, baytal, biya, ayg'ir, saman, yo'rg'a, yobu, to'riq, jiyron, bedov, ..., to'bichoq, toy ...); «qo'y» LMG: (qo'y, qo'chqor, qo'zi, baqlan, hisori, arabi, merikos ...); «echki» LMG: (echki, taqa, serka, uloq...); «it» LMG: (ko'ppak, qanjig, bo'ribosar, tozi, gurji, kuchuk ...); «eshak» LMG: (eshak, mocha, xo'tik, xachir ...); «tovuq» LMG: (tovuq, xo'roz, makiyon, jo'ja ...); «cho'chqa» LMG: (cho'chqa, qabon, megajin ...)» [9].

Demak, an'anaviy tilshunoslik va sistem tilshunoslik so'zlarni guruhlash masalasida ayriqcha qarashlarga ega va mazkur lingvistik hodisani turlicha terminlar bilan ifodalaydilar.

Ma'lumki, muayyan ilmiy soha lug'aviy qatlami tadqiq qilinganda tadqiqotning zimmasiga o'sha soha uchun terminologik talablarga javob beradigan, tushunchani to'g'ri ifodalay oladigan, ixcham, leksik, grammatik va b. jihatlardan adabiy tilining muayyan meyorlariga mos keladigan termini tanlash, qo'llash uchun tavsiya etish, ya'ni termin tanlash ishlarini bajarish shart qilib qo'yiladi. Va aynan mazkur ish odatda terminologik tadqiqotning ilmiy – amaliy jihatdan qiymatini belgilaydi deb qaraladi. Bu mulohazani ma'qullamaymiz. Sababi qaysi bir terminologik ish ko'zdan kechirilsa, xususan nomzodlik ishlarida, sohada qo'llash uchun tavsiya qilingan ilmiy terminlar soni 10 yoki 15 nafardan oshmaydi. Terminlar tadqiq qilingan ilmiy ishlarda kam miqdordagi terminlarning tavsiya qilinishi bilan mavjud muammo hal qilinib qolinmaydi. Muayyan sohada bir tushunchaning bitta termin bilan ifodalanishini ta'minlashga erishishning birdan bir yo'li yagona maxsus terminologik kengash tuzilib, nashr qilinayotgan ilmiy adabiyotlar, ayniqsa o'quv yurtları uchun yaratilayotgan darslik va o'quv qo'llanmaları, xoh u oliy ta'lim uchun, xoh majburiy ta'lim uchun mo'ljallangan bo'lsin, terminologik nuqtai nazardan muhokamadan o'tkazilishi shart qilib qo'yilishi kerak, bizningcha. Dastlab ilm-fanga oid mukammal holdagi terminologik izohli lug'atlar soha mutaxassisları va terminologlar hamkorligida tuzilishi zarur. Hamda shu lug'atlarga asoslanib ilmiy adabiyotlar, yangi darslik, o'quv qo'llanmaları muhokama qilinishi va undan keyin chop etishga ruxsat berilishi lozim. Ana shundagina ilmiy adabiyot yaratuvchi shaxsning xohlagan so'zni xohlagan shaklda "termin" deb qo'llab ketaverishiga chek qo'yiladi, ilmiy sohalarda terminologik bir xillikka imkon qadar erishiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев Ф. Ўзбек тили лексикасининг баъзи бир масалаларига доир. Тил ва адабиёт институти асарлари. – Т., 1949. – Б. 93.
2. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Т.: Фан, 1985. – Б. 121.
3. Бердимуратов Е. Ҳозирги замон қарақалпақ тили. Лексика. - Нукус, 1964. – Б. 72.
4. Гольдин В. Е. Об одном аспекте из учения тематической группы (В сб.: Язык и общество. Вып. 2). - М., 1970. – Б. 164.
5. Маҳкамов Н. Адабий норма ва плеоназм. – Т., 1986;
6. Муҳаммаджонов Г. Ўзбек тили лексикаси тараққитининг баъзи масалалари. - Т., 1981. – Б.лар 30, 40.
7. Нейматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б. 111.
8. Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облегалтор валентликлари. – Т., 1989. – Б. 105.
9. Сафарова Р. Гипонимия в узбекском языке. АКД. Т., 1990. – Б. 75.
10. Усмонов С., Мирзаев М., Расулов И. Ўзбек тили. –Т., 1978. – Б.лар 31-32.
11. Усмонов С. Ўзбек тилининг луғат составидаги тожикча-форсча ва арабча сўзлар. Навоийга армуғон. – Т., 1968. – Б.лар 116, 124.

12. Уфимцева А. А. Опыт изучения лексики как системы. - М., 1962. - Б. 133.
13. Фомина М. И. Современный русский язык. Лексикология. - М., 1978. - Б. 136.
14. Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. - М., - Б. 76.
15. Шмелёв Д. Н. Современный русский язык. Лексика. - М., - Б. 235.
16. Ўзбек терминологиясида лексик вариантлар. - Т.: Фан, 1986;
17. Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. - Т., 1977. - Б. 123.
18. Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. - Т.: Фан, 1981.



**Raxima BERDIYOROVA,**

*Qarshi davlat universiteti Fakultetlararo ingliz tili kafedrasida o'qituvchisi*

*E-mail: Jahon.joha.2004@gmail.com*

*O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti professori, f. f. d. Yakubov Jamoliddin Abduvaliyevich taqrizi asosida*

### ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA "PRAGMATIKA" VA "PRAGMALINGVISTIKA" SO'ZLARI QO'LLANISHINING LEKSIK, SEMANTIK VA SINTAKTIK XUSUSIYATLARI

Annotsiya

Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikda "pragmatika" va "pragmalingvistika" tushunchalari, pragmatika atamasi, pragmatika tushunchasi konkret holat, shart-sharoitga monand ish ko'rish, moslashish, amal qilish tushunchalari haqida qisqacha fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Pragmatika, pragmalingvistika, lingvomadaniyat, kognitiv tilshunoslik, matn tilshunosligi, qiyosiy tilshunoslik, sotsiolingvistika, psixolingvistika.

### LEXICAL, SEMANTIC AND SYNTACTIC FEATURES OF THE USE OF THE WORDS "PRAGMATICS" AND "PRAGMALINGUISTICS" IN MODERN LINGUISTICS

Annotation

In this article, the concepts of "pragmatics" and "pragmalinguistics" in modern linguistics, the term pragmatics, the concept of pragmatics is a concrete situation, the concepts of working according to the conditions, adapting, and acting are briefly discussed.

**Key words:** Pragmatics, pragma linguistics, linguistic culture, cognitive linguistics, text linguistics, comparative linguistics, sociolinguistics, psycholinguistics.

### ЛЕКСИЧЕСКИЕ, СЕМАНТИЧЕСКИЕ И СИНТАКСИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УПОТРЕБЛЕНИЯ СЛОВ «ПРАГМАТИКА» И «ПРАГМАЛИНГВИСТИКА» В СОВРЕМЕННОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация

В данной статье кратко рассматриваются понятия «прагматика» и «прагмalingvistika» в современной лингвистике, термин прагматика, понятие прагматики конкретной ситуации, понятия работы по условиям, адаптации и действия.

**Ключевые слова:** Прагматика, прагмalingvistika, лингвокультура, когнитивная лингвистика, лингвистика текста, сравнительная лингвистика, социolingvistika, психolingvistika.

**Kirish.** Hozirgi vaqtda pragmatika tilshunoslikning dolzarb yo'nalishi bo'lib qolmoqda. Olimlarning lingvistik voqelikning bu jihatiga qiziqishi, bizningcha, zamonaviy tadqiqotlarning antropotsentrikligi bilan bog'liq. Pragmalingvistika til birliklarining kommunikativ – pragmatik sharoitda qo'llanilishini ham o'rganadi.

Pragmalingvistika tilshunoslik doirasida hamda pragmatika atamasi bilan semiotika sohasida til belgi larining nutqda va amaliyotda qo'llanilishi katta ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikda pragmatika haqida ko'plab ishlar bisyor. Pragmatika haqida ta'riflar ham rang barang. Mualliflar soni ko'paygani sari berilayotgan ta'riflardagi turli xillik, fikrlar ziddligi ham o'sib borayotganligining guvohi bo'lmokdamiz. Oxirgi 60-70 yil davomida pragmatikaning doirasi, qamrovi shunchalik kengaydiki, yagona bir nazariya va uning chegarasi haqida biror bir to'xtamga kelishning o'zi qiyinlashib bormokda. Buning ustiga, pragmalingvistikaning taraqqiyotiga kognitologiya, madaniy antropologiya, falsafa, mantiq, sotsiologiya, faoliyat nazariyasi kabi tilshunoslikning sarhaddoshlari va sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, matn nazariyasi kabi sohalari ham hissa qo'shib kelmoqda. Pragmalingvistik tadqiqotlarning predmetini nimalar tashkil qilmog'i darkorligi masalasi ham o'z dolzarbligini hanuz saqlab kelyapti. Pragmatika tildan foydalanuvchilarning gaplarining kontekstda o'rinli qo'llanilayotganligini o'rganuvchi sohadir" (Safarov 2008, 65).

Bizningcha, bu ta'rif ham pragmalingvistika predmetini keng doirada tasavvur qilinishi namunasidir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ma'lumki, dastlab Aristotel tomonidan qo'llanilgan mazkur pragmatika tushunchasi keyinchalik J.Lokk va YE.Kant singari faylasuflar orqali keng muomalaga kiritilganligini aytish mumkin. Pragmatika haqidagi asosiy g'oya amerikalik olim Ch.Pirs tomonidan o'rtaga tashlangan. (Melvil Y.K. Charlz Pirs 1968 – S. 9–17).

Shuning uchun ham "pragmatik" atamasi "amaliy" degan ma'noda ham qo'llaniladi. Pragmatika tushunchasi konkret holat, shart-sharoitga monand ish ko'rish, moslashish, amal qilish tushunchalarini ham qamrab oladi. "Pragmalingvistika lisonning qo'llanishi bilan shug'ullanuvchi, nutqiy vaziyatda faollashgan til tizimi haqidagi fan, tilni rejalashtirilayotgan maqsad nuqtai nazaridan tadqiq qiluvchi fan, nutq aktlarini tavsiflovchi nazariya, og'zaki nutq tahlil nazariyasi, shaxslararo munosabatlarni ifodalovchi lisoniy vositalarni o'rganuvchi soha va h.k." (Safarov 2008, 274) deb bundan yigirma yil oldin muhim nazariy qarashlar ila ta'rif bergan pragmalingvist olim Sh.Safarovning fikrlariga qo'shilamiz, nazarimizda pragmatika bu tilning inson va jamiyat xizmatida bo'lishidagi vazifasini amalga oshirilishi uchun izlanishidir." (Safarov 2008,72).

V. G. Gakdan so'ng biz pragmatikani "... tilshunoslikning o'rganuvchi bo'limi sifatida tushunamiz. Til shakllarining ma'nosi va qo'llanilishi muloqot holatiga, nutq harakatlarining turlariga qarab [Gak 1982 yil 5-bet. 17]. Pragmatika nutqiy predmet, adresat, ularning muloqotdagi o'zaro ta'siri, muloqot holati, ya'ni nutq odobining muammoli sohasiga to'g'ri keladigan savollar majmuini o'z ichiga oladi. Masalan, O.A. Agarkova va L.V.Putilina nutq odob-

axloqining jamiyatda qabul qilingan nutqiy xulq-atvor tamoyillari va qoidalariga, shu jumladan reaksiya tushunchasiga muvofiq amalga oshiriladigan an'anaviy nutq harakatlari yoki maqsadli nutq harakatlari tizimidagi o'rni aniqlaydilar.

Ta'kidlash lozimki, nutq akti ikki tomonlama harakat bo'lib, unda so'zlovchi va tinglovchi ishtirok etadi. Har bir gapning ma'nosi nafaqat so'zlovchining maqsadi bilan aniqlanadi, balki tinglovchining ma'noni idrok etishi bilan ham bog'liq. Bunday holda nutq ta'siri bilan bog'liqlik mavjud bo'lib, bu yerda nutq effekti nutqni hosil qilish uchun shartlar majmui sifatida ishlaydi.

Til tabiatini anglash va tilning amaliy qo'llanilishini tushunish pragmalingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv lingvistika, psixolingvistika, qiyosiy tipologiya kabi yo'nalishlar bilan bog'liqlikda o'z samarasini bera boshladi. Buning natijasida pragmatikada ma'no va mazmun jihatlarini tahlil etish orqali amaliy masalalarning yechimini topishga keng e'tibor qaratilmoqda. Nutqiy muloqotning pragmatik xususiyatlarini anglashga nafaqat tilshunoslar yoki faylasuflar, balki ijtimoiy soha mutaxassislari, adabiyotshunoslar, psixologlar hamda boshqa soha vakillari ham murojaat qilishayotganligi pragmatikaning har tomonlama muhim soha ekanligini ko'rsatadi (Mirsanov 2016, 76).

Pragmalingvistika (lingvistik pragmatika-nutqiy akt qo'llanishi) fan, lingvistik tadqiqot sohasi. U kommunikativ tilshunoslikning mustaqil bo'limidir. Pragmatika markaziy obyekt nutqiy akt bo'lib, u bilan bog'liq holda nutq aktlari nazariyasi qoidalarini atroflicha tahlil qilinadi. Pragmatika doirasida til tadqiqotining obyekt va predmeti to'g'risida turli xil fikrlar mavjud bo'lganda, shunga o'xshash ba'zi fikrlarni ajratib ko'rsatish mumkin: 1) pragmalingvistikada lingvistik aloqani tavsiflashning asosiy tushunchasi - faoliyat tushunchasi; 2) til kommunikativlikning dinamik o'zaro ta'siri vositasidir; 3) tilning amal qilishi uni qo'llashning situatsion va ijtimoiy-psixologik konteksti bilan uzviy bog'liqdir.

Bugungi kunda pragmalingvistika keng doirada tushuniladi. Bunday keng tushunish Y.D. Apresyan tomonidan shakllantirilgan: "Biz pragmatika deganda uni mustahkamlab turuvchi lisoniy birliklar (leksema, affiks, gramma, sintaktik konstruktsiya) so'zlovchining munosabatini tushunamiz: 1) ish harakatga munosabati, 2) xabar mazmuniga, 3) adresatga" [Apresyan, 1988].

Pragmatika (yunoncha pragma - ish- harakat) aslida falsafiy tushuncha bo'lib, u qadimgi yunon faylasuflari davrlarida ham qo'llanishda bo'lgan va keyinchalik uni J.Lokk, E.Kant kabi faylasuflar Arestoteldan o'zlashtirish orqali keng iste'molga kiritishdi. Shu tariqa falsafada pragmatizm oqimi yuzaga keldi. Bu oqimning asosiy taraqqiyot davri va uning targ'iboti XX asrning 20-30 yillarida sezila boshladi va u keyinchalik tilshunoslikka ham singishiga sabab bo'ldi. O'sha davrda Ch. Morris pragmatik nazariyasini semiotikaning bir bo'lak sifatida semantika (belgilarning obyektga nisbatan munosabati) va sintaktika (belgilararo munosabat) kabi bo'limlar bilan teng huquqda ajratadi. Falsafiy pragmatizm oqimining lingvistikada o'z aksini topishida amerikalik olim Ch.Pirsning hissasi katta [Pirs 2000]. Ushbu falsafiy tizimning asosiy g'oyasi semiotik belgining (jumladan lisoniy belgining ham) ma'no-mazmuni berilgan belgi vositasida bajarilayotgan harakatning samarasi, natijalari, muvaffaqiyati bilan bog'liq holda o'rganishga qaratiladi [Safarov 2000, 37-38].

Aytish joizki, "pragmatik" atamasi "amaliy" degan ma'noda ham qo'llaniladi. Pragmatika tushunchasi konkret holat, shart-sharoitga monand ish ko'rish, moslashish, amal qilish tushunchalarini ham qamrab oladi.

Pragmalingvistikaning jahon tilshunosligida keng miqyosda o'rganila boshlashi o'tgan asrning 60-80 yillariga borib taqaladi. Mazkur davrda J. Ostin, J. Syorl kabi

tilshunoslar tomonidan yaratilgan - nutqiy akt nazariyasi yuzaga keldi. Nutqiy muloqotning eng kichik amaliy ko'rinishi nutqiy akt sanaladi. U, albatta, nutq muomalasi qoidalarini va tartibiga bo'ysunadigan maqsadli nutqiy harakat sifatida tushuniladi. Nutq aktlarining umumiy jamlanmasi nutqiy faoliyatni tashkil etadi. Mazkur nazariyaning asosiy tadqiqot obyektiga so'zlovchi, adresat va ularning o'zaro munosabati, muloqot vaziyati bilan aloqador qator masalalar kiradi.

CH.Pirs semiotika doirasida uch ilmiy soha - sintaktika, semantika va pragmatikani mustaqil yo'nalishlar sifatida ajratadi. Uning ta'rificha, sintaktika - belgilarning o'zaro sintaktik munosabatlarini ularning obyekt yoki interpretator-tavsiflovchiga bo'lgan munosabatlaridan ajratgan holda o'rganishdir, semantika esa - belgilarning o'z designatlarini, ya'ni ular vositasida ifodalananayotgan obyektga bo'lgan munosabatini tahlil qiladi va nihoyat, pragmatika - belgining undan foydalanuvchi-interpretatorga nisbatan munosabatini yorituvchi fandır.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Pragmatik nazariya, o'z navbatida, kommunikativ muloqotni ratsional va sababli jarayon sifatida tahlil etadi, hamda faqatgina lingvistik strukturalar bilangina cheklanib qolmasdan, dunyoviy bilim, madaniy normalar, kontekstning spetsifik komponentlarining individual yondashuvli tahlillariga ham o'z e'tiborini qaratadi.

Pragmatik tilshunoslik sohasining keng taraqqiy etishi va rivojlanishida Amerika va Yevropa tilshunosligida Ch.Morris, J.R.Searle, J.Ostin, G.Lakoff, Ch.Piers R.Jackendoff, G.Lyons, A.Wierzbicka va boshqalar, rus tilshunosligida esa Y.Stepanov, T.Buligina, N.Artyunova, N.Artyunova, V.Demyankov, G.V.Kolshanskiy, G.G.Pochepsov, G.G.Slishkin, A.A.Susov, kabilar katta hissa qo'shib kelmoqdalar.

Tilshunoslikning mazkur sohasini O'zbekistonda taraqqiy etishi va rivojlanishiga olimlarimizdan Sh.S.Safarov, S.Rahimov, D.Ashurova, N.Mahmudov, A.Mamajonov, A.No'rmonov, B.Yo'ldoshev, H.Nematov, A.Bushuy, M.Hakimov, S.Mo'minov, A.Mamatov, J.Yoqubov, S.Boymirzayeva, L.Raupova, G.Mirsanov va boshqa tilshunoslarning xizmati ulkan.

Mazkur jarayon O'zbekistondagi tilshunoslik sohasi tadqiqotlariga qiziquvchilarning e'tiboridan chetda qolmadi. Xususan, N.Mahmudov, A.No'rmonov, D.Ashurova, S.Rahimov kabi olimlar o'zlarining qator ilmiy maqolalari orqali pragmalingvistikaning nutqiy ifodasiga oid sathlarni o'zbek tilshunosligiga olib kirdilar.

Pragmatik lingvistikada muhim o'rin tutadigan va keng o'rganiladigan tushunchalardan biri, bu diskurs tushunchasi hisoblanadi. Diskurs tushunchasi lingvistik atama sifatida o'tgan asrning o'rtalarida tilshunoslikka kirib keldi. Tilshunoslikda u dastlab gap yoki nutqda bog'lanilgan va kelishilgan mahsul sifatida tushunilgan bo'lsa, zamonaviy lingvistikada murakkab kommunikativ hodisa sifatida ishlatilmoqda. Ta'kidlash lozimki, oxirgi yillarda qator tilshunos olimlarimiz frazeologik birliklarning pragmatik xususiyatlariga katta qiziqish bilan qaramoqdalar. Ayniqsa, frazeologik birliklarning yuqori pragmatik salohiyatiga kelsak, zamonaviy mualliflar buni, birinchi navbatda, ularning obrazlilik va "... qoida tariqasida, frazeologik birliklarning semantik tarkibida konnotatsiya ustunlik qilishi" bilan bog'laydilar (Alefirenko, Zolotix 2000): 167). Shu bilan birga, frazeologik birliklar ma'nolarida denotativ va konnotativ semalarning munosabati haqida lingvistik adabiyotlarda turli fikrlar bildirilgan. Shunday qilib, V.M. Mokiyenkoning fikricha, "... frazeologik birlikda nominativ ifodali, unga bo'ysunuvchi holda ekspressivlik xususiyatga ega. Frazeologiyada lingvistik belgining bu ikki tomoni sinkretik bo'lsa, lug'atda (ayniqsa, ifodasiz) ular farqlanadi, ajratiladi" (Mokiyenko 1989: 211).

Ta'kidlash lozimki, oxirgi yillarda qator tilshunos olimlarimiz frazeologik birliklarning pragmatik xususiyatlariga katta qiziqish bilan qaramoqdalar. Ayniqsa, frazeologik birliklarning yuqori pragmatik salohiyatiga kelsak, zamonaviy mualliflar buni, birinchi navbatda, ularning obrazlilik va "... qoida tariqasida, frazeologik birliklarning semantik tarkibida konnotatsiya ustunlik qilishi" bilan bog'laydilar (Alefirenko, Zolotix 2000). : 167). Shu bilan birga, frazeologik birliklar ma'nolarida denotativ va konnotativ semalarning munosabati haqida lingvistik adabiyotlarda turli fikrlar bildirilgan. Shunday qilib, V.M. Mokiyenkoning fikricha, "... frazeologik birlikda nominativ ifodali, unga bo'ysunuvchi holda ekspressivlik xususiyatga ega. Frazeologiyada lingvistik belgining bu ikki tomoni sinkretik bo'lsa, lug'atda (ayniqsa, ifodasiz) ular farqlanadi, ajratiladi" (Mokiyenko 1989: 211).

N.V. Karpovskaya fikricha, frazeologik birliklar semantikasida qaysi makrokomponent ustunlik qiladi, degan masala aniq til materialida asosida ko'rib chiqilishi kerak (Карповская provided by Siberian Federal University Digital Repository brought to View metadata, citation and similar papers at core.ac.uk).

Milliy o'ziga xoslikka ega bo'lgan va shu orqali ona tilida so'zlashuvchilarning madaniy va milliy mentalitetini aks ettiruvchi qiyosiy frazeologik birliklar alohida e'tiborga loyiqdir.

Frazeologik birliklarning pragmatik komponentining xususiyatlarini ko'rib chiqish shuni ko'rsatadiki, nutq subyektini tomonidan voqelikni hissiy-baholovchi idrok etish to'g'risida ma'lumot berish orqali ular kommunikantlarning niyatlarini kuchaytirish uchun mo'ljallangan, ya'ni turli xil hissiy ranglarni yetkazishi mumkin ma'ruzachining kommunikativ niyatlari. Shu bilan birga, frazeologik birliklarning kuchaytiruvchi qiymati, ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, freymlar va prototiplar kabi tuzilmalarda kognitiv o'zgarishlar natijasida shakllanadi. Turli tillardagi frazeologik tizimni o'rganishga bag'ishlangan ko'plab ishlarda frazeologik birliklarni ekspressivligini oshirish va gapning pragmatik ta'sirini kuchaytirish uchun o'zgartirish uchun ishlatiladigan semantik va strukturaviy-semantik usullar ko'rib chiqiladi. Ko'pincha tadqiqotchilar frazeologik birliklarning quyidagi o'zgarishlarini bunday usullarga bog'lashadi: komponentlarni almashtirish; komponent tarkibini taqsimlash va kamaytirish; komponentlarning masofadan joylashishi, frazeologik birlikning tushib qolishi, qo'sh aktuallashuvi kabilar. Qoidaga ko'ra, bunday harakatlar frazeologik birliklarning yaxlitligini buzmaygina qolmay, balki uning pragmatik xususiyatlarini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Shunga qaramay, N.P. Geraskinning xulosasiga qo'shilmaslik qiyin. Geraskina ta'kidlashicha, frazeologik birliklarning tarkibiy o'zgarishi uning semantikasini o'zgartirishga qodir, chunki gap komponentidagi frazeologik birlikning ekspressivligini kuchaytirish bilan birga uning semantik tuzilishining bevosita tarkibiy qismlaridan biriga aylanadi (Geraskina 1978: 105).

**Tahlil va natijalar.** Aytish joizki, frazeologik birliklarning pragmatik imkoniyatlari va ularning ma'nosini

o'rganishda A.F. Artemova, frazeologik birliklarning intensivligi, qabul qiluvchiga ta'sir qilish vositasi sifatida, hodisaning miqdoriy kvalifikatsiyasi bilan belgilanmaydi, balki faqat meydordan chetga chiqishni ko'rsatadigan narsa bilan bog'liq degan xulosaga keladi (Artemova 1991). Ushbu qoidadan kelib chiqqan holda, tarjima matnida frazeologik birliklarning asl nusxada mavjud bo'lmagan holda paydo bo'lishi holatlari e'tiborga loyiqdir. Qoida tariqasida, bu xususiyatning namoyon bo'lish darajasini va bayonotning pragmatik ta'sirini sezilarli darajada oshiradi.

Ko'rib turganimizdek, nutqni diversifikatsiya qilishning elementar ehtiyojiga javob beradigan frazeologik birlikning potensial obrazlilik nominatsiyaning o'zi orqali unga ekspressiv-baholash yo'nalishini beradi, murojaat qiluvchining subyektiv his-tuyg'ulari va baholarini aks ettiradi, shu bilan birga uning nutqini optimallashtiradi. bayonotning umumiy illokatsion kuchini oshirish orqali nutq strategiyasi. Qizig'i shundaki, aniq (aniq) taqqoslashni o'z ichiga olgan frazeologik birliklar o'zlarining pragmatik imkoniyatlarini eng samarali amalga oshiradilar. Badiiy tarjima matnida frazeologik birliklar o'rniga boshqa intensivlashtirish vositalaridan foydalanilganda, qoida tariqasida, nafaqat xususiyatning ifodalilik darajasi pasayadi, balki gapning pragmatik ta'siri ham zaiflashadi.

Bizga ma'lumki, har qanday matn kommunikativ funksiyaga ega yani adresat tomonidan uzatiladigan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi va ular ajratilishi hamda adresant tomonidan tushunilishi kerak. Aloqa jarayoni to'g'ridan-to'g'ri pragmatik jihatlariga bog'liq, chunki xabar har doim inson tomonidan tushuniladi va talqin qilinadi. Badiiy matnning pragmatik kommunikativ jihatlarini muhokama qilar ekanmiz, badiiy matnning maqsadi nafaqat ma'lum ma'lumotlarni yetkazish, balki o'quvchining fikrlari, hissiyotlari va his - tuyg'ulariga ta'sir qilish ekanligini hisobga olishimiz kerak.

Pragmatik nazariya, o'z navbatida, kommunikativ muloqotni ratsional va sababli jarayon sifatida tahlil etadi, hamda faqatgina lingvistik strukturalar bilangina cheklanib qolmasdan, dunyoviy bilim, madaniy normalar, kontekstning spetsifik komponentlarining individual yondashuvi tahlillariga ham o'z e'tiborini qaratadi.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, uning tadqiqot doirasiga muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo'llash hamda ushbu qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'siri masalalari o'rganiladi. Pragmalingvistika tadqiqot predmetining keng miqyosda tasavvur etilishi ushbu sohaning turli yo'nalishlarda taraqqiy etishini taqozo etadi. Natijada, pragmalingvistikaning nutqiy akt nazariyasi, deyxsis nazariyasi, diskurs nazariyasi, pragmasemantika, pragmastilistika kabi o'z "ichki" sohalari yuzaga keldi. Bu sohalarning farqi, birinchi navbatda, pragmalingvistikaning umumiy predmetini alohida qismlarga ajratish va har bir qismni batafsil yoritilishi, o'rganilishida namoyon bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Агаркова О.А., Путилина Л.В. Прагматика и интонация французского речевого этикета. Вестник огу №11 (160)/ноябрь 2013. – с. 186-191.
2. Апресян Ю. Д. Прагматическая информация для толкового словаря//. Прагматика и проблемы интенциональности. М., 1988.
3. Гак В.Г. Прагматика, узус и грамматика речи // Иностранные языки в школе. – 1982.
4. Мельвилль Ю.К. Чарльз Пирс и прагматизм. М.: Изд-во МГУ. 1968.
5. Пирс Ч.П. Начала прагматизма / Перевод с английского, предисловие В.В.Кирющенко, М.В. Колопотина – СПб.: Лаборатория метафизических исследований философского факультета СПбГУ; Алетейя, 2000.
6. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Тошкент, 2000.
7. Столнейкер Р.С. Прагматика // Новое в зарубежной лингвистике. Лингвистическая прагматика. Вып. XVI. М., 1985.



Yoqutjon YOQUBOVA,  
TDO TAU 1-kurs tayanch doktoranti  
E-mail:yoqutxonyoqubova5@gmail.com

O'zMU dotsenti, PhD T.Yandasheva taqrizi asosida

### IMPLICIT REPRESENTATION OF PERFORMANCE

Annotation

Implicit representation of performance is one of the topical issues in the field of pragmalinguistics. In this article, the implicative expression of performance was explained theoretically and practically. The importance of the use of implicative expressions in the speech process was analyzed on the basis of examples from artistic works.

**Key words:** Pragmatics, performance, speech act, perlocutionary act, explicit expression, implicit expression, presupposition, implication, proposition.

### PERFORMATSIYANING IMPLITSIT IFODALANISHI

Annotatsiya

Performatsiyaning implitsit ifodalanishi pragmalingvistika sohasidagi dolzarb masalalardan biridir. Mazkur maqolada performatsiyaning implikativ ifodalanishi nazariy va amaliy jihatdan yoritildi. Nutqiy jarayonda implikativ ifodaning qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etishi badiiy asarlardan keltirilgan misollar asosida tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** Pragmatika, performatsiya, nutqiy akt, perlokutiv akt, eksplitsit ifoda, implitsit ifoda, presuppozitsiya, tagma'no, propozitsiya.

### ИМПЛИКАТИВНОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ПЕРФОРМАНСА

Аннотация

Импликативная репрезентация перформанса является одной из актуальных проблем в области прагмалингвистики. В данной статье импликативное выражение перформанса было объяснено с теоритической и практической точки зрения. Значение употребления импликативных выражений в речевом процессе проанализировано на примере примеров из художественных произведений.

**Ключевые слова:** Прагматика, перформация, речевой акт, перлокутивный акт, имплицитное содержание, эксплицитное содержание, presuppozitsiya, implikatsiya, propozitsiya.

**Kirish.** Tilshunoslik fani uzoq yillardan beri shakllanib, taraqqiy etib kelmoqda. Ana shu yillar davomida til turli xil tomondan tadqiq qilinmoqda. Dastlabki davrlarda, tilshunoslikka faqat shakliy tomondan yondashildi. Keyinchalik shakl ma'no bilan uzviy bog'liq ekanligi ma'lum bo'lgach, til birliklarining semantik jihatiga e'tibor qaratila boshlandi. Til birliklarining shakl va ma'no tomonini o'rganish ham uni to'liq tavsiflash imkoniyatini bermaydi. Til birliklarini nutqiy vaziyat bilan bog'lab tadqiq qilina boshlangachgina, ularning ma'nolari to'g'ri izohini topa boshlaydi. Shu tariqa bugungi kunda o'zbek tilshunosligida semiotik, semantik va pragmatik tomondan uyg'un bo'lgan tadqiqotlar ko'paymoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** M.Hakimovning "O'zbek tilida matnning pragmatik talqini" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida o'zbek tilshunosligida lingvistik pragmatikaga oid nazariy masalalar birinchi marta monografik aspektida tadqiq etildi. Mazkur tadqiqotda lingvistik pragmatikaning tarixiy ildizlari, umumnazariy masalalari, ushbu yo'nalishning tilshunoslikning boshqa yo'nalishlari bilan munosabati haqida bahs yuritilgan, matn semantik tuzilishida qatnashuvchi pragmatik mazmun turlari o'zbek tilidagi matnlar misolida tadqiq etilgan [1]. Tilshunos olim Sh.Safarov tilshunoslikning mazkur yangi sohasi bo'lmish pragmalingvistika haqidagi nazariy qarashlarni ilmiy tahlil qilgan. Olim pragmatika haqidagi ko'plab qarashlarni umumlashtirib quyidagicha ta'riflaydi: "Pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, uning tadqiqot doirasiga muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo'llash hamda ushbu qo'llanishdagi birliklarning

muloqot ishtirokchilariga ta'siri masalalari o'rganiladi"[2]. Nutqiy akt, performatsiya pragmatikaning asosiy tushunchalari hisoblanadi. Nutqiy akt so'zlovchining nutqiy harakati bilan bog'liq bo'lgan hodisa. Nutq akti – bu til harakati qoidalariga muvofiq amalga oshiriladigan maqsadli kommunikativ harakat [3]. Bunda so'zlovchi nazarda tutgan har qanday ma'no inobatga olinadi. Nutqiy akt bajarilsa, performatsiya, ya'ni nutqiy ijro amalga oshirilgan bo'ladi. Performatsiya inglizcha "performance" so'zidan olingan bo'lib "ijro", "bajarish" degan ma'nolarni bildiradi. Bu tushuncha birinchi bo'lib faylasuf J.Ostin tomonidan ma'lum bir qobiliyatni nazarda tutganda tasvirlangan: nutq va muloqot qobiliyati harakat qilish yoki harakatni yakunlash, deya ta'riflangan. N.Chomskiy va uning shogirdlari lisoniy faoliyatni qobiliyat va uning nutqiy ijrosidan iborat (competence and performance) ikki qismli hodisa deb qaraydilar. Xuddi shu qismlar farqiga nisbatan pragmatikani faqatgina performance, ya'ni ijro qilishga oid deb qarash an'anasi yuzaga kelgan [2]. A.Nurmonovning ta'kidlashicha, propozitsiya termini tilshunoslikka mantiq va falsafiy haqiqatlar ta'sirida kirib keldi. Klassik mantiqda propozitsiya "borliqning ma'lum predikatlar haqida tasdiq yoki inkor yo'li bilan axborot beruvchi fikr shakli sifatida tushunilgan. Bu atama dastlab hukmning ifodalanish shakli bo'lgan darak gaplarga, keyinchalik gapning hamma turlariga nisbatan qo'llandi" [4]. Bugungi kunda tilshunoslikda propozitsiya gapdagi asosiy axborot, asosiy hukm sifatida tushuniladi. Eksplitsit mazmun hamma uchun ham shaklan, ham mazmunan oshkora bo'lgan axborotdir. Nazariy adabiyotlarda eksplitsit ifoda, ya'ni oshkora mazmun propozitsiya deb ham

yuritiladi. Presuppozitsiya ifoda tarkibidagi ochiq bayonga ega bo'lmagan axborot. Implantsit mazmun – yig'iq verbal shakl, bunda axborot shaklan yig'iq, mazmunan yoyiq ifodalanadi. L.Liashchova “The explicit and the implicit in language and speech” kitobida eksplitsit va implantsit ifoda haqida shunday deydi: “Kundalik foydalanishda bunday so'zlar, asosan, so'zlovchi nimani nazarda tutayotganini ochiq aytadigan va nutqdagi hamma narsani tushunarli, aniq qilib qo'ygan yoki aksincha, o'z fikrini ochiq aytmasdan bildirgan muloqotni anglatadi” [5]. A.Seals “Effects and meaning: Metaphors as implit speech acts” tezisida metaforalarni implantsit (yashirin) nutqiy harakatlar deb tasniflash yaxshidir, chunki ular hazil yoki haqoratga o'xshab, gapning illokutiv aktiga tayanadi, deb fikr bildiradi [6]. Implantsit mazmun bilan presuppozitsion mazmun o'zaro farqlanadi. Bu xususda M. Hakimov: Presuppozitsiyada jumladagi propozitsiyani zidlash asosida mantiqiy mazmun anglashilishini ta'kidlaydi hamda uni tagma'nodan farqlaydi. “Tagma'no semantik ifodalanishiga ko'ra presuppozitsiyadan farqlanadi. Tagma'no ham xuddi presuppozitsiyadagi kabi so'zlovchining ichki maqsadi bilan bog'liq holda biror fakt xususidagi axborotga ishora qilish vazifasini bajaradi. Tagma'noning presuppozitsiyadan asosiy farqi shundaki, u har qanday holatda propozitsiyaga qarama-qarshi qo'yish bilan hosil qilinmaydi. Tagma'no bu jihatiga ko'ra nutqiy aktning nazriy mohiyati bilan uzviy bog'lanadi” [7]. Tilshunoslikda turli til birliklarining presuppozitsiya ifodalash imkoniyati ham tadqiq qilingan [9].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Axborot bayon etishning yoyiq shakllariga xos ifoda imkoniyatlari xilma-xil bo'lib, yig'iq yashirin ifoda usullari ham turlicha shakllardan iborat, shuning uchun unga nisbatan lingvistikaga oid adabiyotlarda bir tushunchani ifoda etuvchi umumiyashirin – “implikatsiya” atamasini qo'llaydilar. Implikatsiya, ya'ni umumiyashirinlik bu – matnda verbal bayonga ega bo'lmagan, ammo adresat tomonidan ziyraklik bilan anglab olinuvchi kontekstual mazmundir. “Muloqotdagi aniq va yashirin o'rtasidagi chegara juda xira va kontekstga bog'liq va juda ko'p yashirin narsa bor va uni qayta tiklash uchun qiziquvchan aql, yaxshi til va hayotiy tajribaga ega bo'lish kerak” [5]. Darhaqiqat, so'zlovchi ichki maqsadi aks etgan yashirin mazmunni to'g'ri anglash nutq vaziyati va kontekstdan xabardor bo'lish bilan birga bir qator ma'lumotlarga ham ega bo'lishi kerak. Tilshunos olim N.Mahmudov bu xususda quyidagilarni e'tirof etadi: “Axborotning to'g'ri tushunilishi uchun so'zlashuvchilarning til haqidagi bilimidan tashqari tinglovchining olam haqidagi tasavvuri, jumla qo'llanayotgan ijtimoiy holat bo'yicha tushunchasi, so'zlash jarayonida so'zlashuvchilar ruhiyati to'g'risida bilim va boshqa ma'lumotlarni ham qo'shish kerak. Axborotni tushunish jarayonida yuqoridagi bilimlarning barchasi barobar xizmat qiladi. Shuning uchun faqat bu bilimlarning o'zaro munosabatini hisobga olgandagina biz nutqiy jarayonning mohiyatini anglashga yaqinlashgan bo'lamiz”[8]. Axborot yetkazish jarayoni oshkora yoki yashirin shaklda bo'ladi. Bu jarayonni qaysi shaklda olib borish nutqiy vaziyat va so'zlovchining ichki maqsadiga bog'liq. Nutq vaziyati so'zlovchidan har qanday axborotni ham oshkora bayon qilishga yo'l qo'ymaydi. Bu jarayonni qaysi shaklda olib borish nutqiy vaziyat va so'zlovchining ichki maqsadiga bog'liq. Axborotning oshkora (eksplitsit) shakli axborotning har qanday shaklida mavjud bo'lib, u oddiy propozitsiyadan iborat bo'ladi va bu oshkora mazmun deb yuritiladi. Axborotning yashirin shakli esa ana shu oshkora mazmun tarkibida beriladi va buni yashirin mazmun deyiladi. Yashirin mazmun implikatsiya atamasi yordamida ifodalanadi. Ilmiy nazariy adabiyotlarda tagma'no implikativ mazmunning asosiy ko'rinishlaridan biri ekanligi ta'kidlanadi. Tagma'no odatda nutq vaziyati va asar mazmunidan kelib chiqib aniqlanadi. Nutq vaziyatidan bexabar kishiga tagma'noni

anglash murakkablik qiladi. Biroq biror bir nutq vaziyati va asar mazmuni asosida yondashilsa, undagi yashirin ma'no shakllari namoyon bo'ladi.

**Tahlil va natijalar.** O'zbek tilshunosligida tagma'no haqidagi nazariy qarashlar M.Hakimovning tadqiqotida uchraydi. Tilshunos olim tagma'noni o'ziga xos belgi-xususiyatlariga ko'ra olti turga ajratadi: fonopragmatik tagma'no, stilopragmatik tagma'no, metaforik tagma'no, individual xususiy tagma'no, ekspressiv tagma'no, monologik akt ma'no.

Olim bu turlarning har birini ta'riflab, shu bilan birga tagma'no ko'rinishlarida, asosan, kinoya, piching, kesatiq mazmuni bayon qilinishi va bunda so'zlovchining ichki maqsadi aniq sezilib turishini ta'kidlaydi [7]. Quyida O'.Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romaindan olingan misollar yordamida masalaning mohiyatini ochishga harakat qilamiz.

–Endi o'rnimizdan turgan edik, oyim bobomga yalinochoqlik bilan qaradi.

–Dadasi-i-i! – dedi cho'zib ( Zaril gapi bo'lsa shunaqa qiladi. ) – Oqsoqol tayinlab-tayinlab aytuvdilar. Kelishi bilan chiqsin,degandilar

Ushbu matnda ham fonopragmatik tagma'no hamda individual xususiy tagma'no qo'llangan. Fonopragmatik tagma'no so'zlovchining talaffuz ohangi bilan bog'liq bo'ladi. Ushbu misolda asar qahramoni Qora amma dadasi so'zini o'ziga xos ohang bilan – emfatik usul bilan talaffuz qilgan. Uning zarur gapi bo'lganda shu usulni qo'llashi – individual xususiy tagma'noga misol bo'ladi. Tagma'noning bu ko'rinishi, ya'ni zaril bo'lganda shunaqa qilishi, faqat ba'zi shaxslar nutqidagina qo'llanib, ularning xarakterini ochish uchun xizmat qiladi.

–Esingizdami, Shavkat aka, zilzilada bittayam panel uy yiqilmagan, ammo zinasi bosib qolgan uylar bo'lgan. Normativdagi panelni berishmasa... –U “voy tentag-ey”, degandek qo'l siltadi.

–Zilzila o'n yil avval bo'lgan, yigit. Endi qaytmaydi. “Vannochka ” bilan svarka qilsansiz, qilt etmaydi . Bu parchada metaforik tagma'noning noverbal shakli mavjud. Bunda so'zlovchi ichki niyati uning xatti-harakatlari va imo-ishorasi orqali ifodalanib, metaforik tagma'noning noverbal shaklini yuzaga keltirgan

– Haqorat qilmang rais – dedi sekin, dona-dona qilib. – Shukur avlodimizdan xoin chiqqanmas. O'g'lim jon olib-jon berib yuribdi.

–Sening o'g'ling-a?! Jon olib-jon beryaptimi? – Zakunchi kinoya bilan shunday iljaydiki, mo'ylovi qiyshayib ketdi.

Ushbu matnda ekspressiv tagma'no qo'llangan. So'zlovchi o'zi nazarda tutgan ichki niyatiga his-tiyg'ularini ham qo'shgan holda, kesatiq, kinoya munosabatini bildirgan

– Ovqat qilaymi? – dedim Kimsan akamning ko'ziga qarashga uyalib. –Dam olsang-chi, jinnivoy . Mazkur parchada tinglovchi nutqiga xos “yo'q” javobining “dam olsang-chi jinnivoy” tarzidagi qayg'urish ma'nosining boshqa propozitsional shakl vositasida bayon qilinishi stilopragmatik ma'noga misol bo'ladi.

–Robiya! – Kimsan akam yuzi yuzimga tekkudek yaqin keldi. Ham shiddat, ham o'tinch ohangida so'radi. – To'g'risini gapir...

Tentak! Ahmoq! Kuchim boricha qo'limni silkitib depsindim.

– Qo'yvoring! Tushini suvga aytsin o'sha shapko'r! Kerakmas! O'ziyam boshida qolsin, xatiyam! Kimsan akamning qo'llari bo'shshadi: –Rost-a, shu gaping rost-a, Robiya!

Bu misol ham stilopragmatik tagma'noga misol bo'ladi. Bunda so'zlovchi o'z ichki maqsadi aks etgan mazmunni, ya'ni “men uni yoqtirmayman, unda ko'nglim

yo'q" degan ma'nodagi niyatini boshqa propositsiya bilan ifodalagan. Qiz tomonidan bunday javob berilishiga boshqa ko'plab sabablarni ham keltirish mumkin. Masalan:

o'zbek mmentalitetiga xos bo'lgan qadriyatlar qizlarning muhabbatini, yaxshi ko'rgan insonini ochiq aytishga yo'l qo'ymaydi; o'zbek qizlariga xos ibo, hayo ularning ko'nglidagini to'g'ridah to'g'ri ifodalashga imkon bermaydi.

Tagma'no va uning turli ko'rinishlarini kundalik muloqotda va badiiy asarlarda ko'plab uchramiz. Nutq vaziyatida so'zlashuvchilar o'z fikrlarini oshkora hamda yashirin shaklda ifodalashadi. Badiiy asarlarni o'qish jarayonida asar qahramonlarining oshkora va yashirin tarzda berilgan fikrlari bilan tanishamiz. Bu bilan yozuvchining obraz xarakterini ochib berish mahoratiga guvoh bo'lamiz. Muloqot jarayonida fikrlarimizni oshkora ifodadan ko'ra yashirin tarzda bayon etishimiz bilan nutqning ta'sir etish darajasi yanada oshadi. Ilmiy manbalarda yashirin mazmun ifodalash shakllari ikki turga ajratiladi: umumiyashirin ma'nolar hamda xususiy yashirin ma'nolar. Umumiyashirin ma'nolar so'zlovchi, tinglovchi va barcha nutq ishtirokchilari anglab olishi mumkin bo'lgan yashirin ma'nolardir. Ularga ibora, replika, matal, maqol, topishmoq va shu kabilar kiradi. Bunday matnlar orqali ifodalangan tagma'nolar har qanday nutq ishtirokchisi uchun ma'lum bo'lishlik belgisi bilan xarakterlanadi [7: 89]. Umumiyashirin ma'no ifodalovchi matnlar tarkibiga matal, ibora, maqol, topishmoq kabilar kirar ekan, quyida biz shulardan maqol va ularda bayon qilingan yashirin ma'no ko'rinishlarini tahlil qilamiz. Maqollar umumiyashirin ma'no ifodalovchi maxsus matnlar sifatida ajratiladi. Bularda so'zlovchi nazarda tutgan ma'lum yashirin ma'no o'ziga xos usulda namoyon bo'ladi. "Kishining hurmati o'z qo'lida" maqolining mazmuniy tuzilishida, hurmat-e'tiborga ega bo'lish, avvalo, har kimning o'ziga, uning o'zini

qanday tutishiga, gap-so'ziga, xatti-harakatiga bog'liq, degan mazmundagi yashirin ma'no ifodalangan. "Taka bo'lsin, suti bo'lsin" maqolidagi yashirin ma'no har qanday yo'l bilan bo'lsa-da, foydasi tegsa bo'ldi degan mazmunda ifodalangan. Yurgan – daryo, o'tirgan – bo'ya. Bu maqolda yurgan, ya'ni sayohat qilgan kishi daryo kabi, o'tirgan – dunyo kezmagan, safar qilmagan odam bo'ya kabidir, degan mazmundagi yashirin ma'no bayon qilinadi. Ushbu maqoldagi yashirin ma'no metaforik usulda qo'llangan. Tagma'noning bunday ko'rinishida so'zlovchi tinglovchini ma'lum predmetlarga o'xshatish asosida o'zi nazarda tutgan axborot ko'rinishiga ishora qiladi. O'zingni er bilsang, o'zгани sher bil matnida kishini kamtar bo'lishga da'vat qiluvchi umumiyashirin ma'no qo'llangan. Qush tilini qush bilar maqolida har kasbning o'ziga xos xususiyatlarini o'sha kasb egalari biladi, degan mazmundagi fikr bilan birga, jamiyatdagi ma'lum bir qatlam egalari, masalan, qariyalar qariyalarni, ayollar ayollarni bolalar bolalar tilini boshqalarga nisbatan yaxshi biladilar, degan mazmundagi umumiyashirin ma'noni anglash mumkin. Har kim o'z qarichi bilan o'lchar, ya'ni odamlarning qarichi har xil bo'lgani kabi, aql-idroki, farosati, bilimi ham har xil bo'ladi mazmunidagi umumiyashirin ma'noga ishora qilingan. Bunday matnlar tor sintaktik shakl orqali keng mazmun ifodalashi bilan ham alohida ahamiyatga ega.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, fikrni eksplitsit va implitsit bayon qilishning nutqiy vaziyatda o'ziga xos o'rni bor. Fikr ifodalash jarayonida so'zlovchi o'z kommunikativ maqsadidan kelib chiqib yo eksplitsit yoki implitsit bayon qiladi. Implitsit ifoda ko'rinishlarini taqdiq qilish hamda umumiy va farqli xususiyatlarini tahlil qilish bugungi kunda pragmalingsvistika sohasidagi yana bir masalaning oydinlashuvida muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015.
2. Safarov Sh. Pragmalingsvistika. – Toshkent, 2008.
3. Buzrukova M. O'zbek badiiy matnida undash konstruksiyalari // Xorijiy filologiya. 2020. №1. – B.108 –112.
4. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A, Solixo'jayev S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. –Toshkent, 1992.
5. Liudmila L. The explicit and the implicit in language and speech. – Cambridge Scholars, 2018.
6. Seals A. Effects and meaning: Metaphors as implite speech acts. – Thesis. 2014.
7. Hakimov M. O'zbek pragmalingsvistika asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 176 b.
8. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent, 1995. –
9. Umurzakova M. <https://www.researchgate.net/journal/Asian-Journal-of-Multidimensional-Research-2278-4853?>
10. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Sharq, 2007. – 576 b.
11. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. – 512 b.



Zerxan JANABERGENOVA,  
Berdax nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti  
E-mail: [zjerxan@mail.ru](mailto:zjerxan@mail.ru)

Filologiya fanlari doktori, dotsent S.Zokirova taqrizi asosida

### LINGUISTIC ANALYSIS OF FOLK'S ORAL CREATION

Annotation

For centuries, people living on earth have been trying to solve the mysteries of nature and formed their culture by studying these phenomena. The diversity of national cultures enriches the typical human and world culture. A person who gets acquainted with the national culture of any person, introduces him to universal material and spiritual values, makes his inner world much better. The relevance of the chosen topic is determined by the understanding of the folklore genre, realized with the help of a set of specific linguistic tools, which has not been sufficiently researched within the framework of linguistic culture. Folk art plays an important role as an integral part of national culture. Depending on who created the culture and its level, sociologists distinguish three forms of culture: popular, mass and elite. In folk culture, two levels are distinguished - the high level, which originates from folklore and includes fairy tales, epics, folk legends, ancient dances, etc., and the low level, which is manifested within the medium of the so-called pop culture.

**Key words:** Linguistic and cultural; fairy tale; different aspects; interaction; text.

### ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НАРОДНОГО УСТНОГО ТВОРЧЕСТВА

Аннотация

На протяжении веков люди, живущие на земле, пытались разгадать тайны природы и формировали свою культуру, изучая эти явления. Разнообразие национальных культур обогащает типичную человеческую и мировую культуру. Человек, знакомящийся с национальной культурой любого человека, приобщающий его к общечеловеческим материальным и духовным ценностям, делает его внутренний мир намного лучше. Актуальность выбранной темы определяется пониманием фольклорного жанра, реализуемым с помощью комплекса специфических лингвистических средств, недостаточно исследованных в рамках лингвокультуры. Народное искусство играет важную роль как неотъемлемая часть национальной культуры. В зависимости от того, кто создал культуру и ее уровень, социологи выделяют три формы культуры: народную, массовую и элитарную. В народной культуре выделяют два уровня - высокий уровень, берущий свое начало из фольклора и включающий сказки, былины, народные предания, старинные танцы и т. д., и низкий уровень, проявляющийся в среде так называемой эстрады. культура.

**Ключевые слова:** Лингвокультурный; сказка; разные аспекты; взаимодействие; текст.

### XALQ OG'ZAKI IJODINING LINGVOMADANIY TAHLILI

Annotatsiya


Asrlar davomida yer yuzida yashovchi odamlar tabiatning sirlarini hal qilishga harakat qilmoqdalar va aynan ushbu hodisalarni o'rganish orqali o'zlarining madaniyatini shakllantiradilar. Milliy madaniyatlarining xilma-xilligi tipik inson va jahon madaniyatini boyitadi. Har qanday shaxsning milliy madaniyati bilan tanishgan, uni umuminsoniy moddiy va ma'naviy qadriyatlar bilan tanishtirgan inson o'zining ichki dunyosini ancha obod qiladi. Tanlangan mavzuning dolzarbligi lingvomadaniyat doirasida yetarlicha tadqiq qilinmagan muayyan lingvistik vositalar majmuasi yordamida amalga oshirilgan folklor janrini tushunish bilan belgilanadi. Xalq og'zaki ijodi milliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida katta o'rin tutadi. Madaniyatni kim yaratganiga va uning darajasiga qarab, sotsiologlar madaniyatning uchta shaklini ajratib ko'rsatishadi: mashhur, ommaviy va elita. Xalq madaniyatida ikki daraja ajratiladi – folklordan kelib chiqqan va ertak, doston, xalq afsonalari, qadimgi raqslar va boshqalarni o'z ichiga olgan yuqori va pop madaniyat deb ataladigan vosita doirasida namoyon bo'lgan past daraja.

**Kalit so'zlar:** Lingvomadaniy; ertak; turli jihatlar; o'zaro ta'sir; matn.

**Kirish.** XX asrda tilni turli darajalarda o'rganishning yangi yo'nalishlari uni turli nuqtai nazardan o'rganishga olib keldi. Insonning boshqa tomonlarini ifodalovchi lingvistik qabullarni tahlil qilishga qiziqish ortib bormoqda. Ushbu tadqiqot lingvomadaniyatning rivojlanishiga turtki bo'ldi. "Til madaniyatlar bilan chambarchas bog'liq; til undan kelib chiqadi, unda rivojlanadi va uni ifodalaydi" [6]. Lingvokulturologiya tilshunoslikning etnografiya, etnologiya va kulturologiya fanlari bilan o'zaro ta'siri natijasidir. Turli madaniyatlarni solishtirish til va madaniyatning milliy o'ziga xosligini o'rganishga olib keladi. Hozirgi vaqtda tilshunoslikning ushbu bo'limi uchun bir nechta ta'riflar mavjud. SapirWorf gipotezasiga ko'ra, bu "tilda aks ettirilgan madaniy qadriyatlarning amaldagi tizimi sifatida ob'ektlarni

yaxlit nazariy va tavsifiy o'rganish, lingvistik nisbiylik nazariyasiga asoslangan turli tillar (xalqlar) lingvomadaniy sohalarini kontrastli tahlil qilish" [4].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** "Lingvomadaniyat insoniyat fanining antropologik paradigmasining mulki bo'lib, uning diqqat markazida madaniy hodisa hisoblanadi" [10]. V.Telia lingvomadaniyatga ilmiy paradigmadagi mavqeidan kelib chiqib ta'rif beradi. V.Maslova ham lingvomadaniyatga xuddi shunday ta'rif beradi: "Lingvomadaniyat tilshunoslikdagi antropotsentrik paradigma mahsulidir" [6]. V.Telia va V.Maslova o'z asarlarida lingvomadaniyat "til – madaniyat – inson" triadasi asosida vujudga kelganligini qayta-qayta ta'kidlaganlar.



Shunga qaramay, bu olimlarning qarashlarida farqlar mavjud. V.N. Teliya lingvomadaniyatni usullar va fanlarning sinxron birikmasi (sinkretizmi) natijasi deb hisoblaydi: "Lingvomadaniyat etnolingvistikaning til va madaniyatning sinxron o'zaro ta'siridagi muvofiqligini o'rganish va tavsiflashga bag'ishlangan qismidir" [10]. Olim hozirgi holatdagi til va madaniyatning o'zaro ta'sirini muammoga tarixiy nuqtai nazardan qaramasdan o'rganishni ma'qul ko'radi. Bu yondashuv etnolingvistikaning bir tarmog'i sifatida lingvomadaniyatga olib keladi. Lingvomadaniy obyektlarni o'rganish semantika, stigmatika, sintaktik va pragmatikaning birligidan iborat bo'lgan va "ularni birliklar sifatida yaxlit ko'rish" imkonini beradigan tizimli usul yordamida amalga oshirilishi taklif etiladi, unda haqiqiy lingvistik va ekstralingvistik tarkib dialektik bog'liqdir" [11].

Lingvomadaniyatni o'rganishga bag'ishlangan dastlabki ishlardan biri G.Palmer tadqiqotidir [8]. Muallif madaniyat tilshunosligi tilshunoslikning yangi yo'nalishi sifatidagi g'oyalarni ilgari suradi va xalq madaniyati va bu xalqlar ishlatadigan tilning o'zaro ta'sirining o'ziga xos xususiyatlarini jiddiy o'rganish zarurligini qayd etadi. Olim madaniyat va til o'rtasida zarur va aniq bog'liqlikni ta'kidlaydi. Uning g'oyalari tadqiqotchi F.Shafrian tomonidan keyingi asarlarida qo'llab-quvvatlanadi. Tadqiqotchi o'zining fors tilini o'rganishga bag'ishlangan asarlarida Palmer [9] tadqiqotlariga qayta-qayta murojaat qilgan. Til voqealigining nolisoniy tomonlarini aks ettiradi va bu tilda so'zlashuvchilarga va madaniyat so'zlovchilariga tanish. Boshqa tomondan, nutq dunyoga qarashni boshlaydi, ona tili prizmasi orqali turli so'zlarning ma'nosini o'rganadi va mos madaniyatga xos bo'lgan dunyoni kontseptualashtirishga harakat qiladi. Jahon xalqlarining lingvomadaniy aloqalari zamonaviy jamiyatimizda rivojlanayotgan an'analardan biridir. Bunday munosabatni tilsiz tasavvur etib bo'lmaydi, chunki u (til) turli til madaniyatlarining o'zaro ta'sirida birlashtiruvchi zanjir vazifasini bajaradi.

Ma'lumki, matnning lingvistik tahlili ko'p qirrali hodisa bo'lib, lingvistik matnni ko'p qirrali hodisa sifatida o'rganish mumkin. Boshqa so'zlar bilan aytganda, tilning nominativ birliklarini u yoki bu madaniy-tarixiy mazmunga ega tilning nomlanishiga xos bo'lgan fon nuqtayi nazaridan va konnotativ ma'nolardan o'rganish kerak [1]. Shu ma'noda "lingvistik tahlil" tushunchasi "lingvomadaniy tahlil" g'oyasidan teng foydalanishdir. Lingvistik faktlar tilda so'zlashuvchilarning murakkab lingvistik kompetensiyasi va vaziyatida birgalikda o'rganilishi kerak. Matn tahlilining lingvomadaniy yo'nalishi xalqaro madaniyatda muhim rol o'ynaydi.

Denotativ ma'lumotlarga kelsak, u lug'atlardan olingan insoniy bilimlarga asoslangan o'quvchiga qiyinchilik tug'dirmaydi. Konnotativ ma'lumotlar turli assotsiativ munosabatlardan olinadi, ularning kontseptsiyasi adresatga berilgan etnos madaniy kod bilimiga ega ekanligini ko'rsatadi. Binobarin, lingvistik tahlil va uni lingvomadaniy atamalarda talqin qilish o'quvchiga noma'lum geografik va madaniyatlararo faktlarni aks ettiruvchi lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlarni to'g'ri o'zlashtirishga o'rgatishi kerak. Folklorga kelsak, bu matnlar yuqori lingvomadaniy salohiyatga ega. Ular, birinchi navbatda, an'anaga sodiqlik va kollektivizm kabi muhim jihatlarga bog'liq. Aniqlanishicha,

lingvomadaniy tahlil folklor namunasini madaniy-lingvistik hodisa sifatida tavsiflash imkonini beradi, chunki u etnos milliy madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Milliy madaniyatning o'zagi - bu ma'lum bir etnosning tarixiy rivojlanishidagi til va madaniy yaxlitligini ochib beruvchi dunyo xaritasi hisoblanadi.

Avvalo, xalq og'zaki ijodining variantlaridan biri bo'lgan ertak matnining asosiy belgilarini topish, so'ngra uning lingvomadaniy tahlilini o'tkazish kerak. Shunday qilib, ertak matni murakkab mexanizmga ega bo'lgan barcha tarkibiy qismlari va darajalari bilan yopiq belgilar to'plamidir. Bu yerda ushbu komponentlar va sinflar yaqin aloqada bo'lib, muallifga aniq estetik idrok ma'lumotlarini etkazishni maqsad qiladi. Ertak matni barcha universal ta'riflarga javob berishi kerak. Ya'ni, u o'z tarkibiy birliklarining tartibga solingan ketma-ketligiga, tarkibiy-semantik birligiga, charchashiga va kommunikativ maqsadiga ega bo'lishi kerak. Ertak matni ertak bo'lmagan matndan o'z vazifasiga ko'ra farq qiladi. Lingvomadaniy tadqiqotlarning asosiy maqsadi matnning asosiy g'oyasi va fikrini, matn asosidagi hissiy ma'noni izlashdir, bu holda muallifning nuqtai nazari haqiqatga ustunlik qiladi. Ushbu tadqiqot davomida turli xil o'quvchi darajalari tahlil qilinadi: leksik, sintaktik, kompozitsion-sintaktik. Bundan tashqari, matnning ichki tarkibiy qismlarini aniqlashga e'tibor beriladi. Ushbu darajalarni alohida matnning xususiyatlariga e'tibor qaratgan holda mustaqil ravishda o'rganish mumkin. Shunga qaramay, bizning tahlilimiz ob'ekti badiiy matn emas, balki ertak matni ekanligini unutmazlik kerak. "Matn - bu to'liqlikka ega bo'lgan, yozma hujjat shaklida obyektivlashtirilgan, ushbu hujjat turi bo'yicha adabiy qayta ishlangan, sarlavha va ba'zi maxsus birliklardan (ustun iboralar) iborat asar, nutq-ijodiy jarayonning asaridir, har xil turdagi leksik, grammatik, mantiqiy, muayyan maqsadga muvofiqlik va pragmatik munosabatga ega bo'lgan stilistik bog'lanish" [3].

Matn so'zma-so'z matnda yozma shaklda mustahkamlangan, mazmunan o'rnatilgan, chambarchas bog'liq bo'lgan yozma iboralar ketma-ketligi, badiiy matndir [2]. Matn integral tizim sifatida barcha lingvistik darajadagi birliklarni aktualashtirishni o'z ichiga oladi va matnni jarayon sifatida tushunish matnga kiritilgan barcha tarkibiy qismlarni, shu jumladan "kichik" matn birliklarini (tovush, leksik, grammatik). Matnni lingvomadaniy tahlil qilish muhim rol o'ynaydi, chunki o'quvchi oldida aniq maqsad mavjud; diqqat bilan o'qing va matndan to'liq ma'lumot oling. Umuman olganda, ertak matni murakkab va rang-barangdir. Uning talqinida undagi ma'nolarni ochish masalasi oldinda. Matn tahlili tilning asosiy namunasi sifatida "uslub" tushunchasi bilan bog'liq. Matn va uslub nutq faoliyatining o'ziga xos xususiyatidir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ma'lumki, matnni lingvistik-stilistik tahlil qilish tilning turli darajalarida amalga oshirilishi mumkin. Tilda tovush oqimining o'ziga xos naqshlari yaxshi effektga olib keladigan funktsiyani o'rnatadi. Ovoz oqimining yaratilishini ikki guruhga bo'lish mumkin: versifikatsiya (ma'lum bir til qonunlariga bo'ysunadigan she'r yaratishning o'ziga xos qoidalari) va instrumentalizatsiya (nutqning muayyan hajmini, emotsional-ekspressiv ohangni ta'minlovchi tovushlar uyg'unligi). Tilning ifoda vositalari til elementlarining denotativ va konnotativ ma'nolari tufayli

mavjud. Shu ma'noda so'z va so'z shakli o'rtasida katta farq bor. So'z denotativ va predmet-mantiqiy ma'nosi bilan farqlanadi. Bu ma'noga turli xil konnotativ ma'nolar qo'shilishi mumkin. Ular, o'z navbatida, so'zlarda va kontekstdan tashqarida bo'lishi mumkin, masalan, yozuvchi va yozuvchi, ya'ni nutqda so'zni qayta ishlashning o'zgaruvchanligi haqida gapirishimiz mumkin.

So'zning grammatik shaklining semantikasiga kelsak, u paradigmada faqat denotativ ma'noga ega. Grammatik shaklni nutq va kontekstda hissiy, stilistik yoki ekspressiv deb hisoblash mumkin emas. Morfologik darajadagi lingvistik (paradigmatik) sinonimlar kam, lekin ularning ba'zilar belgisi va belgilanmagan a'zolar bilan stilistik qarama-qarshilikka tushadi. Turli stilistik vositalardan foydalanish morfologik darajadagi ifoda vositalarining qashshoqligini qoplaydi [7]. Tovushlar, so'zlar, ularning grammatik shakllari, nutqning sintaktik tashkil etilishi tilda nutqiy ifodaning turli shakllariga ega. Biroq, tilshunoslikning turli sohalarida turli xil ta'riflar mavjud bo'lsa-da, gap modeli tilning sintaktik darajasining asosiy birligidir. Natijada, sintaktik-stilistik paradigma gap modellaridan tashkil topgan. Boshqa til elementlari kabi darajada, ular asosiy va qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin va sinonimdir. Bashoratda oddiy o'zgarma ma'noning mavjudligi bitta sintaktik ma'no bilan birgalikda ko'chirma, so'roq va inkor gaplar o'rtasida qarama-qarshiliklarni hosil qilishda asosiy rol o'ynaydi. Asosiy modeldan so'roq yoki inkor gapga o'tish uning sintaktik ma'nosini o'zgartiradi va ko'pincha stilistik transformatsiya hisoblanadi. Asosiy modelning boshqa turdagi o'tkazuvchan jumalarga evolyutsiyasi ikkinchisining qaroring stilistik jihatdan belgilangan modellariga o'tishini taqozo etadi [7]. Shunday qilib, badiiy nutqda so'z til birligi sifatida ilgari xos bo'lmagan yangi xususiyatlarni oladi. Tadqiqot jarayoni matn va nutqning fonetik, leksik, morfologik va sintaktik jihatlarini, strukturani tahlil qiladi. Ertak matni hayotiy faktlarning ko'r-korona aks ettirilmagani bois, unda murakkab, tarixiy

jihatdan o'zgaruvchan yaratilish qonuniyatlari haligacha chuqur tahlil qilinmagan. Biz mazmun qurilishida badiiy vaqt hodisasiga ham murojaat qilamiz. Tabiiyki, ijodiy vaqtda tasvirlangan barcha hodisalar real vaqtni aks ettiradi, lekin uning barcha xususiyatlarini ko'rsatmaydi; bu yanada mustaqildir. U tezlashadi, sekinlashadi yoki to'xtaydi, shuning uchun hodisalar ketma-ketligi boshqacha bo'lishi mumkin. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, badiiy vaqt va makon o'rtasida ularning mazmun xususiyatlariga ko'ra aniq bog'liqlik mavjud. Bu bog'liqlik vaqt oqimi muammosi hududda ko'chirilganda ko'rinadi. Bu vaqt oralig'idagi farq bilan fazoviy yo'nalishning o'zgarishiga olib kelishini ko'rishimiz mumkin.

Lingvomadaniyatning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi savolni ko'rib chiqsak, biz lingvomadaniyat tilshunoslikning ancha murakkab va keng ko'lamli jihatlaridan biri deb hisoblaymiz, chunki juda ko'p turli madaniyatlar va tillar mavjud. Biroq, bu ilmiy yo'nalish doimiy rivojlanishda. Bu til va madaniyatning doimiy o'zgarishi bilan bog'liq. Lingvomadaniyat tilshunoslikda muhim rol o'ynaydi, chunki bu fanlararo yo'nalishdir.

**Xulosa.** Tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlar xalq og'zaki ijodida qayd etilgan natijalar bilan xalq ongining rivojlanishining turli bosqichlarini diaxronik ham, sinxronik uslubda ham o'rganish mumkin. Shunday qilib, folklorning keyingi lingvistik-kognitiv tadqiq qilish dolzarb vazifadir, chunki bunday tadqiqot natijalari folklorning asosiy tushunchalarining birinchi lug'atini yaratishda foydalanish mumkin. Madaniy g'oyalar o'z tillarida amalga oshirilishida umuminsoniy xususiyatlar va milliy-madaniy xususiyatlarga ega. Folklorning lingvomadaniy tadqiqi milliy tilning sub'ekt ongi, tafakkuri, mentaliteti bilan munosabatini ochib beradi, har bir o'ziga xos folklor birligini yaratadi. Tajriba va jamoaviy bilimlarni to'plash, saqlash va avlodan-avlodga o'tkazish jarayoni natijasida voqelikning tuzilishi turli kognitiv modellar bo'yicha sodir bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Anisimova E. (2003). Лингвистика текста и межкультурная коммуникация [Matn lingvistikasi va xalqaro aloqa – kreol matnlari asosida]. Moskva: Akademiya (rus tilida)
2. Drosdovski, G. va Bibliografiya instituti (Mannheim). (2003). Duden Deutsches Universalwörterbuch: Auf der Grundlage der neuen amtlichen Rechtschreibregeln. Mannheim: Dudenverlag.
3. Galperin, I. (2007). Текст как объект лингвистического исследования [Matn lingvistik tadqiqot ob'ekti sifatida]. Moskva: КомКнига (rus tili) [Галперин, И. (2007). Текст как объект лингвистического исследования. Москва: КомКнига].
4. Israfilova, D. (2010). Взаимосвязь языка и культуры основной объект лингвокультурологии [Lingvokulturologiyaning asosiy ob'ekti sifatida til va madaniyatning o'zaro aloqasi]. Vestnik TQQPU, 2(20), 217–220 (rus tilida) [Israfilova, D. (2010). Взаимосвязь языка и культуры основной объект лингвокультурологии. Вестник ТГГУ, 2(20), 217–220].
5. Kupina, N. (1983). Смысл художественного текста и аспекты лингвосемантического анализа. Красноярск: Издательство Красноярского университета (rus tilida) [Купина, Н. А. (1983)].
6. Maslova V. (2001). Lingvokulturologiya [Lingvomadaniyat]. Moskva: Akademiya (rus tilida) [Maslova, V. (2001)].
7. Morozovskiy, A. (Tahr.). (1984). Стилистика англиского языка [Инглиз тили стилистикаси]. Москва: Высшая школа (rus tilida)
8. Palmer, G. (1996). Lingvomadaniyat nazariyasi. Texas universiteti matbuoti.
9. Sharifian, F. (2015). Lingvomadaniyat. Til va madaniyat bo'yicha Routledge qo'llanmasida (473-492-betlar). Nyu-York: Routledge.
10. Teliya, V. (1999). Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологические аспекты.
11. Vorob'ev, V. (1997). Lingvokulturologiya: nazariya va metodi [Lingvokulturologiya: nazariya va metodlar]. Moskva: RUDN (rus tilida)



**Hilola ZUBAYDULLAYEVA,**  
Samarkand state institute of foreign languages Teacher of English Philology Department  
E-mail: [zubaydullayeva0810@gmail.com](mailto:zubaydullayeva0810@gmail.com)

Based on the review of SamSIFL Doctor of Philosophy, associate professor M.M.Oblokulova

## O'ZBEK VA ZAMONAVIY INGLIZ TILLARIGA NISBATAN TO'LIQ BO'LMAGAN GAPLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada o'zbek va zamonaviy ingliz tilidagi to'liqsiz gaplar masalalari muhokama qilinadi. To'liqsiz gaplar tushunchasi butun dunyo tilshunoslari uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan. To'liqsiz gaplarga bag'ishlangan maxsus asarlar yozilmagan edi. Ushbu masala bo'yicha asosiy ahamiyatli tadqiqotlar A.N.Nazarovning dissertatsiyasi va I.A.Popovaning ishi bo'lib, grammatik tuzilishga asoslangan to'liq bo'lmagan gaplarga qoniqarli ta'rif berishning iloji yo'qligi, shuningdek, gaplarni to'liq va to'liqsizga bo'lish mezonlari bo'yicha aniq bir fikrni ilgari surishni mumkin emasligi to'g'risida xulosa qilingan. Buning sababi shundaki, to'liqlik tushunchasi uzoq vaqt davomida strukturaviy va grammatik emas, balki semantik xususiyatlarga asoslanib kelgan. Biroq to'liqsiz gaplar nazariyasining ko'pgina masalalari, jumladan, ularning tuzilishi va xususiyatlariga oid lingvistik faktorlar haligacha o'z yechimini topmagan.

**Kalit so'zlar:** Ichki, rivojlanmagan, to'liq bo'lmagan gaplar, sintaktik daraja, fe'l shakllari.

## ОСОБЕННОСТИ НЕПОЛНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В СРАВНЕНИИ С УЗБЕКСКИМ И СОВРЕМЕННЫМ АНГЛИЙСКИМ ЯЗЫКАМИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы неполных предложений в узбекском и современном английском языке. Понятие неполных предложений имело большое значение для лингвистов из разных уголков мира. Специальных работ, посвященных неполным предложениям, не было. Основными значимыми исследованиями по этому вопросу явились диссертация А.Н.Назарова и работа И.А.Поповой, и делается вывод о невозможности дать удовлетворительное определение неполных предложений на основе грамматической строй, а также невозможность выдвинуть четкие критерии деления предложений на полные и неполные. Это связано с тем, что определение неполноты долгое время основывалось не на структурно-грамматических, а на семантических признаках. Однако до сих пор остаются нерешенными многие вопросы теории неполных предложений, в том числе их структура и особенности, а также до конца не выяснены связи между различными языковыми факторами.

**Ключевые слова:** Внутренние, неразвитые, незавершенные предложения, синтаксический уровень, глагольные формы.

## THE PECULIARITIES OF INCOMPLETE SENTENCES IN COMPARISON WITH UZBEK AND MODERN ENGLISH

Annotation

This article addresses issues of incomplete sentences in Uzbek and modern English. The notion of incomplete sentences has been of great importance for linguists from different parts of the world. There were no special works devoted to incomplete sentences. The main significant research of this matter were the thesis of A.N.Nazarov and the work of I.A.Popova, and it is concluded that it is impossible to give a satisfactory definition of incomplete sentences based on a grammatical structure, as well as the impossibility of putting forward clear criteria for dividing sentences into complete and incomplete. It is due to the fact that the definition of incompleteness for a long time was based not on structural-grammatical, but on semantic features. However, many questions of the theory of incomplete sentences still remain unresolved including their structure and peculiarities, also the relationship between various linguistic factors have not been completely clarified.

**Key words:** Internal, undeveloped, incomplete sentences, syntactic level, verbal forms.

**Introduction.** Exploring the notion of incomplete sentences and providing a comprehensive definition of complete sentences is crucial for establishing a shared understanding. The definition of a sentence has sparked ongoing debates and varied interpretations among linguists, both within and across linguistic directions. Despite the lack of a universally satisfactory resolution, this article adopts the definition offered by the Academic grammar of the Russian language as a practical framework. According to this perspective, a sentence is viewed as a grammatically structured unit of speech, serving as the primary tool for forming, expressing, and conveying thoughts. Notably, a sentence not only conveys information about reality but also reflects the speaker's attitude towards it. The internal unity of verbally expressed components, their arrangement, and

intonation are integral aspects of a sentence from a grammatical standpoint.

In terms of conveying a message, every coherent sentence serves its purpose by effectively communicating what needs to be expressed. For a sentence to qualify as such it must fulfill its primary communicative function; otherwise, it would not meet the criteria of a sentence. Regardless of their structural characteristics, sentences within a given context fully express the ideas contained in them. This is crucial, as incomplete transmission of messages through sentences would render interpersonal communication impossible. Hence, viewed from this perspective, the concept of incomplete sentences ceases to exist entirely.

**Literature review.** Instances of informal speech, classified by I.A. Popova as "undeveloped" or "essentially

incomplete sentences”, signify thoughts lacking sufficient differentiation, remaining unresolved and not yet distinctly combined into verbal representations [1]. Essentially, these expressions indicate thoughts that have not been fully shaped, preventing them from becoming a fully realized linguistic phenomenon. Such formations cannot be considered sentences at all, a definition passed down from A.A. Shakhmatov, which categorizes them as either “sufficiently” or “insufficiently” differentiated [2]. In other words, if a thought has not yet sufficiently evolved into a linguistic phenomenon, it will never transform into a fully articulated sentence.

**Research methodology.** The author of the article acknowledges this by describing such expressions as “language formations that have not yet become full sentences”. In this context, the term “incomplete” extends beyond grammatical considerations and pertains to a specific conceptual framework. In grammar, the term “incomplete proposal” characterizes distinct positional models relative to the positional models of complete sentences. Consequently, the term “incomplete sentence” does not apply to unexpanded expressions, as these, as the author emphasizes, have not transitioned into fully formed sentences.

Based on the aforementioned evidence, it can be concluded is that when examining a sentence within its context and assessing completeness of meaning, all sentences are inherently complete. From this perspective, sentences that are deemed incomplete do not exist. In any given context or situation, each sentence, considering its structure and function, is comprehensive in terms of content. In this context, we differ in opinion from A.N. Nazarov, the author of the dissertation “Incomplete Sentences in Russian”, who asserts that “the incompleteness of a sentence is primarily determined by the semantic incompleteness of its content” [3]. This perspective leads to the exploration of grammatical phenomena solely through the subjective interpretation of the meaning of corresponding sentences, relying on the intuitive linguistic sense of the researcher. Consequently, it results in subjective assessments and conclusions.

This study employs a descriptive research approach, drawing inspiration from Z. Harris and C. H. Friz. By applying their methodology, the study successfully streamlines the diverse array of specific sentences found in texts into a limited set of models. In certain instances, elements of transformational analysis were incorporated to substantiate specific positions, serving the purpose of “identifying language units at the syntactic level” [4]. The utilization of these methods has proven effective in clarifying the characteristics of both incomplete and complete sentence models.

To delineate the scope of distribution for a particular model of incomplete sentences, contingent on the lexical meaning and grammatical form of its constituent words, a calculation method was employed. This approach facilitated the determination of a specific probability level associated with the occurrence of a given model of incomplete sentences.

**Analysis and results.** Indeed, a considerable portion of formally complete sentences in coherent speech, when removed from their context, fails to convey the full depth of thought that they possess within that context. The semantic connection between contextual sentences and the relative inadequacy of an isolated sentence is demonstrated through various means, such as the use of pronouns (both personal and demonstrative), conjunctive particles, conjunctions at the start of sentences, introductory words, and other devices. For instance, consider the following sentences: “His political work is smaller in volume and narrower in range than that of his two great contemporaries, but it reflects more clearly than the poetry of either, the collapse of faith that was a tragedy in many sincere lives of the period”. Nevertheless, this sentence

cannot be regarded as complete in meaning or even clear in content without a preceding sentence that establishes the subject relationship of personal pronouns: “Eminent alike as poet and critic, Matthew Arnold holds a place of singular distinction among Victorian writers” [5]. However, even this sentence lacks complete clarity without a more extensive preceding context, as the content of the group “two great contemporaries” remains unclear [6].

When a sentence is considered within its context, viewed as a part of the whole, it gains full meaning. This observation aligns with V.V. Vinogradov's insight: “Taking into account all the means of expression, situation, and context, considering the structural and grammatical features of the so-called incomplete sentences, almost every one of them will be 'complete, i.e., adequate to its purpose and effectively performing its communicative function” [4]. In assessing sentence incompleteness, the perspective taken is that a sentence, in terms of its model, is not a product of creative expression; rather, it represents a pre-established, replicable unit. “The positional model of the proposition is a ready-made tool, a pre-existing structure”. From the standpoint of its model, a sentence is a linguistic unit-not because it can express a complete thought, but because it is a fixed structure, a prepared model reproduced in speech as an identifiable structure.

Simultaneously, errors in speech may arise from deviations in the developed models within the language system; certain components of these models might be omitted. However, this doesn't negate the fact that a sentence like “Wish I were the same” is not a novel construction but rather embodies the same positional model (structure) as the sentence “I wish I were the same”. Similarly, consider the statement “You coming, Scobie?”-it can only function as a communicative unit because its positional model aligns precisely with the positional model of the sentence “Are you coming, Scobie?” These errors or incomplete structures derive from and are constructed based on existing models within the language system. They remain intelligible solely because they adhere closely to the complete sentence's exact structure. For instance, sentences such as “Very pretty, that” or:

An incomplete sentence arises from a violation of positional models, and this occurrence is facilitated by the close interconnection of individual positional elements. This close linkage allows for a situation where a position in one verbal form may be assumed by a different position in other verbal forms, and even by the entire positional model of the sentence. For instance:

Hallo, Jim, how is it going?

Badly. I'll wait for you, he said in an urgent undertone.

In the porch.

Both of the chosen sentences are associated with complete sentences through the absence of a verbal form in the predicate position. These sentences are characterized by dependent circumstantial positions, which presuppose the presence of the predicate position and, consequently, the subject. In the first case, this is evident in “It is going bad”, and in the second, it is exemplified by “I'll wait in the porch”.

This interdependence, termed by V.G. Admoni as the “projection of syntactic relations” of the copula position, indicates the omission of the verbal form in one or more elements. Additionally, the loss of the verbal form in one of the sentences is corroborated by corresponding sets of sentences [7]. T.P. Lomtev articulated this concept, stating, “The position of the verbal form in a sentence is determined not only by the data representing a single sentence taken in isolation but also by those representing correlative series of different types of sentences, i.e., language systems in general”. Building on this evidence, much like T.P. Lomtev, we assert

that the distinction between incomplete and complete sentences is not contingent on the absence of specific positions but rather on the fact that incomplete sentences are “presented negatively, i.e., they are not represented by separate verbal forms” [8].

**Conclusion.** To sum up, we establish that an incomplete sentence is a straightforward two-part sentence, characterized by an incomplete expression of the positional model in verbal forms, where one or both of the primary

positions are presented negatively. This assertion is substantiated by the connections and formations of the available copula position. Incomplete sentences maintain a connection with complete sentences and effectively convey the blogger's message through two key factors: context and situation. The lack of word forms in secondary positions does not render the sentence incomplete. It's important to note that the term “incomplete sentence” pertains to a structural and grammatical concept rather than a semantic one.

#### LITERATURE

1. Popova I.A. Incomplete sentences in modern Russian. Proceedings of the Institute of Linguistics, vol. 2, -M., 1953.
2. А. А. Шахматов, Синтаксис русского языка. Редакция Е. С. Истриной, 1941, - 18 с.
3. Nazarov A.N. Incomplete proposals, conditions for their use and their structure. -Penza, 1950.
4. Harris Z. Joint occurrence and transformation in the linguistic structure. “New in Linguistics”, vol. 2, -M., 1962
5. Dudyk P.S. Incomplete and elliptic sentences in the modern Ukrainian language. abstract of cand...diss. -Kiev, 1954.
6. Grammar of the Russian language. Academy of Sciences of the USSR. -M., 1954.
7. Admoni V.G. Completeness of construction as a phenomenon of syntactic form. Voprosy yazykoznanania, №1, 1958. – P.111-117
8. Lomteva T.P. Fundamentals of the syntax of the modern Russian language. Uchpedgiz, 1958.



*Sayyora KABILOVA,*  
*Samarqand davlat chet tillari instituti doktoranti*  
*E-mail: sayyoramohizodali@gmail.com*

*TerDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi R.Mustafoqulov taqrizi asosida*

### EVFEMIZMLARNING MANIPULYATIV IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Evfemistik birliklarni manipulyatsiya qilish imkoniyatidan noadekvat axborot modellari asosida ijtimoiy axborot texnologiyalari yaratuvchilari faol foydalanmoqda. Evfemizmning ta'rifi nafaqat uning asosiy vazifasini, balki evfemizmni qo'llashda so'zlovchilarning ko'zlagan maqsadlarini, shuningdek, bu vazifalarni bajarish usullarini ham aks ettirishi kerak. Ushbu mezonlarni hisobga olgan holda, evfemizmlar muayyan vaziyatlarda o'rinsiz bo'lgan, muloqotda nizolarni oldini olish yoki haqiqatdagi noxush hodisalarni yashirish uchun neytral yoki ijobiy ma'nolardan foydalanadigan yoki iboralarni almashtirish sifatida belgilanishi mumkin bo'lgan so'zlardir.

**Kalit so'zlar:** Evfemizm, Tabu, semantik, ibtidoiy ong, g'ayritabiyy, ob'ekt.

### MANIPULATIVE POSSIBILITIES OF EUPHEMISMS

Annotation

The ability to manipulate euphemistic units is actively used by creators of social information technologies based on inadequate information models. The definition of euphemism should reflect not only its main function, but also the goals of the speakers when using euphemism, as well as the methods of performing these tasks. Taking into account these criteria, euphemisms are inappropriate in certain situations, neutral or positive in order to avoid conflicts in communication or hide unpleasant events in reality are words that use meanings or can be defined as replacements for phrases.

**Key words:** Euphemism, Taboo, semantic, primitive consciousness, supernatural, object.

### МАНИПУЛЯТИВНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ЭВФЕМИЗМОВ

Аннотация

Возможность манипулирования эвфемистическими единицами активно используется создателями социальных информационных технологий, основанных на неадекватных информационных моделях. Определение эвфемизма должно отражать не только его основную функцию, но и цели говорящих при использовании эвфемизма, а также способы выполнения этих задач. Учитывая эти критерии, эвфемизмы неуместны в определенных ситуациях, в общении являются слова, употребляющие нейтральные или позитивные значения или могут быть определены как выражения-заменители, позволяющие избежать конфликтов или скрыть неприятные события действительности.

**Ключевые слова:** Эвфемизм, табу, семантика, первобытное сознание, сверхъестественное, объект.

**Kirish.** Evfemizmlarni manipulyatsiya qilish imkoniyati qadimgi mualliflar tomonidan ta'kidlangan; ehtimol, evfemizmlar hokimiyatga yot emas, balki tanbehni hayratga, hurmatsizlikni taqvoga aylantirar. Evfemistik birliklar tinglovchiga ta'sir ko'rsatishi, ya'ni odamning ong ostiga ta'sir qilishi mumkin. S.A.Megentesov va I.Moxamad tinglovchiga ta'sir ko'rsatish uchun mo'ljallangan matnlarni "aldash", tinchlantirish, ongni zaiflashtirish, "tanqidiy aql" va ikkilamchi signal tizimini boshqarilishini ta'riflaydilar.

So'zlovchilar tinglovchini salbiy his-tuyg'ulardan xalos qilish uchun o'z nutqida evfemizmlarni ishlatganda, xuddi shu maqsadni ko'zlaydilar. Evfemizmlarning taklif ta'siri assotsiativlik mexanizmiga asoslanadi. Bu bilan "ma'ruzachi o'ziga xos rasmiy himoyaga ega bo'ladi va go'yo u suhbatdoshni taqiqlangan tushunchadan chalg'itib, hech bo'lmaganda rasmiy ravishda boshqa narsani nazarda tutayotgandek ko'rsatadi".

Tahlil va natijalar. Misol tariqasida, ommaviy axborot vositalari tilida "kill" ma'nosini "to neutralize" uchun mashhur evfemizmni ko'rib chiqish mumkin. Bunday holda, salbiy ma'nolarni ko'rsatish uchun ijobiy bilan qo'shimcha bog'lanishlarni keltirib chiqaradigan so'zlar ishlatiladi. Ushbu assotsiativlarning paydo bo'lishiga so'zning ichki shakli sabab bo'ladi.

Zararsizlantirish  
Qurolsizlantirish

Zarar  
Kamommad  
Zararsiz  
Ziyonsiz.

Shunday qilib, zararsizlantirish uchun evfemizmlarni qo'llash orqali so'zlovchi rasmiy ravishda zararni (zarar, shikastlanish) oldini olishga yordam beradigan va shuning uchun qabul qiluvchi tomonidan ijobiy qabul qilinishi kerak bo'lgan bunday harakatlarni nazarda tutadi. Bu jarayonda shubhasiz, sezilarli manipulyatsiya effekti mavjud. Tabu (o'ldirish) ma'nosi aniq bo'lsa-da, zararsizlantirish uchun evfemizm zararni to'xtatuvchi foydali narsa bilan bog'langanligi sababli barqaror ijobiy ma'noga ega deya ko'rsatiladi.

Biroq, evfemizmlarning manipulyatsiya imkoniyatlari assotsiativ mexanizmlar bilan cheklanmaydi. Buning sababi shundaki, evfemistik effektlar har doim ham ijobiy ma'noga ega bo'lgan assotsiativlar tufayli yuzaga kelmaydi.

Evfemizmlar nutqni buzish, qisqartmalar, nutq tarkibiy qismlarining sonini ko'paytirish orqali ham tuzilishi mumkin. Bunday shakllanish usuli bilan biz assotsiativlik haqida gapirmayapmiz, chunki evfemizmlar tabu qilingan so'zlar va iboralarni biroz o'zgartiradi (leksik birliklar almashtirilishi aniq ko'rsatilgan). E.N.Toropsevaning so'zlariga ko'ra, agar evfemizm salbiy ma'noga ega bo'lgan so'zlar va aloqa ishtirokchilarining ongi o'rtasida "oralik aloqa, o'ziga xos"

bufer rolini o'ynasa, biz "bufer" deb ataladigan mexanizm haqida gapirishimiz mumkin.

Shunday qilib, quyidagi misolda semantik jihatdan keng bo'lgan ibora "bufer" vazifasini bajaradi.

Bunday noaniq so'z din evfemistik ma'noda josusni anglatadi. Ushbu ibora tinglovchi bilan ijobiy aloqani keltirib chiqarmaydi, aksincha bu ibora noaniq bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri nominatsiyani qamrab oladi va yumshatuvchi effekt yaratadi. Bufer mexanizmi tamoyil asosida ishlaydi: "So'z yo'q, muammo yo'q". "Bizning fikrimizcha, insonga eng kuchli operatsion ta'sir siyosiy evfemizmlar" deb ataladi. "Atamasi ma'lum bir fakt bilan bog'liq salbiy assotsiatsiyalarni yumshatish uchun ko'pincha tasvirlangan faktning ma'nosini buzib, ommaviy auditoriyaga bo'lgan siyosiy aloqa matnida ishlatiladigan evfemizmlar guruhini bildirish uchun ishlatiladi".

Ingliz tilshunosi J.Lawrence evfemizmlarni harbiy va siyosiy fitnalardan ajralmas deb hisoblagan. Siyosat sohasida qo'llaniladigan evfemistik almashtirishlar misollarini tahlil qilib (o'ldirish o'rniga tugatish, bomba reydlari o'rniga himoya manyovrlari) Lawrence bunday hollarda evfemizatsiya uchun asosiy motivatsiya mashhur bo'lmagan siyosatning asl maqsadini yashirish degan xulosaga keladi. Ingliz tilida manipulyativ ta'sir qilish maqsadida evfemizmlardan foydalanish doublespeak (ikki tomonlama standartlar tili) yoki newspeak ("yangi til") deb ataladi. "Yangi nutq" atamasi J.Oruell tomonidan 1984 yilda birinchi marta 1948 yilda nashr etilgan distopik romaniga kiritilgan. Tinch aholini o'ldirish bu tilda "zararsizlantirish", "sog'lig'ini o'zgartirish", yondiruvchi yoki oddiygina "kirish moslamasi" deb nomlangan. Oruellning yozishicha, siyosiy til - himoyasizni himoya qilish usuli, u yolg'onni aql bovar qilmaydigan va qotilliklarni sharafli ko'rsatish uchun o'ylab topilgan. Shunday qilib, Oruellning fikricha, siyosiy til asosan evfemizmlar, foydali savollar va mutlaqo noaniqliklardan iborat.

D.Bolindjer manipulyatsiya ta'sirining lingvistik vositalarini tahlil qilib, "barcha so'z turkumlari ham birdek chalg'ituvchi emas" degan xulosaga keladi. Bu jihatdan baholovchi ma'noli so'zlar ta'sirchanroq bo'lib, D.Bolindjer asosan evfemizmlarga ishora qiladi. Buning sababi shundaki, xabarning mazmunini o'zgartirmasdan, uning hissiy yo'nalishini o'zgartirish mumkin. Muayyan misollardan foydalanib, olimlar evfemizmlar (nomlar o'rniga) yordamida jamoatchilik fikrini qanday boshqarishni ko'rsatmoqdalar masalan: Department of war (harbiy bo'lim) so'zi o'rniga Department of Defence (Mudofaa Vazirligi), propaganda (propaganda) so'zi o'rniga hozir education (ta'lim), consciousness-rising (ogohlikni oshirish) so'zlari o'rin egallagan.

Evfemizmlar odamlarni manipulyatsiya qilish uchun ideal vosita ekanligiga dalillarni sanab o'tamiz:

1) Assotsiativ va "bufer" mexanizmlar ta'sirida neytral yoki ijobiy konnotatsiya yaratish orqali hodisaning asl mohiyatini yashirish:

2) Axborotni uzatishning yashirin usullari odamlarga bevosita ta'sir qilishdan ko'ra samaraliroq:

3) Qabul qiluvchilarning odatda evfemizmlarni kontekstdan olib tashlashga vaqtlari bo'lmaydi. Buning sababi shundaki, ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan keng ma'lumotlar oqimi lingvistik materiallarini va uni tanqidiy baholashni qiyinlashtiradi.

4) So'zga evfemizm maqomini berish uchun bu so'z orqasida qanday referent yashiringanligini tushunishimiz kerak. Agar ma'lumot beruvchi biron sababga ko'ra buni qila olmasa (vaqt yo'qligi, etarli darajada ta'lim darajasi, zarur bilimlarning etishmasligi), evfemizmlarni aniqlashtirib bo'lmaydi.

5) Qabul qiluvchilarning kichik qismi ushbu lingvistik hodisa bilan tanish bo'lib (asosan filologlar va jurnalistlar), ular bu hodisaning mohiyatini bilmasdan, manipulyatsiya ta'siri qanday amalga oshirilayotganini tushinishi mumkin emas.

Tilshunoslar orasida siyosiy nutqda faoliyat yurituvchi evfemizmlarga nisbatan salbiy munosabat keng tarqalgan. Bu "slippage" uslubi sifatida tavsiflangan.

Ayrim mualliflar siyosiy evfemizmlarni haqiqiy evfemizm sifatida inkor etadilar. Buning sababi, bu haqiqatni ataylab buzib ko'rsatishdir. I.R.Galperinning fikricha, agar evfemizm ko'rsatilgan ma'no bilan aloqani saqlab qolmasa, u evfemizm bo'lishini o'xtatadi tension keskin muhit) uprising (qo'zg'olon) so'zi o'rniga, undernourishment (noto'g'ri ovqatlanish) starvation (och qolish) so'zi o'rnida qo'llaniladi.

V.P.Moskvin evfemizm va dezinformatsiyani aloqa maqsadlari jihatidan farqlaydi, chunki ular funksional jihatdan qarama-qarshidir. Evfemizmlarning maqsadi ifodani yumshatishdir, dezinformatsiyaning maqsadi esa yolg'on va haqiqatni buzishdir (Chernobil halokati o'rniga Chernobil avariyasi).

**Xulosa.** Bizning fikrimizcha, yuqoridagi misollar haligacha faqat evfemizmligicha saqlanib qolgan bo'lib, ularning ma'noga aloqadorligi zaif hisoblanadi. Birinchidan, u muayyan vaziyatlarda kommunikatorlar uchun nomaqbul bo'lgan va salbiy reaksiyalarni qo'zg'atishi mumkin bo'lgan so'z va iboralarni almashtiradi. Ikkinchidan, ular neytral konnotatsiyaga ega, uchinchidan, ular nutq evfemizmlarining asosiy maqsadiga mos keladi. Ya'ni, muloqotda nizolardan qochish va haqiqatda noxush hodisalarni yashirishdan iborat. Keyingi boblarda bunday misollar odamga manipulyativ ta'sirining eng samarali imkoniyatiga ega bo'lgan evfemizmlar sifatida ko'rib chiqiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Арапова Эвфемизм //Русча: Энциклопедия. - 2-нашр. - М.: Bastard, 1998 йил. S.636. Белова Е.Е. К вопросу о номинативных типах эвфемизмов И Разноуровневые характеристики лексических единиц. - Смоленск, 2001.-Ч. 3.С. 95-100.
2. Боротнова Н.С. Замоновий тилдан фойдаланишдаги эвфемизмлар ва шахсларнинг лингвистик компетенцияси //Тилшунослик компетенцияси: Грамматика ва луғатлар: Коллежлараро.- Novosibirsk, 1998. - 1-қисм. С. 19-23.
3. Mahmudov N, Odilov Y. "So'z ma'no taraqqiyotida ziddiyat". O'zbek tili enantiosemitik so'zlarining izohli lug'ati". - Toshkent: Akademiya nashr, 2014. - B.103.
4. Bozorboyev K.T. "O'zbek so'zlashuv nutqi frazeologizmlari" Filol.fanl.nomz...diss. avtoreferati Samarqand, 2001.22-b.
5. Yo'ldoshev B."Frazeologik uslubiya asoslari" uslubiyo qo'llanma.Samarqand 1998.B.25.
6. Mamatov A.E. "O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari": Filologiya fanlari dokt.diss.avtoreferat-Toshkent 2000.B.10.



UDK:811.2

*Madina KARIMOVA,*  
Andijon davlat universiteti dotsenti v.b.  
E-mail: [madinakarimova398@gmail.com](mailto:madinakarimova398@gmail.com)

*O'zDJTU dotsenti I.O'sarov taqrizi asosida*

## THE RELATIONSHIP BETWEEN POLITICAL SPEECHES AND ELECTION SPEECHES.

Annotation

Election discourse is a multifaceted form of communication that can be divided into smaller communicative actions and considered as a social phenomenon. This type of communication is often deliberately planned and organized with the participation of a specific group. It is public in nature, characterized by formality, transparency and reproducibility.

**Key words:** Text, discourse, politics, analysis, theory, eloquence.

## ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ПОЛИТИЧЕСКИМИ РЕЧАМИ И ПРЕДВЫБОРНЫМИ РЕЧАМИ

Аннотация

Предвыборный дискурс представляет собой многогранную форму коммуникации, которую можно разделить на более мелкие коммуникативные действия и рассматривать как социальное явление. Этот вид общения часто целенаправленно планируется и организуется с участием определенной группы. Он имеет публичный характер, характеризуется формальностью, прозрачностью и воспроизводимостью.

**Ключевые слова:** Текст, дискурс, политика, анализ, теория, красноречие.

## SIYOSIY NUTQLAR VA SAYLOV NUTQLARI O'RTASIDAGI MUNOSABAT.

Annotatsiya

Saylovoldi diskurs kichikroq kommunikativ harakatlarga bo'linishi mumkin bo'lgan va ijtimoiy hodisa sifatida qaraladigan ko'p qirrali muloqot shakli. Ushbu turdagi muloqot ko'pincha ma'lum bir guruh ishtirokida maqsadli ravishda rejalashtirilgan, tashkil etilgan bo'ladi. U rasmiyatchilik, oshkoralik va takrorlanuvchanlik bilan ajralib turadigan jamoat xarakteriga ega.

**Kalit so'zlar:** Matn, nutq, siyosat, tahlil, nazariya, notiqlik.

Tilshunoslar siyosiy diskursga tor va keng ma'noda qaraydilar. U keng ma'noda siyosiy nutq – siyosat sohasiga tegishli bo'lgan har qanday nutqning shakllanishi, mavzusi, manzili yoki mazmuni, deb tushuniladi[1]. Darhaqiqat, “muayyan paralingvistik kontekstda nutqiy asarlar yig'indisi – siyosiy faoliyat, siyosiy qarashlar va e'tiqodlar, jumladan, uning salbiy ko'rinishlari, siyosiy nutq ishtirokchilarini aniqlaydigan yoki siyosiy muloqotning muayyan mavzusini shakllantiradigan bahsli amaliyotlar to'plamidir”[2]. Zamonaviy amaliy tilshunoslik va siyosatshunoslikda siyosiy diskurs siyosiy muloqotda konkret bir mavzuni shakllantiruvchi diskursiv amallar majmuasi sifatida tushuniladi. Boshqacha aytganda, siyosiy diskurs bir tomondan muhokama predmeti bo'ladigan mavzular yig'indisi bo'lsa, boshqa tomondan mazkur mavzularni tahlil qilishda tanlangan diskursiv amaliyot natijasida hosil bo'ladigan nutqiy birliklar majmuidir. Siyosiy diskurs o'ziga xos kasbiy xoslangan belgilari mavjud bo'lgan nutq uslubiga ega. Siyosatchilar nutqining o'ziga xosligi shundaki, u ommaviy axborot vositalarida uchraydi, shu bilan birga, boshqa uslublarga xos bo'lgan korporativlikdan cheklanadi, chunki siyosiy nutq ommaviy adresatga qaratilgan bo'ladi.

Diskurs – bu so'zlashuvchining ko'z o'ngida shakllanadigan matn. Diskurs so'zlardan yoki jumlalardan iborat bo'lib, nutqning mazmuni ko'pincha “nutq mavzusi” deb nomlangan “ma'lumotnoma” tushunchasi atrofida to'planadi. Uxvanova-Shmigova bu borada quyidagicha yozadi: “Diskurs – bu har qanday matn (og'zaki va yozma, zamonaviy va tarixiy, haqiqiy va sun'iy ravishda qurilgan), uning to'liqligi va to'g'riligi, polifoniyasi va polifunksionalligini hisobga olgan holda haqiqiy va “tugallangan”. Uning mazmun rejasi, to'g'ridan to'g'ri xabar berishdan tashqari, dunyo, jamiyat, kommunikantlar,

kommunikativ kodlar va ularning o'zaro ta'siri haqidagi bilimlarning butun majmuasini o'z ichiga qamrab oladi”[3].

Siyosiy nutqning asosiy maqsadi hokimiyat uchun kurashdir. Tadqiqotchi B.S.Karimova siyosiy memuaristikani siyosiy va badiiy nutqlarning birlashmasida joylashgan periferik janr deb hisoblaydi[4].

Siyosiy janrlardan ajratilgan va saylov nutqi qoidalarga rioya qilgan saylov janrlarini farqlash kerak. Siyosiy nutqlar va saylov nutqlari o'rtasidagi munosabatni orqali tasavvur qilish mumkin:

- 1.Siyosiy diskurs
2. Saylovoldi diskurs.

Saylovoldi muloqotining janr mavzusi bilan belgilanadigan og'zaki yoki yozma shakldagi matnlar sifatida janrlar saylovoldi nutqining qat'iy belgilangan maqsadi – hokimiyat uchun kurash, saylovoldi tashviqoti materiallari va saylovoldi davridagi funksiyalarni o'z ichiga oladi.

Siyosiy nutqqa gazeta matnlari, siyosatga bag'ishlangan notiqlik (ommaviy) nutqlar, siyosiy mavzudagi rasmiy matnlar, saylovoldi maqolalar kiradi. Ma'lumki, ommaviy nutq, jamoat va siyosiy arboblarning nutqi ijtimoiy-siyosiy ta'sir o'tkazish, jamoani ergashtirish, ilhomlantirish maqsadida yaratiladi [5].

Saylov institutining kommunikativ munosabatlari muloqot turi sifatida siyosiy diskurs bilan bog'lash mumkin. Saylovoldi nutq ma'lum bir ijtimoiy makonda amalga oshiriladigan, ijtimoiy shaxslar tomonidan qo'llaniladigan zarur g'oyalar, dalillar va belgilar to'plamiga ega bo'lgan aloqa turi sifatida qo'llaniladi. Saylovoldi nutqlari o'tkaziladigan saylov tizimi saylovoldi aloqa institutlari yaratiladigan va ushbu muassasalar vakillari hamda saylovchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tartibga solinadigan asos yaratadi.

Saylov nutqi ko'p qirrali kommunikativ hodisa bo'lib, uni kichikroq kommunikativ harakatlarga ajratish va ijtimoiy hodisa sifatida tavsiflash mumkin. Ushbu turdagi aloqa tadbirlari puxta rejalashtirilgan, tashkil etilgan, ko'pincha takrorlanadi va ma'lum rollar va ishtirokchilarni o'z ichiga oladi. U o'zining ommaviy xarakteri, rasmiyatchiligi va shaffofligi bilan ajralib turadi[6].

Saylovoldi diskurs kichikroq kommunikativ harakatlarga bo'linishi mumkin bo'lgan va ijtimoiy hodisa sifatida qaraladigan ko'p qirrali muloqot shakli. Ushbu turdagi muloqot ko'pincha ma'lum bir guruh ishtirokida maqsadli ravishda rejalashtirilgan, tashkil etilgan bo'ladi. U rasmiyatchilik, oshkorlik va takrorlanuvchanlik bilan ajralib turadigan jamoat xarakteriga ega.

O'zbekiston saylov kompaniyalaridagi siyosiy munozaralarning nazariy asoslari siyosiy aloqalarni tahlil qilish bilan bog'liq bo'lgan turli tushuncha va nazariyalarni qamrab oladi. Jumladan:

1. Diskursiv tahlil. 2. Siyosiy aloqa. 3. Freyning nazariyasi. 4. Nutqni tanqidiy tahlil qilish. 5. Sotsiologiyatika. 6. Identifikatsiya siyosati. 7. Siyosiy ritorika. 8. Hokimiyat va mafkura.

Saylovoldi chiqishlarda siyosatchilar ishtirok strategiyasidan samarali foydalanishadi. Masalan, quyidagi nutqqa e'tibor qaratsak:

1. Aziz va qadrlil yurtdoshlarim!

Biz sizlar bilan, butun xalqimiz bilan birgalikda tarixan qisqa davrda, boshimizga tushgan qiyinchilik va mashaqqatlar, pandemiya va global inqiroz oqibatlariga qaramasdan, ulkan taraqqiyot yo'lini bosib o'tdik.

Shahar va qishloqlarimiz qiyofasi, hayotimizning turli soha va tarmoqlari tubdan o'zgarimoqda. Xalqimiz biz orzu qilgan o'zgarishlarning dastlabki mevalaridan bahramand bo'lmoqda.

Donishmandlar aytganlaridek, olg'a yurishni o'ylagan inson uchun qo'rquv, ikkilanish, shubha va gumon – eng katta dushmandir.

Biz dadil oldinga intilib, qo'rquv va hadikdan xalos bo'ldik. Dunyo bizga ochildi va biz dunyoga ochildik. Jahonda qancha-qancha do'st va hamkorlar orttirdik. Yuksak irodami, qat'iy sa'y-harakatlarimiz bilan yana bunyodkor xalq, bunyodkor millat bo'lib maydonga chiqdik.

Men saylovoldi uchrashuvlarida xalqimiz vakillari bilan chin dildan muloqot qilib, bu haqiqatga to'la ishonch hosil qildim. Odamlarimiz katta maqsadlarga intilishdan, tashabbus ko'rsatishdan, yangilik yaratishdan qo'rqmayapti. Aksincha, bundan zavq va ilhom olib, yanada faol ishlayapti.

#### ADABIYOTLAR

1. Маслова В.А. Когнитив тилшунослик. Рус тилидан И.Мирзаев таржимаси – Самарканд. 2011. 37-б.
2. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М., 1993. С.55.
3. Ухванова-Шмыгова И.Ф. Методология исследований политического дискурса. Актуальные проблемы содержательного анализа общественно-политических текстов. Выпуск 3. / И.Ф. Ухванова-Шмыгова, А.А. Маркович, В.Н. Ухванов; под общ. ред. И.Ф. Ухвановой-Шмыговой. – Мн.: Технопринт, 2002. – 360 с. – С.
4. Каримова Б.С. Жанровое пространство политического дискурса / Б.С. Каримова // Вестник КазНУ им. аль-Фараби. Серия филологическая. – Алматы, 2006. – № 2. – С. 37-41.
5. Ковалева Е.И. Преемственность традиций классической риторики в американском публичном выступлении (на материале выступлений общественно-политических деятелей США): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2000. – 16 с. – С. 5.
6. Шейгал Е.И. Функциональная структура политического дискурса / Е.И. Шейгал // Языковая личность: институциональный и персональный дискурс: сб. научн. тр. - Волгоград: Перемена, 2000. – 324 с. – С.45-50.

Xalqimizning ongi, dunyoqarashi o'zgargani, uning qalbida o'ziga, ertangi kunga ishonch paydo bo'lgani – bu bizning eng katta yutug'imiz.

O'zini o'zgartira olgan xalq, hech shubhasiz, hayotni ham, ijtimoiy muhitni ham o'zgartira oladi, o'z murad-maqsadlariga albatta yetadi. Mana shunday ulug' e'tiqod bilan yashayotgan xalqqa rahbar bo'lib, uni yorug' manzillar sari boshlash men uchun ulkan baxt, ulkan sharafdir.

Hayotimning ma'no-mazmuniga aylangan buyuk maqsad – Yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish yo'lida sizlar bilan, butun xalqimiz bilan birga tinimsiz ishlashga, bor kuch-g'ayratim, bilim va salohiyatimni safarbar etishga tayyorman.

Men bilan bir safda sizlardek aziz qadrdonlarim, duogo'y otaxon va onaxonlarimiz, azamat aka-ukalarimiz, mehribon opa-singillarimiz, azmu shijoatli yoshlarimiz borligi menga bitmas-tuganmas kuch-g'ayrat, ruh va ilhom beradi.

Ishonchim komil, barchamiz birgalikda Yangi O'zbekistonni – inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlatni albatta quramiz!

Barchamizni mana shunday ulug' maqsadlar yo'lida birlashtirgan xalqimiz, Vatanimiz doimo omon bo'lsin!

Barcha ezgu ishlarimizda Yaratganning o'zi madadkor bo'lsin!

Yashasin O'zbekiston!

Yashasin O'zbekiston xalqi!- (Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (O'zLiDeP)dan nomzod Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning saylovoldi dasturi.)

2. Democratic presidential candidate Joe Biden delivered brief remarks to an enthusiastic crowd of supporters. at a drive-in gathering outside the Chase Center in Wilmington, Delaware. He has been watching election results with his family in Wilmington as votes continue to be tallied across the nation. "We knew this was going to go long," Biden said, acknowledging that the race will be dragging into Wednesday. "We feel good about where we are. We really do." Biden said that he felt confident about winning Arizona, Michigan, Wisconsin and Pennsylvania, arguing that "it ain't over until every vote is counted, until every ballot is counted." "I'm here to tell you tonight we believe we're on track to win this election," Biden said. "I'm optimistic about this outcome." The former vice president thanked supporters for turning out to vote. "Keep the faith, guys. We're going to win this," Biden said.



**Iroda KAXAROVA,**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti doktoranti (DSc), filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

*E-mail: iroda.kaxarova@mail.ru*

*BuxDU professori, f.f.d. D.O'rayeva taqrizi asosida*

## UNDOV, TAQLID, MODAL SO'ZLARNING MUSHTARAK VA FARQLI XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada dunyo tilshunosligi tarixida undov, taqlid va modal so'zlarni o'rganishning o'z tarixiy bosqichlari tahliliy bayon etildi. Barcha davrlarda ularning semantikasi, kontekstual ma'nosi, etimologiyasi, tillardagi tipologiyasi, uslubiy vazifalari, matndagi o'rniga katta e'tibor qaratib kelingan. Bular bilan bog'liq masalalar hamisha tilshunoslikning muhim muammolari qatorida turganligi asoslandi.

**Kalit so'zlar:** Flektiv til, undov so'z, taqlidiy so'z, agglutinativ til, onomatopeya, ekspressivlik, fonetik xususiyat.

## ОБЩИЕ И РАЗЛИЧНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЭМОТИВНЫХ, ПОДРАЖАТЕЛЬНЫХ, МОДАЛЬНЫХ СЛОВ

Аннотация

В данной статье аналитически описаны исторические этапы обучения восклицательным, подражательным и модальным словам в истории мирового языкознания. Во все периоды большое внимание уделялось их семантике, контекстуальному значению, этимологии, языковой типологии, методическим функциям, их месту в тексте. Доказано, что связанные с ними вопросы всегда входят в число важных проблем языкознания.

**Ключевые слова:** Флективный язык, восклицательное слово, подражательное слово, агглютинативный язык, звукоподражание, экспрессивность, фонетический признак.

## GENERAL AND DIFFERENT CHARACTERISTICS OF EMOTIVE, IMITATIVE, MODAL WORDS

Annotation

This article analytically describes the historical stages of teaching exclamatory, imitative and modal words in the history of world linguistics. In all periods, much attention was paid to their semantics, contextual meaning, etymology, linguistic typology, methodological functions, and their place in the text. It has been proven that issues related to them are always among the important problems of linguistics.

**Key words:** Inflectional language, exclamatory word, imitative word, agglutinative language, onomatopoeia, expressiveness, phonetic feature.

**Kirish.** Dunyodagi barcha tillarda undov, taqlid va modal so'zlar mavjud. Faqat ularning miqdori ko'p emas. Shular orasida undov va taqlidiy so'zlar fonologik belgilar birikmasidan tashkil topishi nuqtai nazaridan tipiklik kasb etadi. Shuningdek, ular tabiatdagi tovushlar va tasvirlardan ta'sirlanish natijasida ham paydo bo'lishi jihatidan o'xshaydi. Mana shu tufayli o'zbek tilshunosligida taqlidiy so'zlar o'tgan XX asrning yarmigacha morfologik qatlamda undovlar qatorida ko'rsatilgan [1]. Holbuki, undovlar hamda tasviriy va taqlidiy so'zlarning har biri alohida kategoriyalar bo'lib, ularning asosiy farqi semantik tabiati, grammatik asosi, gapda otlashmay turib mustaqil sintaktik vazifada kelishida ko'rinadi. Undovlar esa kelishik va egalik qo'shimchalari yordamida otlashgandagina turli sintaktik vazifalarni bajara olsa, taqlid so'zlar to'ppadan to'g'ri biror gap bo'lagi bo'la oladi. Shu sababdan taqlid so'zlarni undovlar sirasiga kiritish to'g'ri bo'lmaydi. Shuni inobatga olib, XX asrning ikkinchi choragiga kelib, taqlidlar undovlardan ajratilib, oraliq so'zlar sifatida guruhlangan va ko'proq tasviriy ifodalar sifatida qayd qilingan. Bunda taqlidlarning morfologik o'zgarishi, lug'aviy va aloqa-munosabat shakllarini qabul qilib, "otlashish"ga katta e'tibor qaratila boshlangan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tilning kelib chiqishiga oid fikrlarning bevosita undovlar va taqlidlar farazi bilan bog'lanishi ham, bizningcha, ularni o'zaro birlashtirishga asos yaratgan. Ayrim olimlarning fikricha, ibtidoiy odam dastlab o'z fikrini tevarakdagi narsa-hodisalar, hayvon va qushlarning ovozi o'z ichki kechinmalari asosida ifodalashi orqali bir-biriga bildirgan. Keyinchalik bunday so'zlar boshqa

so'zlar bilan birlashib borganligi fransuz olimi J.J.Russo tomonidan ham aytib o'tilgan [2]. Taqlidlarning til yaralishida muhim o'rin tutganligini XX asr boshlarida N.A.Ashmarin ham ta'kidlagan [1]. Olim chuvash tili misolida tasviriy so'zlarning 115ta morfologik guruhini aniqlab, ularning struktura elementlari, ba'zi fonetik xususiyatlari, metaforizatsiyasi haqida so'z yuritgan. Ammo bunda N.A.Ashmarin taqlid so'zlarni undovlar kategoriyasiga kiritgan.

N.K.Dmitriyev ham "Qumiq tilining grammatikasi" asarida taqlid so'zlarni undovlarning bir turi sifatida qayd qilgan. Shuningdek, u ba'zi bir so'zlarning taqlid bilan aloqasi borligini izohlagan [3].

Darhaqiqat, tillarning tipologik xususiyatini ularda fizik va nutq tovushlarining ifodalanishiga asoslangan undov va taqlidiy so'zlar vositasida ham aniqlash mumkin.

**Tahlil va natijalar.** O'zbek tili agglutinativ tillardan bo'lgani uchun unda undov va taqlidni bildiruvchi ifodalar birmuncha ko'p, ammo flektiv tillar doirasiga kiruvchi ingliz tilida bunday ifodalar kamroq.

Tilimizda undov, taqlid va modal so'zlar qadimdan qo'llanib kelmoqda. Fikrimizni "Devoni lug'otut turk" orqali dalillay olamiz. E'tiborli tomoni shundaki, devonda keltirilgan ayrim so'zlar undov ham, taqlid ham bo'lib kelishi ko'rsatilganiga guvoh bo'lamiz. Bu esa ularning bir turkum doirasida o'rganilganiga shu kabi misollarning mavjudligi ham asos yaratgan bo'lishi mumkin degan qarashga olib keladi. Masalan:

kurt-kurt – undov so'z;

kurt-kurt, kirt-kirt – taqlid soʻz. I, 329-1; ar.287-9 (“Devoni lugʻotut turk” lugʻat, 1967; 175);

chir – undov soʻz.

shir-shir – taqlid soʻz. I, 313-5; ar. 271-17 (“Devoni lugʻotut turk” lugʻat, 1967; 329);

chirt (chirt) – undov soʻz;

chirt – taqlid soʻz. I, 328-11; ar. 286-15 (“Devoni lugʻotut turk” lugʻat, 1967; 329);

shar-shar – undov soʻz;

shar-shar – taqlid soʻz. I, 313-21; ar. 272-13 (“Devoni lugʻotut turk” lugʻat, 1967; 338).

Umuman aytganda, undov va taqlid soʻzlar goh “Undov va taqlidlar” deya bir mavzu ostida umumlashtiriladi, baʼzan esa alohida soʻz turkumlari sifatida qayd qilinadi.

Oʻzbek va ingliz tillaridagi taqlid soʻzlar toʻgʻrisidagi nazariy ishlarni koʻzdan kechirarkanmiz, har ikki tilda ham taqlidlarining morfologik sathdagi oʻrni omonat ekanligiga guvoh boʻlamiz – taqlidiy soʻzlarni morfologik kategoriyalash muammosi har ikki tomon tilshunolarini ham oʻylantiradi. Oʻzbek tilida mustaqil yoki nomustaqil soʻzlardan ajratilib, oraliq turkum yoki “tasviriy ifodalalar” turkumiga kiritilgan taqlidiy soʻzlar, ingliz tilida hali hanuz undovlarga oid deya turkumlanadi. Xususan, olimlar V.Gumboldt [4], V.Vundt [5] va M.Myuller [6] taqlidlarini alohida turkum sifatida kategoriyalashdan tiyilishadi, ular taqlidiy ifodalarning reflektor undovlar sirasiga mansubligini eʼtirof etishadi.

Keyingi yillarda taqlid soʻzlarni undovlardan ajratib, alohida soʻz turkumi deb qaralishi, ularni obrazga taqlid va tovushga taqlid sifatida klassifikatsiya qilish mumkinligini koʻrsatmoqda. Binobarin, taqlid soʻzlarni ikkiga boʻlib oʻrganish mumkin:

Birinchisi – leksik onomatopeya. U taqlid soʻzlardan iborat. Ular til tizimidagi taqillatish, yorilish, gumburlash bilan bogʻliq soʻzlarni talaffuzda ramziy maʼnoda ifodalab keladi.

Ikkinchisi – leksik boʻlmagan onomatopeya. Ular taqlidiy soʻzlardan emas, balki tovushlar guruhidan iborat boʻladi.

Xuddi shunday undov soʻzlar ham koʻrinishi jihatidan ikkiga boʻlinadi:

Birinchisi – leksik boʻlmagan undovlar. Ular faqat tovush yoki tovushlar birikmasidan tashkil topadi. Bunday undovlar his-hayajon, buyruq-xitob kabilarni ifodalash uchun ishlatiladigan tovush yoki tovush birikmalaridir. Demak, ular koʻrinishi jihatidan taqlid soʻzlarga oʻxshasa-da, mazmuni boshqaligi bilan ajralib turadi.

#### Jadval 1.

Undov va taqlid soʻzlarning oʻzaro yaqin, oʻxshash tomonlari

1. Taqlid soʻzlar va undovlar harakat obrazi, tovush va emotsiyaning nomini koʻrsatmaydi, balki ularning bevosita ifodalanishi hisoblanadi.
2. Undov va taqlid soʻzlar ism sifatida qabul qilinadi.
3. Har ikki kategoriyada ham nominativlik xarakterining yoʻqligi ularni boshqa kategoriyalardan, turkumlardan ajratib turadi.
4. Oʻxshash affektiv boʻyoqqa, ekspressivlikka ega.
5. Tovush yoki boʻgʻinlar bilan ifoda etiladigan undov va taqlid soʻzlar har bir xalqning umumiy artikulyatsion til imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Ular tovushga, obrazga, holatga taqliddan hosil boʻladi.
6. Undov va taqlid soʻzlar tuzilishida koʻpincha choʻziq unililar uchraydi.

#### Jadval 2.

Undov va taqlid soʻzlarning oʻzaro farqli tomonlari

Undov soʻzlar  
Undovlar semantik jihatdan soʻzlovchining koʻproq ichki kechinmasini, his-hayajonini, buyruq, xitob va iltimosini bildiradi.  
Undov soʻzlar uchun emotsionallik, buyruq, iltimos kabilarni xos.  
Undovlar nutqda modal maʼno ifodalab, bu xususiyati bilan yuklamalar hamda modal soʻzlarga yaqin turadi.  
Undovlarda substantivlashish xususiyati taraqqiy etmagan.  
Undovlarda takror koʻproq emotsionallikni oshiradi, his-hayajonni kuchli qilib beradi.  
Undovlarda soʻz yasash hodisasi deyarli yoʻq, faol emas.  
Oʻzbek tilida undovlar faqat demoq yordamchi feʼli bilan birika oladi.  
Undovlar odatda gapning boshqa boʻlaklari bilan bogʻlanmay, mustaqil gap boʻlib keladi.  
Undov soʻzlarni maʼlum bir formulaga solish qiyin.

Taqlid soʻzlar  
Taqlid soʻzlar esa semantik jihatdan kishilar va boshqa predmetlarning tovushlari va harakatlarini nusxalaganday tovush yoki harakat obrazi sifatida ifodalaydi.  
Taqlid soʻzlar uchun emotsionallik, buyruq, iltimos xos emas.

Taqlid soʻzlar predmetning harakatini va tovushga taqlidini bildirib, ravish va sifatlarga yaqin turadi, ular uchun modalik xos emas.  
Taqlid soʻzlarda substantivlashish kuchli.

Taqlid soʻzlarda takroriy forma tovush yoki harakatni kuchaytirishdan tashqari, harakatning birdan ortiq boʻlganligini, davomlilikini ham bildiradi.  
Taqlid soʻzlar soʻz yasash tizimida juda faol qatnashadi.

Taqlid soʻzlar esa, etmoq, demoq baʼzan kulmoq hamda boshqa mustaqil feʼllar bilan ham birika oladi.  
Taqlid soʻzlar gapning mustaqil boʻlaklari (ega, kesim, aniqlovchi, toʻldiruvchi, hol) vazifasida keladi.  
Taqlid soʻzlarni maʼlum bir formulaga solish mumkin (undosh+unli+undosh yoki undosh+unli+undosh+undosh).

Ikkinchisi – leksik undovlar. Soʻz koʻrinishidagi undovlardir.

A.Baskakov taqlid soʻzlar va undovlarni, ham semantik, ham forma jihatdan bir kategoriyaga birlashtirish kerak, deb hisoblaydi. U taqlid soʻzlarni semantik tomondan ikki guruhga:

1. Tovushga taqlid soʻzlar.

2. Obrazga taqlid soʻzlarga ajratadi hamda ularga xos xususiyatlarni alohida-alohida koʻrsatadi. Olim taqlid soʻzlarning grammatik-funksional xususiyatlariga koʻproq ahamiyat beradi [7].

Modal soʻzlar faqat soʻz yoki birikma koʻrinishida uchraydi, uning leksik boʻlmagan (tovush) koʻrinishi mavjud emas.

Baʼzan kishi soʻzlovchiga oʻz emotsional munosabatini bildirishda turli jestlar, tana harakatlari, turish yoki yurishlarda ifodalashi mumkin: 1) sevgi, baxt; 2) hayronlik; 3) qoʻrquv, azob; 4) nafrat; 5) gʻazab; 6) laʼnat kabilarni. Mana shu jihat ham undov va taqlidlarining oʻzaro birlashtirilishiga sabab boʻlgan, deyish mumkin.

Ekspressiv javoblar, birinchi navbatda, mimik ifodalar yordamida muayyan maqsadni ifodalash uchun xizmat qiladi. Mimik ifoda vositalari biologik (lab burish, qosh uchirish) yoki individual (muayyan individ odati) shakllarda boʻlishi mumkin. Mimikalar yordamida emotsiyaning ifodalanishi biologik jarayon hisoblanib, soʻzlovchining yoki tinglovchining xarakterini, ifodalanayotgan fikrga u yoki bu jihatdan munosabati (gʻazab, nafrat, qoʻrquv, shodlik, hayrat...)ni ifodalaydi. Chunki mimik harakatlar orqali emotsionallikka ega boʻlgan soʻzlarning nutqiy vaziyatdagi reallashuvi, tinglovchiga taʼsir etish xususiyati yanada ortadi.

Oʻzbek tilshunosligida morfologik sathda taqlidlar nisbatan mustahkam oʻringa egaligi sababli alohida soʻz turkumi sifatida koʻrsatiladi [8]. Ingliz tilida esa taqlidlar koʻproq undovlik xakteri sabab interjection (undov) deya ataladi.

Baʼzan tasvir yoki obrazga taqlid qiluvchi onomatopik birliklar asosida undovlar kelib chiqqani kuzatiladi. Masalan, “haqiqiy taqlid”dan iborat boʻlgan, masalan, sigirning tovushi boʻlgan “moʻoʻo” tovushlar birikmasini qayta takrorlash orqali uning “oʻmini egallab”, taqlid soʻz hosil qilinsa, uni “moʻh-moʻh” deb sigirni chaqirish uchun qayta takrorlab ishlatilsa, buyruq-xitob undovi paydo boʻladi. Shundan onomatopeya faqat tovushning oʻziga qaratilgani anglashiladi.

Biroq undov va taqlid soʻzlar oʻrtasida quyidagi bir-biriga yaqin, oʻxshash hamda farqli xususiyatlar mavjudligini qayd qilish mumkin:

Ko'rinadiki, undov va taqlid so'zlar alohida so'z turkumlaridan biridir.

Taqlid so'zlarining so'z turkumlari tizimida o'z o'rni, lug'aviy-morfologik-sintaktik tabiati keyinchalik tan olindi. Ungacha taqlid so'zlar o'zi kabi alohida xususiyatga ega bo'lgan undov so'zlar doirasida tadqiq qilingan. O'zbek tilshunosligida taqlid so'zlarining undov so'zlar tarkibida tadqiq qilinishi XX asr yarmigacha davom etgan.

L.N.Xaritonov turkologiyada birinchi bo'lib taqlid so'zlarni alohida so'z turkumi sifatida ajratadi. O'z izlanishlarida taqlid so'zlar boshlang'ich holatda hech qanday affiks olmasligini, ammo ayrim farqlovchi elementlar qo'shilishi bilan ularning strukturasi o'zgarish yuz berishi haqida fikrlaydi. Shuningdek, olim yoqut tilidagi fe'llarni uch guruhga:

1. Harakat-holat.

2. Tovushga taqlid.

3. Obrazli fe'llarga bo'ladi hamda taqlid va obrazli fe'llarning tur ma'nosini anglatishdagi xususiyatlarini o'rganadi [9].

Rus olimi A.I.Germa'novich rus tilshunosligida ilk marotaba taqlid so'zlarni maxsus o'rgandi [10]. P.G.Strelkov taqlid so'zlarni undovlarning bir turi deb qaraydi [11].

A.Is'hoqov qozoq tilida taqlid so'zlarining leksik va grammatik xususiyatlarini hisobga olib, ularni alohida so'z turkumiga ajratish kerakligini ta'kidlaydi. Shuningdek, olim taqlid so'zlarining og'zaki nutqda, badiiy adabiyotda tutgan o'rni, stilistik hamda fonetik xususiyatlariga alohida ahamiyat beradi. Tars-tarsni tars-tursga o'zgartirish bilanoq, ularning ma'nosida yangi ottenka paydo bo'ladi degan fikrni ilgari suradi [12].

A.Sariboyev ham qozoq tilida taqlid so'zlarining undovlarga munosabati masalasiga ko'proq ahamiyat beradi [13].

Qirg'iz tilshunosi S.Kudayberganov ko'p yillik izlanishlari asosida qirg'iz tili taqlid so'zlarining leksik-semantik, fonetik, morfologik, sintaktik xususiyatlarini misollar asosida bayon qiladi [14]. B.M.Yunusaliyev esa qirg'iz tilida taqlid so'zlarining kelib chiqishi, o'zgarishi, negizning taraqqiyoti, ma'nolari, ularning morfologik va semantik xususiyatlarini o'rganib, taqlid so'zlar ham ot va fe'llar kabi tilning qadimgi birliklaridir, degan xulosaga keladi [15]. Uning fikricha, obrazli so'zlar tovushga taqlid so'zlarga nisbatan ot va fe'llarga yaqin turadi, tovushga taqlid so'zlardan keskin farq qiladi. U obrazli so'zlarni alohida kategoriya sifatida qaralishi kerak, deb hisoblaydi.

O'zbek tilida undov va modal so'zlar qachonki otlashsa, biror gap bo'lari vazifasida keladi, ammo taqlid so'zlar otlashmay turib ham mustaqil holatda sintaktik vazifa bajaraveradi. Masalan:

Qiz daraxtni silkitgan edi, olmalar duv-duv to'kildi (Duv-duv taqlid so'zi hol vazifasida harakatning belgisini izohlab kelmoqda).

Yoki:

G'uj-g'uj chumolilar uyumi yer ostidan otilib chiqa boshladi (G'uj-g'uj taqlid so'zi sifatlovchi aniqlovchi vazifasida predmetning miqdor belgisini ifodalab kelmoqda).

**Xulosa.** Shu kabi holatlar sabab o'zbek tilshunosligida taqlidiy so'zlar mustaqil so'z turkumi sirasida ham qayd etilgan. Undov va taqlidiy so'zlar tabiatdagi tovushlar va tasvirlardan ta'sirlanish natijasida paydo bo'lishi jihatidan o'xshashi tufayli sistem-struktur jihatdan ba'zan qorishtirib yuborilgan. Ammo ular alohida kategoriyalar bo'lib, asosiy farqi semantik tabiati, grammatik asosi, gapda otlashmay turib mustaqil sintaktik vazifada kelishida ko'rinadi. Undovlar nutqda modal ma'no ifodalashi yuklamalar va modal so'zlarga yaqin turadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Кўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Ташкент: Фан, 1966. – Б.28.
2. Якушин Б.В. Гипотезы о происхождении языка. – Москва: Наука, 1985. – С.30-35.
3. Дмитриев Н.К. О парных словосочетаниях в башкирском языке. – Л., 1930. – С.501-522; Грамматика кумыкского языка. – Москва, – Л., 1940. – С.48-50; Этимология слова «лакирди». – Л., 1926.
4. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию – Москва: Прогресс, 1984.// <https://www.twirpx.com/file/435250/>
5. Вундт В. Проблемы психологии народов (электронный ресурс – [http://www.gumer.info/bibliotek\\_Buks/Sociolog/Wundt/\\_PsNar\\_02.php](http://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Sociolog/Wundt/_PsNar_02.php) (дата обращения 20.05.2016).
6. Мюллер М. Лекции по науке о языке. – Москва, 2009.// <https://www.twirpx.com/file/1696252/>
7. Баскаков Н.А. Каракалпакский язык. II, фонетика и морфология, часть первая. – Москва, 1954. – С. 239-259.
8. Шоабдурахмонов Ш. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
9. Харитонов Л.Н. Современный якутский язык. – Якутск, 1947. – С.43; Неизменяемые слова в якутском языке. – Якутск, 1943. – С.56-69; Типы глагольной основы в якутском языке. – Москва, 1954.
10. Германович А.И. Звукоподражание и звукоподражательные слова русского языка. Том XII. – Симферополь, 1947.
Nutq fe'llari. Fe'llarning ushbu LSGi keng qo'llaniladi va aloqa jarayonida asosiy rol o'ynaydi. U ikkita kichik guruhga bo'lingan: Nutqning asosiy fe'llari, ya'ni sof so'zlash harakatini bildiruvchi ma'noli fe'llar: ba'zilar nutqning tabiati yoki usulini belgilaydi, boshqalari gap shakliga urg'u berib, nutq obyektini nomlaydi. Birinchi LS kichik guruh tarkibiga quyidagilar kiradi: turkchada "–demek", "–söylemek"; o'zbek tilida "–demoq", "–so'zlamok" kabilar. Ikkinchi LS kichik guruhga quyidagilar kiradi: turkchada "–chaqirmak - chaqirmoq, baqirmak - baqirmoq, fisildamak - pichirlamoq - O'zbek tilida: Chaqirmoq, baqirmoq, pichirlamoq.

Hissiy idrok fe'llari. Bu fe'llarning asosiy farqlovchi xususiyati shundaki, ular sub'ekt tomonidan faol harakatni emas, balki sub'ekt tomonidan bildirilgan hissiy idrokni bildiradi. Sema bo'yicha hissiy idrok fe'llari quyidagi LSKichikguruhga bo'linadi: 1) Vizual (ko'ruv) idrok fe'llarini; Bularga quyidagilar kiradi: Turkchada görmek – ko'rmoq, bakmak – qaramoq (boqmoq) va boshqalar. 2) eshitish idroki fe'llari; Ushbu tur fe'llarining turkiy tillarda soni kam. Bularga quyidagilar kiradi: turkcha dinlemek, duymak – "tinglamoq, eshitmoq, bilmok"; Hid fe'llari; Turkcha koklamak – hidlamoq.

Hissiy holat (kayfiyat) fe'llari. Bu LSG tarkibiga kirgan fe'llar shaxsning turli emotsional holatlarini bildiradi. Umumlashtirishga ko'ra, ular quyidagi LS kichikguruhga guruhlangan: 1) predmetning tushkun holatini bildiruvchi fe'llar: küsmek, özlemek – ranjimoq, sog'inmoq. 2) Kishining ruhiy holatini va uning hissiy tajribasini bildiruvchi fe'llar: hoşlanmak, eğlenmek – yoqimli narsalarni qabul qilish, zavqlanish. 3) biror narsaning kuchli taassurotidan kelib chiqqan holatni bildiruvchi fe'llar; ağlamak, gülmek yig'lamoq, kulmoq.

Bunday tadqiqotlar uchun yakuniy natija ularning dastlabki qiymatlarini keyingi rivojlanishda o'rnatishdir. Dissertatsiyada asosan o'zak va sintetik fe'llar tahlil qilinadi. Tahlilga jalb qilingan fe'llarning aksariyati turkiy tillar lug'at tarkibining qadimgi qatlamiga mansub. Ularning qiyosiy tarixiy tahlili turkiy til lug'atini chuqur o'rganish uchun ma'lum ahamiyatga ega. Umumiy lug'atning tarixiy asosi boshqa tillardagi kabi alohida so'zlarning tarixidan iborat. Bu rivojlanish tarixi o'zining qolipi bilan barcha tillarda bir xil. Bu yerda yangi so'zlarning hosil bo'lishi, qo'llanish jarayonida yangi ma'nolarni egallashi o'rganiladi. So'zlarning alohida LSGlarini tahlil qilish, strukturaviy va semantik tekisliklardagi umumiylikni topish va keyin bu qoliplarni umumiy lug'atga qo'llash qonuniydir.

Nutq fe'llari. Hozirgi turkiy tillardagi pastki fe'lning asosiy ma'nosi: sub'ekt tomonidan talaffuz qilinadigan alohida so'z va iboralarning "gapirmoq va aytmoq" tarzida ifodalanishi. Bu "ism berish, nomlash" degan ma'noni ham anglatishi mumkin. Aytmoq fe'li hozirgi turk tilidan tashqari deyarli barcha turkiy tillarda eng tipik nutq fe'lidir. Tarixiy jihatdan "aytmoq – so'zlamok" o'zagi va majburlash affiksiga bo'linadi. – Ayt fe'lining majburiy shakli yozma yodgorliklarda turli ma'nolarda keng qo'llaniladi; "Ruxsat bering (so'rang, bering, majburlang), gapiring (ayting, talaffuz qiling)"; "so'ramok"; «isbot qilmoq, ko'rsatmoq».

– Söyle fe'li "talaffuz qilmoq, so'z aytmoq" kabi tarjima qilinib, qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda "gapirmoq, aytmoq" ma'nosida uchraydi. Qator turkologlarning fikricha "g'apirmoq, gapurmoq" fe'lining o'zagi forscha "gap" so'zi bilan bog'langan (Radlov V.V., Dmitriev N.K., Sevortyan E.V.) So'ramok, s'rash - "so'rash" fe'li ikki subhatdoshning nutqini bildiradi. So'ramok fe'lining shakli qadimiy: bir qator turkiy tillarda sormak, sorushmak shaklida uchraydi.

Turk tilida konushmak - "gaplashmoq, gapirmoq" fe'li bor. Bu fe'l "kon" o'zak va affiksiga bo'linadi. Kon - "o'tirmoq, pastga tushmoq; o'tirmoq". Konush fe'lining

ma'nolarining rivojlanish yo'li shunday ko'rinadi: "to'xtamoq, yashash uchun joylashmoq, yashamoq". O'zbek tilida "tilga kirmoq" fe'li – jim turgandan keyin so'zlashni boshlash ma'nosini beradi. Grammatik jihatdan: til/dil o'zakka –kirmoq fe'li qo'shiladi. (biror hodisani boshlamoq, ishga kirishmoq, boshlamoq) Bu nutq fe'li deyarli barcha qipchoq tillarida saqlanib qolgan.

Tillashmoq – "kelishmoq, suhbat yoki suhbat boshlamoq" ma'nolarini leksiklashtirilgan. istamoq/xohlamoq fe'li -ista - o'zak va -moq affiksi – infinitiv shaklga bo'linadi. Bu "–istemek" fe'li turk tilida ham saqlanib qolgan bo'lib, istash, xohlash ma'nosini bildiradi. Ushbu ilmiy maqolada nutq fe'llarining tarkibiy va semantik tahlili berilgan. Ushbu LSGlarga kiritilgan ko'p sonli fe'llar tahlil qilinadi. Bu LSGlar fe'llarining mutlaq ko'pchiligi ancha shaffof tuzilishga ega bo'lib, fe'l yasovchi affiksalar yordamida tuzilgan va turkiy tillar lug'atining qadimgi qatlamiga kirgan. Dissertatsiya shuningdek, hissiy fe'llarining valentlik tahlilini o'z ichiga oladi: xafagarchilik, haqorat, azob-uqubatlar, bahtsizliklar natijasida yuzaga kelgan noxush tuyg'uni bildiruvchi nutq fe'llari fe'llari (so'kmoq, dodlamoq, faryod chekmoq); Turkologiyada fe'l semantikasi fe'lning leksik-semantik sinflari va fe'lning grammatik kategoriyalari jihatidan o'rganilgan:

1. Fe'llarni asosiy semantik turkum va turkum turkumlariga ajratishda, avvalo, denotativ tamoyilga tayanish kerak. Denotativ yondashishda, eng avvalo, til tuzilishida aks etgan predmetlar, xususiyatlar, harakatlar, jarayonlar, hodisalar, holatlarning tabiiy ontologik bo'linishi hisobga olinadi. So'zlarning semantik sinflarining bunday tasnifi so'zlarning dolzarb lingvistik tamoyillarini hisobga olgan holda turli xil rasmiylashtirilgan usullar va usullardan foydalangan holda aniqlangan. Ko'p ma'noli fe'llarni semantik jihatdan tasniflashda ularning umumiy, asosiy, to'g'ridan to'g'ri, ma'nosidan kelib chiqish kerak.

2. Qator LSGga oid fe'llarining strukturaviy-semantik rivojlanishi tahlili shuni ko'rsatdiki, ko'rib chiqilayotgan fe'llar umumiy turkiy yoki aksariyat turkiy tillar uchun umumiydir. Ular kichik fonetik o'zgarishlarga uchragan. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda ular hozirgi turkiy tillardagi kabi deyarli bir xil shaklda qayd etilgan. Grammatik nuqtai nazardan, ko'pchilik fe'llarning asosiy ma'nolari turg'un (ular kichik o'zgarishlarga uchragan).

3. Ayrim turkiy tillar fe'llari valentlik jihatidan jiddiy farqlarga ega emas, chunki turkiy tillardagi fe'llarning aksariyati bir xil bo'lib, bu ularning semantik tuzilishida o'z aksini topadi. Ayrim fe'llarning sintaktik valentligida, ehtimol, boshqa tillarning ta'siridan kelib chiqqan holda, faqat alohida holatlar mavjud.

#### ADABIYOTLAR

1. Sh.Shukurov "Fe'l tarixidan" Toshkent – 1970
2. Muhayyo Hakimova "Semasiologiya" Toshkent – 2008
3. A.Hojiyev "O'zbek tilida ko'makchi fe'llar" Toshkent – 1966
4. Sh.Shukurov "O'zbek tilida fe'l mayllari taraqqiyoti" Toshkent – 1980
5. Yo.Tojiyev "O'zbek tili morfemikasi" Toshkent – 1992
6. G'Abdurahmonov "Sintaksis" I-II jild Toshkent – 1976
7. B.Mengliyev "Ona tili" Qomus. Toshkent – 2009
8. H.Yusupxo'jayeva "O'zbek tili izohli lug'atida fe'llarning ishlanishi" Toshkent – 1988 "FAN"
9. M.Sodiqova "Fe'l stilistikasi" Toshkent – 1975
10. В.В. Радлов «Образцы народной литературы северных тюркских племен» 1904
11. Н.К. Дмитриев «Турецкий язык» Москва – 1960
12. Казем-бек, мирза Александр Касимович «Грамматика турецко-татарского языка.» Казань, 1839
13. Muharrem Ergin "Türk dili" Ankara 1986-2002
14. Tahsin Banguoğlu "Türkçenin grameri" 1974
15. Türk Dili ve Edebiyatı - Edebiyat ve Türkçe Dersleri Kaynak Eğitim Sitesi (turkedebiyati.org)
16. <https://search.rsl.ru/>
17. Добро пожаловать в Open Library | Open Library

*Javohir NUSRATOV,*  
Teacher of Karshi State University

Based on the review of PhD M. Nizomova

## TYPES AND METHODS OF TRANSLATION

### Annotation

In the modern world, there are three types of translation: human translation, machine translation, and post-edited translation. Semantic translation, This method most closely reproduces the original text in a foreign language, while maintaining context and culture. At the same time, semantic translation puts greater emphasis on the aesthetic value of the source text, is more flexible, and gives the translator more freedom for creativity.

**Key words:** Types of Translation, Methods of Translation, discuss, process of translation, the original text, foreign language;

## ВИДЫ И СПОСОБЫ ПЕРЕВОДА

### Аннотация

В современном мире существует три типа перевода: человеческий перевод, машинный перевод и постредактированный перевод. Семантический перевод. Этот метод наиболее точно воспроизводит исходный текст на иностранном языке, сохраняя при этом контекст и культуру. В то же время смысловой перевод делает больший акцент на эстетической ценности исходного текста, более гибок и дает переводчику больше свободы для творчества.

**Ключевые слова:** Виды перевода, Методы перевода, обсуждение, процесс перевода, оригинальный текст, иностранный язык;

## TARJIMA TURLARI VA USULLARI

### Аннотация

Zamonaviy dunyoda tarjimaning uch turi mavjud: inson tarjimasi, mashina tarjimasi va tahrirdan keyingi tarjima. Semantik tarjima, Bu usul kontekst va madaniyatni saqlab qolgan holda asl matnni chet tilida eng yaqindan takrorlaydi. Shu bilan birga, semantik tarjima asl matnning estetik qiymatiga ko'proq e'tibor beradi, moslashuvchan bo'ladi va tarjimonga ijod uchun ko'proq erkinlik beradi.

**Kalit so'zlar:** Tarjima turlari, Tarjima usullari, muhokama qilish, tarjima jarayoni, asl matn, chet tili;

Before we discuss types of translation, a distinction should be first made between translation methods and translation procedures or techniques. 'While translation methods relate to whole texts, translation procedures are used for sentences and the smaller units of language' (Newmark 1988a: 81).

The question whether a translation should be literal or free is as old as translation itself. The argument in favour of the spirit and sense as against the letter or the word has been going on at least from the beginning of the first century B.C. The view that translation was impossible gained popularity when the cultural anthropologists suggested that language was culture bound. Walter Benjamin and Valdimir Nabokov who were considered the 'literalists' concluded that a translation must be as literal as possible. But in their argument the purpose of translation, the nature of readership, the type of text were not discussed. Though several methods have been suggested for translation it is quite evident that a substantially good translation cannot be produced by holding fast to any one of those methods.

During the process of translation, depending on the type of the source language text, the translator resorts to the combination of these different methods.

Some of the methods mentioned by Peter Newmark, in his 'A Textbook of Translation' and other scholars are: word-for-word translation, literal translation, faithful translation, communicative translation, semantic translation, adaptation and free translation. These will be explained below with examples illustrating each type.

#### 1) Word-for-word translation

This type of translation keeps the SL word order; words are translated out of context according to their most common meaning. Such kind of translation can be used as a preliminary translation step but it is not applied in real translation tasks. The following lines are from The Secret Sharer by Joseph Conrad with their translation into Arabic following the word-for-word method.

- That child is intelligent.

- That child is intelligent.

This method or type of translation takes the meaning of each word in isolation regardless of differences between both Arabic and English in grammar, word order, context, and special usage. Moreover, this translation focuses on the source language and the target should follow it step by step. Hence, it seems a very easy way to translate and it is common between students. However, this method is very risky because it does not consider the target language and relies on the source language only. In addition, it does not take account of the grammars of both languages, namely when these two languages descend from two very different families such as English which is an Indo-European West Germanic language and Arabic which is a Semitic language. Furthermore, this method does not take both languages word order into account. This method also neglects the context which is very important to understand the meaning of a given sentence. Likewise, it ignores the metaphorical use of words which represents the culture of language. Finally, this method cannot find equivalents which do not exist in the target language. So, example (a) above can be corrected as:

#### 2) Literal translation

This type of translation preserves the grammatical structures of the SL where they are translated into their nearest TL equivalents. It takes place when the SL and TL share parallel structures. Words are translated out of context paying no attention to their connotative meanings. The following examples illustrate this point.

1) Let us shake hands.

2) She decided to throw the baby with the bath water and close the shop forever because she lost few pounds.

3) I am afraid I lost all saved data. We are back to square one.

4) Hold your horses; we still have plenty of time.

This method of translation resembles the first one (word-for-word translation)

in two main aspects:

(a) It considers the source language word order.  
 (b) It emphasizes on having the same kind and number of words.

However, it differentiates from it in two points:

(a) It does not neglect context.

(b) It finds metaphorical equivalents in the target language for metaphorical words in the source language.

So, this method of literal translation is much more acceptable than the first method which insists on having a word for word translation. As a result, example (1) above can be corrected into or simply, because the verb

Includes "hands" and this action cannot be done except through hands.

### 3) Faithful translation

This method maintains a balance between the literal meaning of the SL word and the TL syntactic structures. A faithful translation attempts to reproduce the precise contextual meaning of the original within the constraints of the target language grammatical structures. It 'transfers' cultural words and preserves the degree of grammatical and lexical 'abnormality' (deviation from the source language norms) in the translation. It attempts to be completely faithful to the intentions and the text realization of the source language writer. It sounds more reasonable as it takes the context into consideration, aiming at producing more precise meaning of the SL texts.

'You see things; and you say, "Why?" But I dream things that never were; and I say,

"Why not?" It can be faithfully translated as:

### 4) Communicative translation

This type of translation attempts to render the exact contextual meaning of the original text in such a way that both content and language are readily acceptable and comprehensible to the reader. It is particularly suitable when translating conventional formulae or proverbs and it involves some levels of cultural approximation. Communicative translation aspires to create the same effect created by the SL text on the TL reader. Though it is not as accurate as semantic translation which sticks to the original text, it communicates the meaning at the expense of accuracy. However, it is preferred by many translators because it resorts to concepts that are more familiar to the TL reader on cultural and social levels. It is usually used for culturally specific idioms, proverbs or clichés where the translator replaces a SL word or concept with one that already exists in the TL.

Communicative translation concentrates on the message and the main force of the text, tends to be simple, clear and brief, and is always written in a natural and resourceful style (Newmark (1988: 48). For some linguists, communicative translation 'is produced, when, in a given situation, the ST uses a SL expression standard for that situation, and the TT uses a TL expression standard for an equivalent target culture situation' (Dickins et al. 2005: 17). Study the following examples:

Charity begins at home.

Diamonds cut diamonds.

Therefore, Communicative translation attempts to produce on its readers an effect as close as possible to that obtained on the readers of the original.

### 5) Semantic translation :

Semantic translation attempts to render, as closely as allow, the exact contextual meaning of the original (Newmark 1982: 39).

Semantic translation aims at replicating the original texts' forms within the target language, reproducing the original context, and retaining the characters of the SL culture in the translation. A semantic translation is more source text

focused. Although, not necessarily a literal translation, it follows the source text more closely.

In contrast, communicative translation centres on the specific language and culture and focuses on the TL readers. The translation under this method is clear, smooth and concise. A communicative translation is focused on the target text and aims to ensure that the reader will understand the message of the text.

Semantic translation, on the other hand, differs from 'faithful translation' only in as far as it must take more account of the aesthetic value of the source language text, compromising on the 'meaning' where appropriate so that no assonance, word-play or repetition jars in the finished version. Further, it may translate less important cultural words by culturally neutral third or functional terms but not by cultural equivalents. Thus, the distinction between 'faithful' and 'semantic' translation is that the first is uncompromising and dogmatic, while the second is more flexible admits the creative exception to 100% fidelity and allows for the translator's intuitive empathy with the original text.

### 6) Adaptation

Adaptation means the modification of the idea in the source language (SL) so as to find an acceptable one in the target language (TL). It is necessary when something specific to one language culture is expressed in a totally different way that is familiar or appropriate to another language culture. It is a shift in cultural environment. In other words, adaptation is a kind of rewriting of the ST to make it conforms to the rules of the language and especially the culture of the TL community. It is considered as the freest form of translation and is used mainly for plays (comedies) and poetry; the themes, characters and plots are usually preserved, the SL culture is converted to the TL culture and the text is rewritten.

For example, translating the title of Hemingway's masterpiece *The Old Man and the Sea* into

Arabic like: *(The Sheikh and the Sea)* rather than the literal conversion: while the former term (sheikh) in Arabic indicates to many dimensions of the protagonist Santiago, the old man, such as experience, faith, determination and backbone, the latter, (old) does not cover all these dimensions but refers only to old age. In addition, the translation of metaphors, proverbs, etc. also frequently involve this technique. For instance, "A camel" may be culturally a translation equivalent of "a horse" and vice versa. In this way, the procedure of adaptation aims at achieving an 'equivalence' of situations by considering a similar context in the TL whenever a cultural gap between ST and TT defies comprehension. Thus adaptation can be considered an instance of equivalence at the level of context.

### 7) Free translation

This method preserves the meaning of the original but uses natural forms of the TL, including normal word order and syntax, so that the translation can be naturally understood. It preserves the content at the expense of the form, and it provides a longer paraphrase of the original. It is a form of idiomatic translation that favours colloquialisms and idioms which do not exist in the SL. The following is a part of *Cinderella* and its translation into Arabic: *Cinderella had a wonderful time at the ball until she heard the first stroke of midnight! She remembered what the fairy had said, and without a word of goodbye she slipped from the Prince's arms and ran down the steps. As she ran she lost one of her slippers, but not for a moment did she dream of stopping to pick it up! If the last stroke of midnight were to sound ... oh ... what a disaster that would be! Out she fled and vanished into the night.*

Notice that we have longer expressions in the TL. For example, 'a wonderful time'

is translated into..... Colloquial expressions are also used as illustrated in the following examples.

Without a word of goodbye:

What a disaster would that be!

In other words, this type of translation focuses on translating freely because the translator is not limited to the text or context or the denotative meaning of a word or a phrase, but goes beyond words and phrases and out of texts and outside contexts. So, the only restriction depends on the translator's comprehension.

Free translation has subtypes mainly:

a) Bound Free Translation:

We derive this type of free translation from the context directly even if it exceeds it in some ways, merely the way of expressing, exaggeration and emphatic language. Consider the following examples (Ghazala, 1995: 14):

1- He got nothing at the end.

2- East or west, home is best

3- She had a new baby

b) Loose Free Translation

This type of translation is not directly related to the original, yet it is a conclusion which the translator can infer for different personal reasons, as these examples show:

- "Thank you Mr. Wilson. Next please".

- "It is half past nine".

- "Thank you, thank you ladies and gentlemen"

Consider the different translations for the following sentence. They range from literal to free translations.

Literal: The likes of these things have much demand now.

Faithful: Things like these are in great demand now.

Semantic: This kind of thing's in great demand at the moment.

Free: This one's dead trendy.

Commenting on these methods, It should be first said that only semantic and communicative translation fulfil the two main aims of translation, which are first, accuracy, and second, economy. (A semantic translation is more likely to be economical than a communicative translation, unless, for the latter, the text is poorly written. In general, a semantic translation is written at the author's linguistic level a communicative at the readership's. Semantic translation is

used for 'expressive' texts, communicative for 'informative' and 'vocative' texts. Semantic and communicative translation treat the following items similarly: stock and dead metaphors, normal collocations, technical Terms, slang, colloquialisms, standard notices, phaticisms, ordinary language. The expressive components of 'expressive' texts (unusual syntactic structures, collocations, metaphors, words peculiarly used, neologisms) are rendered closely, if not literally, but where they appear in informative and vocative texts, they are normalised or toned down (except in striking advertisements Cultural components tend to be transferred intact in expressive texts; transferred and explained with culturally neutral terms in informative texts; replaced by cultural equivalents in vocative texts. Badly and/or inaccurately written passages must remain so in translation if they are 'expressive', although the translator should comment on any mistakes of factual or moral truth, if appropriate. Badly and/or inaccurately written passages should be 'corrected' in communicative translation, I refer to 'expressive' as Sacred texts; 'informative' and 'vocative', following Jean Delisle, as 'anonymous' since the status of their authors is not important. (There are grey or fuzzy areas in this distinction, as in every aspect of translation.) So much for the detail, but semantic and communicative translation must also be seen as wholes. Semantic translation is personal and individual, follows the thought processes of the author, tends to over-translate, pursues nuances of meaning, yet aims at concision in order to reproduce pragmatic impact. Communicative translation is social, concentrates on the message and the main force of the text, tends to under-translate, to be simple, clear and brief, and is always written in a natural and resourceful style. A semantic translation is normally inferior in its original- as there is both cognitive and pragmatic loss 'Baudelaire's translation of Poe is said to be an exception: a communicative translation is often better than its original. At a pinch, a semantic translation has to interpret, a communicative translation to explain. Theoretically, communicative translation allows the translator no more freedom than semantic translation. In fact, it does, since the translator is serving a putative large and not well defined readership, whilst in semantic translation, he is following a single well defined authority, i.e. the author of the SL. text.

#### REFERENCES

1. Бреус Е.В. Теория и практика перевода с английского языка на русский. - М.: Изд-во УРАО. 2005.
2. Виссон Л. Синхронный перевод с русского языка на английский. М.: Р. Валент, 2005.
3. Виссон Л. Практикум по синхронному переводу с русского языка на английский. М.: Р. Валент, 2006.
4. Фалалеев А, Малофеева А. Упражнения для синхрониста. Камя. СПб.:2017.
5. Фалалеев А, Малофеева А. Упражнения для синхрониста. Ваза династии Мин. СПб.:2016.
6. Гак В.Г. Теория и практика перевода – М., "Добросвет". 2000.
7. Г. В. Чернов, Теория и практика синхронного перевода. Москва, 1978
8. <https://www.stgiles-international.com/student-services/english-grammar-rules-about-proper-nouns>

Sarvinoz RASULOVA,  
TDO TAU o'qituvchisi  
E-mail:sarvina\_ok@mail.ru

Filol.f.d., prof. B.Karimov taqrizi asosida

### “CHORRAHADA QOLGAN ODAMLAR”...

Annotatsiya

Ushbu maqolada barchaning sevimli yozuvchisi Tohir Malikning “Chorrahada qolgan odamlar”, ya’ni “Devona” asarining tahlili keltirilgan. “Devona” fantastik qissa bo‘lib, uning chorrahada qolgan to‘rt qahramonning hayoti hikoya qilinadi. Maqolada ushbu qahramonlarning xarakteri, asarda tutgan o‘rni tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** fantastik qissa, qahramon, xarakter, chorrahada qolganlar, mavzu, g‘oya, ruhiyat tahlili, tarbiya, ziddiyat, odob, detektiv asarlar, ma’rifiy asarlar.

### “ЛЮДИ ЗАСТРЯЛИ НА ПЕРЕПУТКЕ”...

Аннотация

В данной статье представлен анализ всеми любимого писателя Тахира Малика “Люди на распутье”, он же “Безумный”. “Сумасшедший” – это фантазийная история, повествующая о жизни четырех персонажей, оказавшихся на распутье. В статье анализируется характер этих героев, их роль в произведении.

Ключевые слова: художественный рассказ, герой, персонаж, перепутье, тема, идея, психологический анализ, воспитание, конфликт, манеры, детективные произведения, воспитательные произведения.

### “PEOPLE STUCK AT THE CROSSROADS”...

Annotation

This article presents an analysis of everyone’s favorite writer, Tahir Malik’s “People at the Crossroads,” aka “Mad.” “Crazy” is a fantasy story, which tells the lives of four characters who find themselves at a crossroads. The character of these heroes, their role in the work is analyzed in the article.

**Key words:** fictional story, hero, character, crossroads, theme, idea, psychological analysis, education, conflict, manners, detective works, educational works.

**Kirish.** Iste’dodli yozuvchilarning hayoti va ijodi, asarlaridagi obrazlar, ularning ruhiy olami, badiiy asar poetikasi, adib mahorati, uslubini o‘rganish bugungi kunda dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida yaratilgan Tohir Malikning 5 kitobdan iborat bo‘lgan “Shaytanat” asari o‘zbek adabiyotining eng yaxshi namunalari qatoriga kiradi. Syujet rishtasining tarangligi, voqealar ko‘lamining keng va chuqur, murakkab va ziddiyatligi, badiiy salmoqdorligi, qahramonlar miqdorining ko‘p va rang-barangligi, voqea, mazmun va g‘oyasining serqatlamligi, milliylik bilan Tohir Malik asarlari boshqa asarlardan ajralib turadi.

Adabiyot olami nihoyatda rang-barang, badiiy ijod tayyor qoliplarni tan olmaydigan sirli-sehrli hodisa hisoblanadi. Keng ma’nodagi adabiyotni quyidagicha anglash mumkin: “Adab – tarbiyalilik, noziklik, go‘zal qiliq, boshqalar bilan yaxshi ko‘rkmun munosabatda, muomalada bo‘lmoq ma’nolarin ichiga oladir. Mana shu ma’nolari e’tibori ila “adab” so‘zin archabchadan “adabiyot” ravishida ko‘blik (jam’) qilib, hikoya, she‘r, qissa, masallarga atama qilg‘andirlar. Chunki bular odamlarning tabiatiga, fikr va hislariga tarbiyalilik, noziklik va chiroylilik berguvchi narsalardir. Keng ma’nosi ila “adabiyot” degan so‘zdan bir tartib solib so‘ylangan yoki yozilg‘an hamma fikr va tushunchalarni, tuyg‘u va xayollarni anglaymiz” [4].

Tohir Malik ijodi o‘zbek adabiyotiga fantastik, detektiv va ma’rifiy asarlari bilan yangi yo‘nalishlarni olib kirdi. U adabiyotda o‘ziga xos maqomga ega ijodkorlardan. Uning ijodini o‘rganish hozirgi zamon adabiyotining juda muhim masalalarini oydinlashtirish imkonini yaratadi. Yozuvchi merosining maxsus tadqiq etilishi lozim bo‘lgan qirralari bisyor. Chop etilgan asarlarining adadi ham yuqori darajada.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O‘zbek adabiyotida Tohir Malikning ayrim qissalari tahlili U.Normatov, A.Rasulov, A.Ulug‘ov, X.To‘xtaboyev, F.Rajabova, H.Karimov, T.Shermurodov, R.Ibrohimova, R.Sharipova, I.Mirzayev, K.Turdiyeva, S.Mirzayev kabi qator olimlar

yo‘zgan maqolalarda bir qadar o‘z ifodasini topgan. Tohir Malik qissalarining janr poetikasi talqini esa ilmiy va adabiy jamoatchilik e’tiboridan chetda qolmoqda.

O‘zbek ilmiy-badiiy fantastikasi 70-yillarning oxiri – 80-yillarning boshlarida milliy qiyofa kasb eta boshladi. Tohir Malikning “Chorrahada qolgan odamlar”, “Falak”, H.Shayxovning “G‘aroyib ko‘lanka”, “Ajodlar xotirasi”, M.Mahmudovning “Mangu kuy izlab”, “Teskariko‘zlar sayyorasi” singari asarlari jiddiy izlanishlar mevasi sifatida yuzaga keldi. Endilikda ularning har birida voqelikni idrok qilish va ifodalashda, qahramon xarakterini yaratishda, inson ruhiyati kengliklarini anglashda o‘ziga xos fantastik tasvir usullari mavjud. Muhimi, o‘tmish, bugun va kelajakni tavrirlashda, kitobxonni ishontirish mumkin bo‘lgan favqulodda holat va vaziyatlar yaratishda taxayyulot mohiyatini anglaganlar [6].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Fantastikada, asosan, ikki yo‘nalish bor: biri fantastika – ilmiylikka katta ahamiyat berilmaydi. Bir ilmiy g‘oya asosida badiiy asar yaratiladi. Rey Bredberi shu toifadan. Ikkinchi yo‘nalish – “ilmiy-fantastika”, deyiladi, undan ilmiy g‘oyani isbotlashga ko‘proq ahamiyat beriladi. Ayzek Azimov shu toifadan. Do‘stimiz Hojiakbar ham shu yo‘nalishda ijod qilgan [2]. Tohir Malik ilmiy fantastik asarlar yozgan.

“Milliy zaminga tayanib turib ilmiy-fantastik asarlar yozish Hojiakbar Shayxovning tengdoshlari Tohir Malik, Mahkam Mahmudov, Asqar Qasimovlar ijodiga chuqur tomir yoygan, – deb yozadi adabiyotshunos P.Shermuhamedov. – Bular ijodidagi ana shu goho ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan “qon tomirlari”da jamiyatning o‘tkir muammolari qalamga olingan” [5]. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, fantastika, ba’zilar o‘ylagandek, oldi-qochdi gaplar yig‘indisi emas, fantast yozuvchi “ko‘knorxayol” ham emas. Fantast yozuvchi jiddiy ilmiy faraz, g‘oyani xuddi amalga oshganday tarzda ishonarli bayon qilishi lozim. Misol uchun, Marsda hayot yo‘qligi hozirgi kunda hamma ayon. Biroq Mars hayoti haqida asar yozgan polshalik adib Stanislav Lemning kitoblarini hamma qiziqib mutolaa qiladi. Bundan tashqari “Robot”

atamasini kashf etgan Chex yozuvchisi Karel Chapekning o'z asarida yaratilgan robot hozirgi kunda haqiqatga aylangani barchaga ma'lum. Fantast-yozuvchi bayon etgan ilmiy g'oyalar isbot etilmasa-da, lekin asarning ko'p yillardan beri o'qilishiga sabab, ikkinchi muammoning hal qilinishi, ya'ni asarning yuksak badiiy mahorat bilan yozilgani, xayoliy qahramonlarni hayotiy ko'rinishda chizib bera olganidir. Hozirgi kunda lazer nuri xayolot mahsuli emas haqiqatga aylandi. Biroq "Injener Garinning mo'jizasi" kitobi hozirgacha qiziqib o'qiladi. Asarda keltirilgan ilmiy formulalarning xato ekanligi hech kimni qo'iqirmaydi. Bunga sabab yozuvchining mahorati, asarning yuksak badiiy saviyada ekanligidir. Ana shu jihatlarda asarga uzoq umr bergan.

Tohir Malikning asarlari ham hozirgi kunda sevib o'qiladi. Chunki adib mustaqillikdan oldingi yillardagi dolzarb mavzularda asarlar yozgan. Fantastik adabiyot haqida gapirganda H.Shayxov, M.Mahmudov, Rustam Obid, Hasan-Husan Tursunovlar, Qudrat Do'stmuhamedov, Tursunboy Samatovlar birga Tohir Malik nomini ham e'tirof etishimiz lozim. Chunki adibni XX asrning 70-80-yillarida biz uchun muhim bo'lgan muammolar, xususan, Orol fojiasi va paxtazorlarga zahar sepilishi natijasida odam irsiyati o'zgarishi mumkin, degan muammolar qattiq o'ylantirgan. Ana shu muammolarni o'z hikoya va qissalarida yoritishga kirishgan.

**Tahlil va natijalar.** Fantastik asarlarda mo'jiza yaratuvchi rolini fantastik tavsillar bajaradi. T.Malikning "Chorrahada qolgan odamlar" qissasida tavsil vazifasini biotok oqimlari o'taydi. Asarning asosiy qahramonlaridan Rhaq biotok oqimlari orqali Tang sayyorasidan Yerga tushadi, yerliklar hayoti bilan tanishadi. Rhaq ham yerda yerliklar singari faoliyat ko'rsatadi. Qissada g'ayritabiiy holatlar mavjudki, yozuvchi bunga kitobxonni ishontira oladi. Rhaqni faqat bitta narsa – ikki sayyoradagi ikki xil bir-biriga qarama-qarshi hayot mavjudligi qiynaydi. U yerliklar hayotida havas qiladi. Tangdagi kishilarga insonni, uning qalbini tushunish tuyg'usi begona. Eng muhimi, ularda insoniy mehr-muhabbat yetishmaydi. Rhaq – arosatda qolgan odam. Sababi, u yurtidan ham kecha olmaydi, ayni paytda, yerliklar hayoti uni o'ziga tortib turadi. Yozuvchining mahorati shundaki, u ikki sayyora kishilarini qiyoslash asosida Rhaq rshiy olamiga kirib boradi. Shunday qilib, fantastik tavsil – biotok oqimlari orqali yozuvchi qahramoni xarakterini oydinlashtiradi.

Bizga ma'lumki, fantastik asarda o'zga sayyoraliklar, kelgindilar obrazi asosiy o'rin tutadi. Yozuvchilar ularning qiyofalarini berishda ham realistlik, ham fantastik ifoda usullarini mahorat bilan qo'llay olganlar. Adib Tohir Malik "Chorrahada qolgan odamlar" qissasida Tang sayyorasidan Yerga tashrif buyurgan Lukning suvratini quyidagicha chizadi: "Baland bo'yli, yelkalar keng, ko'zlarida o't chaqnatayotgan sarpoychan bu odam..." [1]. Tohir Malik chizgan portretlar muxtasar va lo'nda. U qahramonining tashqi ko'rinishidagi eng muhim nuqtalarga e'tibor beradi. YA'ni adib kelgindilarni yerliklarga monand tasvirlaydi. Tohir Malik yaratgan portretlarda ham g'ayribaiiylik mavjud, ammo u pinhona holatda beriladi.

"Chorrahada qolgan odamlar" asaridagi Rhaq hamda Sabohiddin ruhiy-psixologik qiyofalarining berilishi fikrimizni tasdiqlaydi. Rhaq yerdagi qaynoq hayotni kuzatar ekan, azob va iztiroblar ichida yonadi. Sababi, uni Yerdagi hayratga solgan narsa o'z sayyorasida yo'q. Tangda hayrat o'lgan. Hattoki inson o'limi ham ularni qiynamaydi. Bu holatdan Rhaq iztirob chekadi: "Ertaga haligi go'dak dafn etiladi, ammo bu bola uchun hech kim nola chekmaydi. Jonzotning qadri shuncha. Yerdagi esa butunlay boshqacha. Odamlar hatto marhumning izidan qabrga kirishga ham rozi bo'ladilar. Balki bu ortiqcha

hissiyotdir, ammo baribir kuyinish yaxshi. Rhaq yumshoq pastak kursiga yastanib o'tirib yerliklarni esladi" [1].

Rhaq Yerdagi va Tangdagi shu holatni qiyoslar ekan yerdagi fidoyi, kuyinchak insonlar ko'z oldiga keladi. Tohir Malik asarlari lirizmga boy, unda shoirona ifoda ustuvor. Ishongan odami Sabohiddinga akasining boshini tortiq qiladi. Asardagi shu epizod e'tiborli va ta'sirchan: "Tog'lar ham qotib qolgan edi. Osmon ham. Dunyoning qon tomirlaridan jon chiqib ketdi. Bir zum, faqat bir zum shunday bo'ldi. U qo'lidagi kallani tashlab yubordi. Akasining kesilgan boshi qorga cho'kdi. Sabohiddining qalbidan otilgan faryod sukunatni qalqitib yubordi. Tog'lar aks-sado berdi. Yo'q, sado emas bu. Tog'lar ham faryod chekdi.

Bu faryodni qorlar o'ziga shima olmadi, osmon bag'riga singirdi" [1]. Bu parchani, ta'bir joiz bo'lsa, nasriy she'r deyish mumkin. Yegulik istab xaltaga qo'l qolgan Sabohiddin sovuq narsani ushlaydi. O'sha sovuq narsa akasining kallasi edi. Shu lahzadagi Sabohiddining iztiroblarini yozuvchi tabiatdagi holatlar bilan bog'lab ochadi. Yeru osmon, tog'lar – jamiki borliq shu dahshatning guvohi edi, go'yo. Yozuvchi jonlantirishdan ustalik bilan foydalangan. Tog'larning faryod chekishi, qotib qolishi, dunyoning qon tomirlaridan jon chiqishi – jonlantirish, insonga xos xususiyatlar tabiatga ko'chirilgan. Butun borlig'ini tun-qorong'ulik qoplagan Sabohiddinning ko'z oldida bu dahshatlar lahzada yuz berdi hamda uni telba qilib qo'ydi. T.Malik qahramonlarining ruhiy olamiga shu yo'llar bilan kirib bordi [6]. Boshqacha qilib aytganda, u ruhiyat rassomidir. M.Mahmudov ham ushbu asarni tahlil qilar ekan, yozuvchining inson ruhiyati kengliklarini teran anglagani, qissa o'zida bir roman materialini qamrab olganini ta'kidlab, uni birinchi o'zbek fantastik romani deb ataydi [1].

Tohir Malik detektiv-fantastik yo'nalishini takomillashtirdi va bunda qahramonlar ruhiy olamining nozik qirralarini ochishga erishdi. Unda taxayyulot bilan reallik omuxtalashdi [6].

Tohir Malikning "Chorrahada qolgan odamlar" asarida ham fantastik, ham realistlik ruh seziladi. Asardagi Rhaq obrazi fantastik xarakter sifatida shakllangan. Sabohiddin esa realistlik xarakter hisoblanadi. Bu obrazda milliylikning muhim qirralari mujassam. Sabohiddin yoshlikdan sharqona tarbiyalangan, madrasa ta'limini olgan, o'zbekona urf-odatlarini yaxshi biladi. Eng muhimi, imon-e'tiqodli. Shu bilan birga, u – murakkab davr farzandi. Davr murakkabliklari ham uning e'tiqodini bukolmagan. Bu xarakterda o'zbek dunyoqarashi, suronli yillardagi xalq fojiasi aks etgan. Sabohiddin quyidagi xususiyatlarga ega: ushbu xarakter – real voqelik mahsuli; o'zbekona xususiyatlarni o'zida jamlagan, tipiklik mohiyatini kasb etgan; davr murakkabliklari xarakter mohiyatining ochilishida ta'sir ko'rsatgan; iztiroblari asosida o'zbek fojiasi yotadi; nnda 30– yillardagi xalq, ya'ni arosatda qolgan o'zbek qiyofasi namoyon bo'ladi.

Umuman, Tohir Malik murakkab inson xarakterining barcha qirralarini yoritishga harakat qiladi [6].

**Xulosa va takliflar.** Tohir Malik ijodi o'zbek adabiyotiga fantastik, detektiv va ma'rifiy asarlari bilan yangi yo'nalishlarni olib kirdi. U adabiyotda o'ziga xos maqomga ega ijodkorlardan. Uning ijodini o'rganish hozirgi zamon adabiyotining juda muhim masalalarini oydinlashtirish imkonini yaratadi. Yozuvchi merosining maxsus tadqiq etilishi lozim bo'lgan qirralari bisyor. Chop etilgan asarlarining adadi ham yuqori darajada.

Tohir Malik "Chorrahada qolgan odamlar" romani ham qayta tahrir qilib, ayrim joylarini o'zgartirgan. Asarda qahramonlarning ruhiy holatiga kam e'tibor berilgan. Shu o'rinlar to'g'irlangan va senzura yo'l qo'ymagan sahifalarni qayta yozgan hamda asarning ilk nomi – "Devona"ni tiklagan.

1. Малик Т. Чорраҳа қолган одамлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980. – 219 б. – Б. 3, 36, 213.
2. Маҳмудов М. Ҳаётдан ўзган ҳаёл // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1984. 3-февраль.
3. Номозов А. Тоҳир Малик гурунглари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – Б. 38.
4. Саъдий А. Амалий ҳам назарий адабиёт дарслари. – Т.: Ўрта Осиё давлат нашриёти, 1924. – Б. 1.
5. Шермухамедов П. Давр қахрамон тақдирида. – Тошкент, 1976. – Б. 163.
6. Қувватова Д. Ўзбек илмий-бадиий фантастикасида фольклор мотивлари. Фил. фанл. номз. ... дисс. – Тошкент, 1997. – 119 б. – Б. 20, 32-33, 37, 41.



*Shahnoza RASULOVA,*

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti*

*E-mail:shahnozarasulova8322@gmail.com.*

#### ANALYSIS OF SOURCES ON THE BIOGRAPHY OF THE POET KHISLAT

Аннотация

This article presents new information about the scientific biography of the representative of Uzbek classical literature, poet, publisher Sayid Haybatullahkhodzhi Khislat. The literary environment of Tashkent and the place of the poet in it, literary directions, and creative activity were studied.

**Key words:** “Armugani Khislat”, biography, manuscript, lithograph, source, article, anthology, ghazal, translation, publisher, family tree.

#### АНАЛИЗ ИСТОЧНИКОВ ПО БИОГРАФИИ ПОЭТА ХИСЛАТА

Аннотация

В данной статье представлены новые сведения о научной биографии представителя узбекской классики литературы, поэта, издателя Сайеда Хайбатуллахходжи Хислата. Изучалась литературная среда Ташкента и место в ней поэта, литературное движение, творческая деятельность.

**Ключевые слова:** “Армугани Хислат”, биография, рукопись, литография, источник, статья, антология, газель, перевод, издатель, семейное дерево.

#### SHOIR XISLAT BIOGRAFIYASIGA DOIR MANBALAR TAHLILI

Аннотация

Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyoti vakili, ma'rifatparvar, bayoznavis shoir, noshir Sayid Haybatullohxo'ja Xislatning ilmiy biografiyasiga oid manbalar tahlil etildi. Toshkent adabiy muhiti va unda shoirning tutgan o'rnini, adabiy harakatlari, ijodiy faoliyati o'rganildi.

**Kalit so'zlar:** “Armug'oni xislat”, tarjimai hol, qo'lyozma, toshbosma, manba, maqola, bayoz, g'azal, tarjima, noshir, shajara.

**Kirish.** O'zbek adabiyoti necha asrlardan buyon ma'naviy xazinamizni boyituvchi shoh asarlari bilan xalqimizning tafakkurini yuksaltirib kelmoqda. Milliy adabiyotimiz namoyandalari ijodiy merosini birlamchi adabiy manbalar orqali matnshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik fanlari mumtoz adabiy merosimizni klub, adabiyot muhblariga yetkazishda samarali natijalarga erishayotgani quvonarli holdir. Zero “Vatanimiz o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yayotgan bugungi kunda biz uchun tariximiz va madaniyatimizga oid yangi ilmiy tadqiqotlar har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega” [1].

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida o'zbek adabiyotida, umuman, jamiyatning har jabhasida tub burilishlar davri boshlandi. Xalqimizning ilm-ma'rifatini yuksaltirish, jamiyatdagi yangiliklardan xabardor bo'lishga chaqirish, o'zining haq-huquqlarini anglatish, milliy uyg'onish g'oyalari davr adabiyotida o'z in'ikosini topdi. Toshkentda Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Tavallo, Karimbek Kamiy, Xislat, Sidqiy Xondayliqiy, Mullo Qo'shoq Miskin, Nozimaxonim, Dilafgor, Xurshid va boshqa o'nlab shoir, yozuvchilar katta adabiy harakatni maydonga keltirdilar.

Toshkent adabiy muhitining zabardast vakillaridan biri Sayid Haybatullohxo'ja Said Orifxo'ja o'g'li Xislat o'z zamonida mutarjim, bayoznavis shoir, noshir, kotib, xattot, noshir sifatida tanilgan va tan olingan. Biroq uning hayot yo'li va ijodiy faoliyati mukammal o'rganilmagan. O'zidan salmoqli adabiy meros qoldirgan Xislat asarlarini ilk manbalar asosida o'rganish, matnshunoslikda erishilgan so'nggi ilmiy-nazariy yutuqlarga tayanib, asarlarini matniy tadqiq etish muhim vazifalardan biridir. Sayid Haybatullohxo'ja Xislatning bizgacha lirik turning g'azal, muxammas, fard, qasida kabi janrlarida yozilgan she'rlari XX asr boshlarida vaqtli matbuotda, tazkira va bayozlarda nashr etilgan. Xislat

she'rlarining o'sha davrda bir qancha qo'lyozma va toshbosma bayozlarga kiritilishi, vaqtli matbuotda chop etilishi hamda zamondosh shoirlarning uning g'azallariga nazira, muxammaslar bog'lashi ham uning yetuk ijodkor bo'lganidan darak beradi. Shu nuqtayi nazardan ham ushbu mavzuni o'rganish adabiyotshunoslikning dolzarb vazifalaridandir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Xislat she'riyati va shaxsiyatiga uning hayotlik paytlaridayoq turli munosabat bildirilgan [2]. Shoirning ijodini o'rganish, matbuotda maqolalar chop etish, asosan, 1960-yillardan keyin boshlangan. Uning ijodi bo'yicha samarali ishlagan olim Abduhamid Jalolovdir. Olim Xislat hayoti va ijodi haqida matbuotda bir qator maqolalar e'lon qiladi (Jalolov A. Xislat // O'zbek tili va adabiyoti. 1968. №1. –B. 35-36; O'zbek yozuvchilarining tarjimai holi. Xislat // O'zbek tili va adabiyoti. 1969. №4. –B. 70-71; “Armug'oni Xislat” bayozi sahifalarini varaqlab. “O'zbekiston madaniyati” gazetasi, 1969-y., 30-may). “G'azallar” nomi ostida shoirning tanlangan asarlarini chop ettirdi [3]. “Xislat ijodi haqida adabiy portret” risolasini nashrdan chiqardi [4]. Ammo Abduhamid Jalolov davr taqozosiga ko'ra Xislat ijodiga, asosan, sinfiy nuqtayi nazardan yondashib, uning asarlarini sho'roviiy mafkuraga moslashtirib talqin qildi.

Shuningdek, B.Nasriddinovning To'ychi hofiz hayoti va ijodiga bag'ishlangan xotira kitobida Xislat haqida qimmatli ma'lumotlar bayon qilingan [5]. M. Hamidova bayoznavis shoirlar qatorida Xislat bayozlarining o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritadi [6]. Naim Karimov (XX asr adabiyoti manzaralari. 1-kitob.– T.: O'zbekiston, 2008. –B. 62-75; Shu muallif: Abdulla Qodiriy va Toshkent adabiy muhiti. “O'zbekiston adabiyoti va san'ati”, 2013, № 43-44), B. Qosimov ma'ruza va monografiyalarida shoir ijodiga keng o'rin ajratgan [7]. Urfon Otajon so'zbo'shisi bilan “Tuhfayi Xislat” bayozining nashrdan chiqqanligi shoir ijodini keng

xalq ommasiga taqdim etishdagi tashlangan katta qadamlardan biri bo'ldi [8].

Xislat hayoti va adabiy faoliyatiga oid ma'lumotlar ba'zi xotiralarda (Norxo'jayev M. Shoir va fozil odam edi. "Toshkent oqshomi", 1967-y, 15-mart №62 (217); Abdulla S. Mavlono Muqimiy. Asarlar. 4 tomlik, 3-tom.– T.: G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. – B. 421; Qodiriy H. Otam haqida. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. – B. 91; Fayzullayev O. Shayx Zayniddin bobo shajarasi. Fan va turmush. 1991-yil, №10, – B. 16-21; Fayzullayev O. "Shomu saharlar oh urib". O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2004, 23-yanvar, №4 (3731); Qo'shmoqov M. "Issig'dir so'zing, o'ylakim yulduzing!.." O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2007, 11-may, № 13 (3899); Ozod Mo'min Xo'ja. Shayx Zayniddin Toshkandiy – olim va valiy. – T.: Movarounnahr, 2018.) va tazkiralarda ham aks etgan. Mo'minjon Muhammadjon o'g'li Toshqinning "Toshkent shoirlarining tarjimai hollari" va Po'latjon Qayyumovning "Tazkirai Qayyumiy" asarlari shoir ijodi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

2009 yilda Xislat hayoti va ijodi haqidagi maqola, nazmiy asar va xotiralardan iborat "Tarannum" to'plami shoirning jiyani san'atshunos Muzaffar Asadullayev, adabiyotshunos To'xtamurod Zufarovning sa'y-harakatlari bilan chop etildi [9.] To'plamda shoirning 50 dan ortiq g'azal va muxammaslari, ta'rix va marsiyalari, ijodkor haqida zamondoshlarining xotiralari o'rin olgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Xislat ilmiy biografiyasiga oid yangi ma'lumotlarni aniqlash, shoir she'rlari mavjud qo'lyozma va toshbosma asarlarni qiyosiy-matniy tadqiq etish kabi masalalarni yoritishda qiyosiy-tarixiy, matniy-qiyosiy, biografik metod hamda tasniflash, tavsif qilish usullaridan foydalanildi.

Shoirning ismi Haybatullohxo'ja Sayid Orifxo'ja o'g'li bo'lib, Xislat uning adabiy taxallusidir. "Xislat" so'zi (arabcha – sifat, xossa, xususiyat) izohli lug'atda kishi yoki narsaning muhim ijobiy belgisi, sifati; xususiyat, fazilat ma'nosini bildiradi [10].

Xislatning hayoti va ijodiy faoliyati haqida ma'lumot beruvchi manbalarni shartli ravishda quyidagicha tasnifladik:

**Tadqiqot metodologiyasi.** Yevropa Kengashi 1996 yil asosiy kompetensiyalarni 5 guruhga bo'lgan. bu narsalarni chet tilini o'qitishda qo'llash va bilish juda muhimdir. 1) mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, birgalikda qaror qabul qilishda ishtirok etish, nizolarni zo'ravonliksiz tartibga solish, demokratik institutlarning faoliyati va takomillashuvida ishtirok etish kabi siyosiy va ijtimoiy kompetensiyalar; 2) ko'p madaniyatli jamiyatdagi hayotga oid kompetensiyalar (madaniyatlararo kompetensiyalar); 3) ish va ijtimoiy hayotda muhim bo'lgan og'zaki va yozma muloqotga ega bo'lish bilan bog'liq kompetensiyalar;

4) axborot jamiyatining paydo bo'lishi bilan bog'liq kompetensiyalar; 5) kasbiy jihatdan doimiy tayyorgarlikning asosi sifatida butun hayotni o'rganish qobiliyati.

**Tahlil va natijalar.** Kompetensiya (lotincha: competo — erishyapman, munosibman, loyiqman) — 1) muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish

organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yo bu sohadaagi bilimlar, tajriba[9]

Kompetenz so'zi lotincha competentia "muvofiq, haqiqatga mos kelish, munosib, loyiq" (competere muvofiq kelmoq, mos kelmoq, qodir bo'lmoq). Rim imperias davridayoq kompetens sifati muxtor /vakil/, qonuniy degan ma'nolarda ishlatilgan. Competentia deb XIII asrdayoq umuman bir shaxsning kun kechirish uchun ishlab topgan daromadlari va ayniqsa klerikal monarx extiyojlari uchun topgan daromadlari ifodalangan. Huquqiy tushuncha sifatida beneficium competentiae qarzdorga kun kechirishligi uchun minimum vositalarni qoldirib, boshqa narsalarni undan tortib olishni anglatadi. So'zning bu ma'nosi harbiy terminalogiyada XX asrgacha ishlatilib kelgan. Bu yerda bu so'z armiya va flot xizmatchilariga pul, oziq-ovqat, boshpana va kiyim-kechakda minimum ehtiyojlarni anglatgan. Bu huquqiy ma'nodan tashqari bu Kompetenz tushunchasi XVIII asrdan beri "masul, muhtor" ma'nolarida ishlatilgan. XIX asr boshlaridan milliy davlatlar paydo bo'lishi bilan davlat organlari huquq va burchlari doirasida qo'llana boshladi. Kompetenzkompetenz so'zining qisqargan shakli xalqaro huquqda davlat suverenitetini, huquqiy munosabatlarda mustaqillikni anglatadi. Davlat organlari doirasida Kompetenzkompetenz tushunchasi muhtoriyatni anglatgan, va urush vaqtida mavjud qonunlar asosida o'z vakolati doirasida qarorlar qabul qilish, va bu vakolatni boshqa organlar zarariga kengaytirib olishni anglatgan.

DTS da bir biridan mustaqil bo'lgan 3 xil kompetensiya talablari belgilab berilgan. Bular:

Lingvistik kompetensiya  
Sotsiolingvistik kompetensiya  
Pragmatik kompetensiya  
Lingvistik kompetensiyasi ikki turga bo'linadi:  
Nutqiy kompetensiya  
Til kompetensiyasi  
Nutqiy kompetensiya o'z navbatida 4 turga bo'linadi:  
Tinglab tushinish  
Gapirish  
O'qish  
Yozish

Til kompetensiyasi ham o'z navbatida 4 turga bo'linadi:

Grafika va orfografiya  
Fonetik kompetensiya  
Leksik kompetensiya  
Grammatik kompetensiya  
Quyida biz faqat fonetik kompetensiyani yoritishga

harakat qilamiz.

Fonetik kompetensiya deganda quyidagi uchta tushinchani o'z ichiga oladi:

Tovushlarni gapda va yakka holda eshitganda farqlay olish;

Asosiy kommunikativ gap turlariga (darak, so'roq, buyruq gap) mos ravishda ritm va intonatsiyadan to'g'ri foydalana olish;

Tilning asosiy barcha tovushlarini, gapirish ko'nikmasini rivojlantirish bilan birga nutqda ishlata olish.

Mavjud o'zgarishlar, ularning kamchiliklari haqida qisqacha ma'lumot

Kompetentsiya - bu bilim va ko'nikmalarni ish bilan bog'liq vazifalarni mustaqil, mas'uliyatli va vaziyat talablariga mos ravishda bajarishi mumkin bo'lgan tarzda birlashtira olish qobiliyatidir. Barkamol kishilar yangi, ochiq, boshqarib bo'lmaydigan va dinamik vaziyatlarda ham bilim, ko'nikma

va malakalar asosida o'z-o'zini tashkil etish va maqsadga yo'naltirilgan holda harakat qilish qobiliyati bilan ajralib turadi.

"Kompetenzen sind die Fähigkeiten zur Selbstorganisation. Sie schließen Wissen, Qualifikationen, Werte und Normen ein und versetzen sie in ein verfügbares Setting. Kompetenzen sind besonders wichtig in offenen Problem- und Entscheidungssituationen, in komplexen Systemen" [10]

"Kompetenzialar - bu o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlari hisoblanadi. Ular bilim, malaka, qadriyatlar va me'yorlarni o'z ichiga oladi va ularni mavjud sharoitda joylashtiradi. Kompetenzialar, ayniqsa, ochiq muammo va qarorlar qabul qilish holatlarida, murakkab tizimlarda muhim ahamiyatga ega"

"Kompetenzen werden von Wissen fundiert, durch Werte konstituiert, als Fähigkeiten disponiert, durch Erfahrungen konsolidiert, aufgrund von Willen realisiert" [11]

Qobiliyatlar bilimga asoslanadi, qadriyatlardan tashkil topadi, ko'nikma sifatida beriladi, tajriba bilan mustahkamlanadi va iroda asosida amalga oshiriladi.

Kompetenzialar malakadan (kvalifikatsiyadan) nimasi bilan farq qiladi?

Kompetenzialar qobiliyatlarni ro'yopga chiqarish va muayyan harakatlarni bajarish sifatida tushinilishi va baholanishi mumkin. Kompetenzialar har doim zarur bilimlarni o'z ichiga oladi. Ammo ular bundan ham ko'proq narsani o'z ichiga olishi mumkin va egalik va harakatni belgilaydigan munosabatlarni qamrab oladi. Boshqa tuzilmalardan farqli o'laroq, masalan, malaka har doim aniq shaxslarning o'zini o'zi boshqarish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Malakalarning maqsadi, masalan, dual ta'lim tizimi doirasida xodimlarni malakasini oshirish va ularni kundalik ish hayotiga moslashtirishdir va shunday bo'lib qoladi. Demak, bu malaka o'rniga Kompetenzialarni qo'yish va rivojlantirish degani emas. Aksincha, shuni ta'kidlash kerakki, kompetensiyasiz malaka bo'lishi mumkin bo'lsa-da, malakasiz kompetensiya bo'lishi qiyin.

Zamonaviy mehnat va iqtisodiy hayotda bizga nafaqat malaka kerak. Olingan malaka ochiq, murakkab, muammoli vaziyatlarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini anglatmaydi.

**Xulosa va takliflar.** Kompetenzialar ko'nikma, bilim va malakadan ko'ra kengroqdir. Kompetensiya tushunchasi chet tili nazariyasi va chet tili didaktikasida ishlatilishiga qarab farqlanadi. Ushbu maqolada ushbu atama chet tili o'rgatish didaktikasidagi ma'nosi beriladi. Shunday qilib, kompetenzialar bizning amallarimizga asos bo'luvchi qobiliyatlarimizni anglatadi. Bular chet tili malakalari sifatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib talaffuz "kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismidir".

Kompetensiya bu shunday qobiliyatki, bunda bilim va qodirlik qobiliyati shunday bog'lanadiki, oqibatda kasbga oid vazifalar talablarga mos mustaqil, masuliyatli va vaziyatga mos bartaraf qilinadi.

Bilim, ko'nikma va malakalar ko'pincha kompetensiya sifatida ko'riladi va nomlanadi. Biroq, bilim, shu jumladan empirik bilim hech qachon harakat qilish qobiliyati emas, balki uning uchun operatsion jihatdan muhim shartdir. Bilimsiz qobiliyat bo'lmaydi. Ko'nikma va malakalar harakat qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi, lekin ijodiy, o'z-o'zini tashkil qilish ma'nosida emas. Ular, shuningdek, haqiqiy ko'nikmalar uchun operatsion zaruriy shartdir, lekin boshqa maqomga ega.

#### ADABIYOTLAR

1. Furkat Mirvaliyev Shukhratovich. (2023). The Role of Literary Texts in Teaching Foreign Languages. Texas Journal of Philology, Culture and History, 14, 10–13.

2. Ibodullayevich, S. Z. (2021). THE STRUCTURE OF BILINGUAL DICTIONARIES AND THEIR ANALYSE (on the example of German-Uzbek dictionaries). MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS, 191.
3. Кувонов, З. (2023). NEMIS TILIGA SHET TILIDAN O 'ZLASHAGAN SO 'ZLARNING STRUKTURAL-SEMANTIK TADQIQI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(6), 230-238.
4. Рахматов, Ф. (2022). МАНТИҚ ИЛМИДАГИ БАЪЗИ АТАМАЛАР ТАЪРИФИ. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(3), 400-412.
5. Рахматов, Ф. (2021). ПЕДАГОГИКАДА МАНТИҚ ИЛМИ. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 1(4), 39-50.
6. Abdusalilova D. S. Q. ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA MADANIYATLARARO MULOQOT TAHLILI //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 390-394.
7. Kuvonov, Z. M. (2023). COLOR COMPONENT PHRASEOLOGY IN GERMAN AND UZBEK LANGUAGES AND THEIR SEMANTIC ANALYSIS. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 4(03), 109-144.
8. Хомский Н. Язык и мышление
9. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
10. Professor Dr, Folker Heyza, <https://www.kodekonzept.com/wissensressourcen/kompetenzen/>
11. Professor Dr, Jon Erpenberg, <https://www.kodekonzept.com/wissensressourcen/kompetenzen/>



Zilola SAYITQULOVA,  
Samarqand Davlat chet tillar instituti doktoranti

O'zFinPI dotsenti X.B.Tojiyeva taqrizi asosida

### OILA VA FAMILY KONSEPTINING LINGVISTIK VOSITALAR YORDAMIDA IFODALANISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada oilaning inson hayotidagi o'rni haqida ma'lumot beriladi. Millat egalari xotirasida oila va family konseptini voqelantiruvchi til birliklari keltiriladi va ularda millatlarga xos ijtimoiy, tarixiy, ilmiy tajribalar namoyon bo'ladi. Oila va family konseptlarining yoritilishida voqea hodisalar guruhining streotip xususiyatlarini aks ettiruvchi freym nazaryasidan foydalaniladi.

**Kalit so'zlar:** Oila, family, lingvomadaniy konsept, kognitiv konsept, freym, til birliklari.

### ВЫРАЖЕНИЕ СЕМЬИ И ПОНЯТИЯ СЕМЬИ С ПОМОЩЬЮ ЯЗЫКОВЫХ СРЕДСТВ

Аннотация

В данной статье представлена информация о роли семьи в жизни человека. В памяти хозяев нации представлены языковые единицы, реализующие концепцию "oila" и "family", в них показан социальный, исторический и научный опыт, присущий народам. Концепция "oila" и "family" объясняются с помощью теории фреймов, отражающей стереотипные характеристики группы событий.

**Ключевые слова:** Семья, лингвокультурный концепт, когнитивный концепт, фрейм, языковые единицы.

### ВЫРАЖЕНИЕ СЕМИ И ПОНЯТИЕ СЕМИ С ПОМОЩЬЮ ЯЗЫКОВЫХ СРЕДСТВ

Annotation

This article provides information about the role of family in a person's life. In the memory of the owners of the nation, linguistic units are presented that implement the concepts of "oila" and "family" and they show the social, historical and scientific experience inherent in peoples. The concepts of "oila" and "family" are explained using frame theory, which reflects the stereotypical characteristics of a group of events.

**Key words:** Family, linguocultural concept, cognitive concept, frame, linguistic units.

Inson tug'ilgandan boshlab ko'zi, ongi orqali mustaqil bilimlar oladigan va ularni jamiyatning murakkab qonunlari bilan yuzlashganda qo'llay olishni o'rgatadigan maskan bu oiladir. Inson kamolotida oilaning o'rni beqiyosdir, chunki insonga chinakam insoniy baxtni in'om etuvchi yoki uning baxtsizligiga sabab bo'luvchi uning oilaviy hayotidir. Oila o'z a'zolariga o'ziga xoslik, tegishlilik va qo'llab-quvvatlash hisini beruvchi jamiyatning asosiy bo'g'inidir. Jamiyat va oila o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, o'zaro hamkorlik qilish va yordam berish jamiyatning rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir.

Nikoh va yaqin qarindoshlikka asoslangan axloqiy ma'suliyat, o'zaro hurmat, tushunish va mehr-muhabbat umumiyligi bilan bog'langan kichik ijtimoiy guruhi oila sifatida e'tirof etgan professor G'.B.Shoumarov uni boshqa guruhlardan quyidagi xususiyatlari bilan farqlaydi:

– oila ko'p muddatga, ya'ni bir necha o'n yillar va ko'p yillarga mavjud bo'ladi;

– oilada shaxslararo munosabatlarning bir necha turlari amalga oshadi, ya'ni milliy mafkuramizga oid ilk tushunchalar, avvalo oila muhitida singadi va bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi. Bunda oilaviy munosabatlarda tarbiyaviy, psixologik, hissiy, moliyaviy, jinsiy va boshqa vazifalarning amalga oshirilishi kuzatiladi;

– oiladagi barcha munosabatlar zaminida salbiy yoki ijobiy holatlar yuzaga keladi, ya'ni oila a'zolaridan kimningdir kimgadir ta'siri oqibatida shaxs yaxshi shakllanishi va komil inson darajasiga yetishi yoki tarbiyasi og'ir, xulqi buzuq odam bo'lib tarbiyalanishi mumkin [1].

Oila konseptining markazini oila a'zolari tashkil etadi. Ular o'rtasidagi munosabatlar oilaviy munosabatlar bo'lib, ular nisbatan mustaqil hodisa sanalsa-da, jamiyatdagi mavjud

ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ularning ta'sirida o'zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o'zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o'rnatadi.

Oila jamiyat hayoti turmushi bilan bog'liq sinovdan o'tgan urf-odatlarini kelajak avlodga yetkazadi, o'z bag'rida tarbiyalanayotgan farzandlarga umuminsoniy qadriyatlarini singdirib, ularga boshlang'ich ijtimoiy yo'nalish beradi. Oila va oilaviy qadriyatlar xalq tili va madaniyatining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, xalqning tarixiy va madaniy qiyofasini namoyon etadi. O'z farzandlarini jamiyatga qo'shsish orqali jamiyatning iqtisodiyoti, madaniyati va ma'rifatini belgilashda o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu sababdan ham oila qadim-qadimdan muqaddas qo'rg'on hisoblanadi.

O'zbek tilidagi oila so'zi ingliz tilidagi family so'ziga mos keladi. Bu so'zlar o'zaro qiyoslanishi mumkin, lekin ularning asosiy ma'nosi va tushunchalari o'zbek va ingliz jamiyatlarining tarixi, madaniyati, iqtisodiyoti, siyosiy tuzilishi va diniy taraqqiyotiga bo'g'liq holda o'zgarib boradi.

O'zbek va ingliz tillarida muloqot jarayonida faol qo'llaniluvchi oila va family konseptiga oid bir qator leksik paremiologik, sintaktik vositalar mavjud. Mazkur vositalardan avval konsept haqida qisqacha to'xtalib o'tmoqchimiz. Ma'lumki konsept lingvomadaniyatshunoslik va kognitiv tilshunoslikning faol birliklaridan hisoblanadi. Lingvomadaniy konsept u yoki bu xalq madaniyatining o'ziga xos jihatlari ifodalaydi. U barcha til egalari uchun dunyoqarash modeli bo'lib, milliy xarakterning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi madaniyat vositasidir. Lingvomadaniy konsept til, jamiyat va uning madaniyati haqidagi bilimlarni aks ettiradi. Ular tilda madaniyatni namoyon etadi va inson ongida olam tasvirini shakllantiradi. U turli sohalarda qo'llaniladigan boshqa

birliklardan baholovchi xususiyati bilan farqlanadi. Uning markazi har doim qadriyatdir, chunki u madaniyatni o'rganishga xizmat qiladi, madaniyat qadriyat tamoyiliga asoslanadi.

Kognitiv tilshunoslikda konsept bizning tafakkurimizdagi aqliy va psixik resurslarining inson bilim va malakalarida aks etishiga xizmat qiladigan tushunchadir va u har bir leksik birlikning tafakkurdagi obrazini ifodalash uchun qo'llaniladi. Konsept tafakkurning operativ mazmun birligi, tizimlashtirilgan bilimning birligi yoki kvantidir. Konseptlar-inson fikrlash jarayonida foydalanadigan ideal, mavhum birliklar, ma'nolardir. Ular olingan bilimlar, tajriba, insonning real borliqni idrok etishi natijalarining mazmunini muayyan birliklar, "kvantlar" ko'rinishida aks ettiradi [2]. Ongda konsept guruhlangan bo'lib, u uyushgan birikmalardan iborat bo'ladi. Ona tilida so'zlashuvchilar uchun eng ahamiyatli bo'lgan birikmalar konseptning o'zagini, kamroq ahamiyatlilari esa paraferiyalarni tashkil etadi. Konsept aniq chegaralarga ega emas u yadrodan uzoqlashgani sari guruhlar ham yo'qola boshlaydi [3]. Demak, konsept tushunchasi har bir shaxs uchun individual va jamiyat uchun umummilliy bo'lgan, ong, til va ruhiyatning bog'liqligida kechuvchi jarayondir.

Ong va til tizimining hamkorlik jarayonida konseptning lisoniy belgiga aylanish jarayoni yuzaga keladi. Konsept shakllanishining boshlang'ich nuqtasi voqelik bo'lagi yoki predmet haqida obrazning yuzaga kelishi bo'lib, bu obraz mazmun bilan hamohang bo'ladi. Subyekt ana shu mazmunli obrazni idrok etadi. Natijada ana shu mazmunli obraz lisoniy belgiga aylanadi [4]. Lisoniy belgining ma'lum ma'noga ega bo'lishi belgining voqelik bilan to'g'ridan-to'g'ri munosabatda ekanligidan emas, balki belgining shakl olishi va mazmuni insonning faoliyat tajribasi bilan bog'liq [5]. Demak inson o'zining xotirasidagi bilim va tajribasiga tayangan holda axborotni qabul qiladi. "Har bir inson xotirasida ma'lum miqdordagi bilimlar strukturasi zahirasi saqlanadi va aynan shu zahira axborotni qabul qilib idrok etish vazifasini o'taydi. Boshqacha aytganda, har bir shaxs ongida "freymlar to'ri to'plami" mavjudkim, ushbu to'plam bilim va idrok faoliyatini ma'lum ko'rinishdagi "andoza"lar asosida amalga oshirishini ta'minlaydi". Demak, freym konseptni yanada aniqroq modellashtirish uchun xizmat qiladi.

Freym - tarkibiy qismlar yaxlitligidagi ko'p komponentli konsept, keng ko'lamlı tasavvur, predmet yoki hodisa haqidagi standart bilimlarning ma'lum majmuasidir [6]. Hozirgi vaqtda kognitiv tilshunoslikda keng qo'llaniladigan metodlardan biri freym tahlili hisoblanadi. Freym insonning tashqi olamni idrok etish amaliyoti va tajribasini aks ettiruvchi bilim tuzilmalari bo'lib, kognitiv tilshunoslikka ko'ra, har qanday matn ma'lum bir freym ifodasidir. Freym nazariyasini yaratgan olimlardan biri M.Minskiy unga shunday ta'rif beradi: "...freym – stereotip vaziyatlarni namoyon qilish usullaridan biri hisoblanib, har qanday freymda ko'p qirrali axborot o'zaro bog'langan bo'ladi" [7]. U inson tarbiya topgan madaniy muhit bilan bog'liq, chunki freymlar madaniyatda mavjud bo'lgan voqelik idroki asosida shakllanadi. Binobarin, freym u yoki bu tipik vaziyatning keng hajmli prototipi bo'lib, matn yaratilishi jarayonida kognitiv kontekst vazifasini bajaradi. A.A.Leontevga ko'ra freym u yoki bu obyekt yohud hodisani tasvirlovchi o'lchovlar tizimini ifodalaydi [8]. Shu bilan birga, freym alohida olingan predikativ birliklarning sintaktik imkoniyatlarini tasvirlovchi hodisaga aylanib qolmasligi kerak. "Tafakkur tili"ning birligi sifatida tanlanayotgan andoza o'zida butun bir voqea-hodisalar guruhining stereotip xususiyatlarini aks ettirishi va konseptning lisoniy voqeealanishi uchun asos tayyorlashi kerak.

Oila va family konseptlari ehtimollar doirasidagi tushunchalargagina ishora berib qolmasdan millatlarning tarixiy, ijtimoiy, ilmiy tajribasini namoyon etadi. Xususan,

o'zbek oilalari serildizlik, serbutoqlik xususiyatlari, tejankor ro'zg'or tutishi, ota-ona, aka-ukaga hurmat, oilaparvarlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ingliz oilalarida individualizm darajasi yuqori ekanligi hisobiga ularda farzandlar sonining kamligi, mehr-muhabbat asosan ota-ona va farzandlar o'rtasida bo'lib, ular oila a'zolariga ko'proq iqtisodiy, moliyaviy tomondan ta'minlanishi kerak bo'lgan kishilar sifatida qarashlarini, shuningdek, oilaga g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yish xususiyatlarini e'tirof etishimiz mumkin.

Oila va family konseptlariga ishora qiluvchi leksik birliklarni bir qancha guruhlarga ajratishimiz mumkin. Ular assotsiativ tarzda til egalari xotirasida oila va family konseptini voqeealanira oladi.

Xonadon, uy, ro'zg'or – oila konseptining; household, menage, brood – family konseptining markazini tashkil etuvchi va ularning ma'nodoshlari vazifasini bajaruvchi birliklar hisoblanadi.

Ota, ona, aka, uka, opa, singil, bobo, buvi, amaki, tog'a, amma, xola, er, xotin, kuyov, kelin, qaynota, qaynona, farzand, jijan, ammavachcha, amakivachcha, xolavachcha, tog'avachcha, o'g'il, qiz, chaqaloq, qarindosh – oila konseptining; mother, father, brother, sister, grandparents, uncle, aunt, nephew, niece, cousine, husband, wife, bride, groom, baby, child, son, daughter, relative – family konseptining shaxs ma'noli birliklaridir.

O'zbek tilida shaxs ma'noli birliklar diapazoni kengroq yani aunt leksemasini ifodalovchi amma, xola birliklari, uncle atamasini ifodalovchi amaki, tog'a birliklarining o'zbek xonadonida alohida nomlari bor va ularning o'rni va vazifalari ham bir-biridan farq qiladi. Ingliz tilida daughter, girl leksemalari o'zbek tilidagi qiz so'ziga to'g'ri keladi va umumiy qizlarga murojaat ma'nosida ham ishlatiladi: All girls came to the party except your daughter – Sizning qizingizdan boshqa hamma qizlar bazmga kelishdi. O'g'il ma'nosiga teng bo'lgan boy va son birliklarida ham shu holatni ko'rishimiz mumkin: Boys usually love football, but my son isn't interested in it – Odatda o'g'il bolalar futbolni yaxshi ko'rishadi, lekin mening o'g'lim unga qiziqmaydi. Girl va boy leksemalari umumiy jins vakillarini daughter va son so'zlari aynan farzand jinrlarini ifodalaydi. Shuningdek, o'zbek tilida o'g'il so'zi bilan o'g'il to'yi; qiz so'zi bilan qizoshi, qizchiqar, qizko'rdi singari etnomadaniy mazmunga ega birliklar mavjud. Qizaloq, o'g'iltov leksemalarida erkalash, kichraytitish ma'nolari bor. Ingliz tilidagi daughter va son atamaları daughterhood – qizlik davri, sonship – o'g'illik singari derivatsion shakllarga ega. Ingliz tilida -hood holatni ifodalovchi neytral qo'shimcha, -ship shaxsning sharafiga, maqomga ega bo'lganini anglatuvchi qo'shimchani qo'shilishi oildada turli jins vakillariga bo'lgan turlicha munosabatlarni ko'rsatadi, yani o'g'il bola oildada qiz boladan ustun bo'lgan va uning tarbiyasiga ko'roq kuch va mablag' sarflangan [3:19].

Muqaddas, ulug', tarbiyali, mehribon, madaniyatli, bolali, bolasiz, quvnoq, beg'ubor, samimiy, o'ziga tortuvchi – oila konseptining; holy, great, well-educated, loving, cultured, with children, without children, sincere, attractive – family konseptining belgi, xususiyat ma'nolarini ifodalovchi leksemalari hisoblanadi.

Ostona, uy, boshpana, turar joy, mahalla, maskan, Vatan – oila konseptining; house, home, accomodation, place of residence, Hometown – family konseptining o'rin ma'noli turdosh otlariga ishora qiluvchi leksemalaridir.

Muhabbat, sevgi, sadoqat, vafo, burch, bolalik, vatanparvarlik, oilaviy nonushta, oilaviy urf-odatlar, oilaviy tinchlik, oilaviy baxt, oilaviy nizo, kelishmovchilik, sulola, onalik, otalik, baxt – oila konseptining; love,loyalty, duty, childhood, patriotism, family breakfast, family traditions, family peace, family happiness, family dispute, disagreement,

dynasty, motherhood, fatherhood – family konseptining mavhum ma'noli birliklari bo'lib, ular oiladagi ijobiy yoki salbiy ruhiy holatni va munosabatlarni namoyon etadi.

Tug'ilmoq, asramoq, hurmat qilmoq, avaylamoq, ulug'lamoq, qadrlamoq, sevmok, kurashmoq, uylanmoq, ajrashmoq, unashirmoq – oila konseptining; to be born, to respect, to praise, to marry, to divorce, to be engaged, expressing appreciation, time together, encouragement of individuals, communication, ability to adapt – family konseptining harakat va holat ifodalovchi leksemalari hisoblanadi.

Oltin beshik, ona suti, oila qo'rg'oni, oila ustuni, oilamiz farishtasi, oq sut, kindik qoni to'kilgan joy, boshimdagi tojim ota-onam, ko'zimning oq-u qorasi – oila konseptining; family treasure, sentimental value, father figure, flesh and blood, family honour, family first, bloodline – family konseptining ko'chma ma'noli birliklari qiyosiy yo'l orqali oila konseptiga taaluqli haqiqatlarga ishora qiladi.

Nikoh to'yi, aqqa, sunnat to'yi, qiz uzatish, o'g'il uylantirish – oila konseptining; traditional wedding, elopements, civil ceremonies, christening ceremony, housewarming party – family konsepting urf-odat, marosim bilan bog'liq leksemalari hisoblanadi.

Nikoh, mahr, taloq, muslim, muslima, islomiy – oila konseptining; religious/spiritual orientation, social connectedness, commitment to family – family konseptining diniy tushuncha bilan bog'liq birliklari. O'zbek oilalari uchun oila muqaddas, inglizlar uchun ilohiy tushuncha ekanligiga ishora qiladi.

Boshini ikkita qilmoq, ola xurjuni yelkaga tashlamoq, qulog'ini tishlamoq – oila konseptiga; bring up, grow up, look after, take care, get together – family konseptiga ishora qiluvchi frazeologik birliklar. Ular millatlarga xos milliy mentalitetni yanada yorqinroq ifodalashga xizmat qiladi [9].

Demak, oila va family konseptlari millatlarga xos tarixiy, ijtimoiy, ilmiy tajribani namoyon etadi. Xususan oila konseptining umumiylik, family konseptining individuallik darajasi yuqori ekanligi aniqlanadi. Oila va family konseptiga ishora qiluvchi leksik birliklar ong, til va ruhiyat bog'liqligida til egalari xotirasida oila va family konseptini voqealantira oladi. Konseptning lisoniy voqealanishi, o'zida voqealantiruvchi guruhining streotip xususiyatlarini aks ettiruvchi freymlar yordamida amalga oshiriladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Shoumarov G. B. va boshqalar. Oila psixologiyasi: Akad. litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'l. - T.: Sharq, 2008. 296 b.
2. Н.Н. Болдырев. Когнитивная семантика: Курс лекций по английской филологии: учебное пособие. Изд.5-е, стер. – Москва-Берлин: DirectMedia, 2016. – Б. 30.
3. М.А. Терпак. Английский лингвокультурный концепт «семья» и способы его коннотативного содержания в языке (на материале семантического поля «Родственные отношения»): – Самара: СамГПИ, 2006. – 26 с.
4. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. “Сангзор” нашриёти, 2006. 92 б.
5. Кравченко А.В. Язык и восприятие: когнитивные аспекты языковой категоризации. Иркутск.: ИГУ. 1996.
6. Pardayev A. Tilshunoslik nazariyasi. O'quv qo'llanma. –Samarqand: SamDU nashri, 2021.–164 b.
7. Минский М. Остроумие и логика когнитивного бессознательного // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XIII: Когнитивные аспекты языка. – М.: Энергия, 1988. – С. 289.
8. Леонтьев А.А. Основы психолингвистики: Учебник для студ. высш. учеб. заведений. –М.: Смысл, 1997. –С. 287.
9. Ahmedova N. O'zbek tilida oila konseptining ifodalanishi. “O'zbek tilini dunyo miqyosida keng targ'ib qilish bo'yicha hamkorlik istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T.: 2020. B. 272-274



UDK:859.8(856.2)

**Adiza SATTAROVA,**  
Master degree student of Bukhara State University

*Under the review of Akhmedova Mehrinigor Bahodirovna Associate Professor of the Department of English Literature and Translation Studies, Ph.D., Bukhara State University*

## SEMANTIC DERIVATION OF VERBS OF PHYSICAL INFLUENCE ON OBJECTS IN ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES

Annotation

In this article, characterization of the semantic category "action" in comparison with related categories ("process", "state", etc.), consideration of the functional-semantic division of verbs of physical influence on an object and their hierarchical structure, identification and description of the lexical potential of the verbs under study, clarification of meaning of lexemes, their semantic relationships are analyzed. In the main part, authors are indicating trends in the development of verb semantics, also characteristics of semantic and word-formation features of verbal words formed in a semantic way is a discussion topic of the article.

**Key word:** Process, action, verb, semantic, derivation, word formation, concordance, semantic category.

## INGLIZ VA RUS TILIDA OB'YEKTLARGA JISMONIY TA'SIR QILUVCHI FE'LLARINING SEMANTIK DERIVATSIYASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada "harakat" semantik kategoriyasini o'zaro bog'liq turkumlar ("jarayon", "holat" va boshqalar) bilan solishtirganda tavsiflash, ob'ektga jismoniy ta'sir qilish fe'llarining funktsional-semantik bo'linishini va ularning ierarxik tuzilishini ko'rib chiqish, o'rganilayotgan fe'llarning leksik imkoniyatlarini aniqlash va tavsiflash, leksemalarning ma'no tuslarini oydinlashtirish, ularning semantik munosabatlari tahlil qilinadi. Asosiy qismda mualliflar fe'l semantikasining rivojlanish tendentsiyalarini ko'rsatadilar, shuningdek, semantik tarzda tuzilgan og'zaki so'zlarning semantik va so'z yasalish xususiyatlarining xususiyatlari maqolaning muhokama mavzusidir.

**Kalit so'zlar:** Jarayon, harakat, fe'l, semantik, hosila, so'z yasalishi, kelishik, semantik kategoriya.

## СЕМАНТИЧЕСКАЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОСТЬ ГЛАГОЛОВ ФИЗИЧЕСКОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ НА ПРЕДМЕТЫ В АНГЛИЙСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье дана характеристика семантической категории «действие» в сравнении с родственными ей категориями («процесс», «состояние» и др.), рассмотрено функционально-семантическое деление глаголов физического воздействия на объект и их иерархическая структура, выявление и описание лексического потенциала изучаемых глаголов, выяснение оттенков значения лексем, анализируются их смысловые связи. В основной части авторы указывают тенденции развития семантики глаголов, а также характеристика семантических и словообразовательных особенностей глагольных слов, образованных семантическим способом, является предметом обсуждения статьи.

**Ключевые слова:** Процесс, действие, глагол, семантика, словообразование, словообразование, созвучие, смысловая категория.

**Introduction.** In the modern conditions of language development, semantic derivation seems to us to be the most important form of "linguisticization" of determinative content, a universal method of presenting new things because of nominative means already present in the language. Therefore, semantic derivation is "one of the effective methods of filling the vocabulary of any language, which requires the expression of more and more new meanings with relatively limited means of word formation" [Aminova 1999 p].

**Literature review.** Despite the constant interest in the problem of semantic derivation and the existence of many studies, a system of universal views on semantic derivation as a means of conceptualizing reality has not yet been developed in modern linguistics. The versatility of theoretical approaches to semantic derivation includes interpretations of "semantic word formation" (V. Vinogradov, V. M. Markov), "a special case of lexical derivation" (D.N. Shmelev), "real semantic derivation" ("semantic word formation"), includes, and is manifested in the variety of terms. N.M. Kobozeva, S.V. Konyavskaya, O. B. Ponomareva), "lexical-semantic production" (O. D. Meshkov), "multiple meaning" (J. Lyons). When considering the problem of verbal derivation, we should

pay special attention to the term "derivation" itself. The most common terms to express this phenomenon are "retrieval", "reinterpretation", "word formation", "regular polysemy", "metaphorical meanings of verbs" [BES 1998].

**Research methodology.** Derivative processes are linguistic phenomena that gather cultural information in addition to linguistic information. From the point of view of such data, semantic shifts that reflect collective linguistic knowledge, that is, the mentality of native speakers of this language, are of particular interest. When studying the semantic-derivative development of a lexeme, the development of semantics is not limited to one language, so the concept of "interlingual space" comes in and its origin is visible. In Humboldt's works [Humboldt 1984 74]. Lexemes in different languages have approximately the same semantic volume, but write it differently in the system; what remains in the level of strength in one language is strengthened in the semantic structure of the word in another language and vice versa. The study of semantic derivation in the cross-linguistic space allows us to see semantic shifts, transitional stages and intermediate syllables in the development of word semantics that may be invisible to speakers of a given language. The

interlinguistic space is a source of information about the internal semantic processes taking place in the studied language, and the semantic-derivational development of the native language vocabulary becomes a kind of broken window.

We can distinguish three reasons that lead to changes in the semantics of lexical units:

- actual linguistic reasons related to the structure and structure of a certain system level of the language;

- social, political, moral, religious, domestic and other aspects taken as a whole, socio-cultural reasons related to the historical development of the nation, specific characteristics of the existence of a person in a certain society. They are very important for semasiological studies, because the specific lexical meaning is determined by the characteristics of the specific properties of real (or imaginary) objects. The semantic history of words in many cases clearly reflects changes in the life of society.

- psychological reasons based on the specific characteristics of the associative thinking of a person, in which this or that reality is compared with others or perceived in direct connection. In linguistic theory, they correspond to metaphorical and metonymic migration of nouns.

**Analysis and results.** The need to review the classifications of verbal units arises from the regular occurrence of changes in the meaning of words; derivational processes affect not only individual words but also word groups. To determine the direction of semantic formation, it is necessary to consider this phenomenon as an example of a group of lexemes united by a common meaning. At present, there are different approaches to the classification of verb lexemes and setting criteria for comparative analysis in the literature. The diversity of the classification of verbs is explained by the wide and complex nature of this sentence from the semantic point of view, the versatility of the verb as a complex linguistic unit, the diversity of verb meanings, lexical-semantics; the classification of the verb is of particular interest. Semantic classification of the verb N. K. Dmitriev, A. A. Aminova, Y. D. Apresyan, L. M. Vasiliev, F. A. Ganiyev, E. V. Kuznetsova, T. A. Kildibekova, R. D. Lizunova, E. R. Tenishev and others. Classification considered but never classified. Lexical-semantic groups and subgroups of verbs emphasize the need for further development of this problem in order to more fully illuminate the content features.

In English linguistics, interest in the semantics of lexemes, especially verbal semantics, has been observed for a long time (see W. Chef, C. Fillmore, R. Longaker, R. Jackendoff, etc.). As far as we know, there is currently no universally accepted oral classification. Therefore, for example, the main idea of V. Chef's approach is that the verb takes center stage in the sentence. Verbs belonging to the second category retain the main meaning of the word organ, but acquire an additional meaning, for example, the verb *urmoq* (to hit) has two meanings: 1) "to beat hard", 2) "by driving a large amount of something into something, to spoil the surface something"; to break something on something, something on the surface" (see. Pound with a nail) In the

second meaning, the main sema is preserved, but the additional effectiveness can already be explained, because the meaning of hitting is not only about z contains, but also information about the final result of this action (see hitting the enemy).

The comparative analysis of processing of verbs in the languages under consideration made it possible to identify the following features. Due to the processing of verbs in Russian and English, changes in the functional state, the causes of the emotional state, interpersonal relations and the execution of actions are filled. Verbs in English also indicate change of state (in this case the verbs are monovalent and mean change of weather), physiological state, speech activity, surprise, negative effect. Among the specific features of semantic derivation, it is possible to distinguish the development of the meaning of intellectual activity in English verbs and the meaning of appropriating someone's property in English verbs.

A common feature of the verbs of the above groups of English languages is the secondary meanings of the room (verbs to change the position of the object), separation, physiological effect and negative effect on the object (verb object etc. damage, etc.), interpersonal relations (verbs that have a negative effect on the object and linking). The systematicity of the semantic construction is confirmed by the difference in the grammatical structure of the producer and the construction; Regular verbs lose the ability to form an aspectual connection (slap someone, "kill"), to lose their reflexive meaning (move, "go crazy"), to acquire transitivity (slam, "miss something"), loses transitivity (sweep "to sweep" - "to walk majestically", mince "to chop" -> "to mince, to walk in small steps") Derivatives related to various LSGs and derivatives synonyms and antonyms clearly emphasize their functional differences.

**Conclusions and suggestions.** The dynamic aspect of language development has long been the focus of attention of many scientists and researchers. It is known that the phonetic, grammatical and semantic forms of each language follow their own path of development. By analyzing the associative-derivational relations and, accordingly, by determining the laws of functioning of the internal form of the word in the dictionary and speech, the systematicity of the dictionary is revealed and the mechanisms of this systematicity are revealed. Taking into account the above, this study takes into account the important features of the language system, its relevance to dynamic, probabilistic, open systems. These features of the language are manifested in the continuous derivational-motivational process covering different levels and planes of the language, in particular, as shown in the work, in the derivational space of the word as a multidimensional, dynamic and self-organizing structure; the internal form of the word is made with the active participle. It should be noted that although there is constant interest in the field of research, such as the semantic derivation of verbs, some lexical-semantic groups of verb lexemes, for example, verbs of physical action in relation to the subject, are incomplete and incomplete.

#### REFERENCES

1. Akhmedova Mekhrinigor Bahodirovna. "ANALYSIS AND DIFFERENT INTERPRETATIONS OF THE CONCEPT OF SPIRITUALITY". Indonesian Journal of Innovation Studies, Vol. 18, May 2022, doi:10.21070/ijins.v18i.590.
2. Magdalena NGONGO, Akhmedova Mehrinigor. A Systemic Functional Linguistic Analysis of Clauses Relationship in Luke Gospel Text, Janji Baru Using Kupang Malay. Studies in Media and Communication Journal. Vol.11, 2023. - P. 33-40.
3. Fitria Nur Hasanah, Rahmania Sri Untari, Shofiyah Al Idrus, and Akhmedova Mehrinigor Bahodirovna. Excel in Critical and Creative Thinking in Object-Oriented Programming. H. Ku et al. (Eds.): ICARSE 2022, ASSEHR 748, 2023. - P. 301-305.

4. Hazim Hazim, Ratih Puspita Anggraenni, Akhmedova Mehrinigor Bahodirovna. Altruistic Actions in COVID-19 Corpses Care: Empathy, Modeling, and More. International Conference on Advance Research in Social and Economic Science (ICARSE 2022), 2023/4/27. - P.476-484
5. Akhmedova Mekhrinigor Bakhodirovna. "“SPIRITUALITY” LANGUAGE CATEGORY AND ITS CONTENT". Middle European Scientific Bulletin, vol. 6, Nov. 2020, pp. 57-59, doi:10.47494/mesb.2020.6.115.
6. Bahodirovna, A. M. "Semantic Field and Sema in Uzbek (In the Example of ‘Ma’naviyat’)". INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION, vol. 1, no. 4, Oct. 2022, pp. 77-80, <https://inter-publishing.com/index.php/IJISE/article/view/173>.
7. Akhmetjanova Z.K. Functional-semantic fields of the Russian and Kazakh languages: Experience of comparative study / Z.K. Akhmetzhanova. - Alma-Ata: Science, 1989.
8. Babenko L.G. Functional analysis of speaking verbs, intellectual and emotional activity (based on the material of artistic speech by A. Platonov): Author's abstract. dis. . Candidate of Philology Sciences/L.G. Babenko. Rostov n/d., 1980. - 24 p.
9. Vronskaya Y.V. Cognitive-pragmatic features of statements with verbs of speech in modern English: (Compared with modern Russian): Abstract. dis. . Ph.D. Philol. Sciences/Y.V.Vronskaya. Ekaterinburg, 1998. - 18 p.
10. Gadzhieva N.Z. Verbs of speech in Turkic languages / N.Z. Gadzhieva, A.A. Koklyanova // Historical development of the vocabulary of Turkic languages. M.: Publishing House of the USSR Academy of Sciences, 1961. - P.322-460.



UDK: 813224 H-31

**Gulhida HASANOVA,**

*O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti 1 kurs doktoranti*

*E-mail: gulhida0898@gmail.com*

*O'zMU professori, f.f.d N.Abdurahma'nova taqrizi asosida*

## COMPARATIVE STUDY OF SYNONYMS AND THEIR TRANSLATIONS USED IN PARALLEL TEXTS BASED ON CORPUS ANALYSIS

Аннотация

The given article highlights analysis of the translation of near synonyms “Sodiq and sadoqatlik” and their translations as “loyal and dedicated” used in the novel “Days gone by” using analysis based on corpus data in two languages (Uzbek and English) presenting some of the problems concerning their translation equivalency.

**Key words:** Near synonyms, corpus, corpus analysis, translation equivalence.

## СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СИНОНИМОВ И ИХ ПЕРЕВОДОВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В ПАРАЛЛЕЛЬНЫХ ТЕКСТАХ, НА ОСНОВЕ КОРПУСНОГО АНАЛИЗА

Аннотация

В данной статье представлен анализ перевода близких синонимов «содик» и «садокатлик» и их переводов «верный и преданный», использованных в романе «Дни минувшие», с использованием анализа на основе корпусной даты на двух языках (узбекском и английском), представляющих некоторые из них. проблемы их переводческой эквивалентности.

**Ключевые слова:** Синонимы, корпус, корпусный анализ, переводческая эквивалентность.

## KORPUS ANALIZI ASOSIDA PARALLEL MATNLARDA QO'LLANILGAN SINONIMLAR VA ULARNING TARJIMALARI QIYOSIY TADQIQI

Аннотация

Ushbu quyida keltirilgan ish “O'tgan kunlar” asarida qo'llanilgan sodiq- sadoqatlik sinonimlari va ularning U.R Yo'ldoshev bosh muharrirligi ostida I.M To'xtasinov, O. Mo'minov, A. Hamidovlar tomonidan tarjima qilingan “Days Gone By” versiyasida qo'llanilgan loyal-dedicated sinonimlarining korpusga asoslangan tahlili va tarjima muammolarini yoritib beradi.

**Kalit so'zlar:** Sinonimlar, korpus, korpusga asoslangan tahlil, tarjima ekvivalentligi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Texnika taraqqiyoti sharofati bilan hayotimizning ko'p jabhalaridagi mushkulotlar yilfdan yilga osonlashib bormoqda. Ilm fan sohasi ham bundan mustasno emas. ko'plab yillar davomida qiyin ko'p vaqtni va mehnatni talab qiladigan ba'zi bir vazifalar hozirgi kunda suniy intellekt yoinki oddiygina kompyuter va internet orqali tez va samarali tarzda hal etilmoqda. Leksikografiya, tarjimashunoslik va lingvistika yo'nalishi uchun qiyin bo'lgan vazifalardan biri tildagi sinonimlarni aniqlash, ularni tasniflash, o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash hozirgi kunga kelib til korpus bazalaridan foydalanish orqali tadqiqotchi tilshunoslarning qimmatli vaqtini tejagan holda sifat jihatidan ham anchayin samarali tarzda amalga oshirilmoqda. Korpus bazasining keng qamrovli va muntazam ravishda boyitilib va yangilanib borilishi, ushbu usuldan yoki vositadan foydalanuvchilarning sonini oshirdi. Shuni takidlab, o'tish joizki, ko'rpus ba'zasi bir xil bo'lishiga qaramay tadqiqotchi olim va izlanuvchilar aynan sinonimlarni aniqlash va ular orasidagi leksik semantik munosabatlarni belgilash uchun turli usullardan foydalanishgan. Chunonchi, Juan Shao [1] sinonimlarning insonlar ongida qanday holda namoyon bo'lishini o'z tajribali aniqlashga harakat qilgan hamda qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni korpus tahlili asosida tekshirgan, bunda yaqin yoki mutlaq sinonim sifatida ko'rsatilgan kandidat so'zlarning grammatik xossalari, chunonchi, ularning ma'lum bir grammatik shaklda va rollarda kelishini, hamda ularning leksik jihatdan boshqa leksik birliklar bilan iboralar hosil qilish chastotalari tekshirilgan. Chen [2] sinonimlarni chet tilini o'rgatishda korpus bazalaridan foydalanish o'quvchilarning sinonimlarni to'g'ri qo'llay olish qobiliyatini 2 barobar yaxshilagan o'z empirik tadqiqoti orqali isbotlab bergan.

Natthapon Petcharat ingliz tilidagi appropriate, proper va suitable so'zlarining o'zaro o'xshashligi va farqli jihatlarini Longman Dictionary of Contemporary English, Longman Advanced English Dictionary va Macmillian English Collocations Dictionary lug'atlaridagi manbaalar va Corpus of Contemporary American English korpusi asosida o'rgangan va bu sinonimlar qatorida yagona o'zak ma'noning mavjudligini ammo ularni qo'llanilish doirasi va Grammatik birliklarni hosil qilishi bo'yicha farqli ekanligini xulosa o'rnida keltirib o'tgan. Eng qiziq tarafi muallif korpuslarda lug'atlarda topish qiyin bo'lgan namunalarini olish mumkinligini qayd etgan. Misol tariqasida ushbu so'zlarni qat'iy rasmiy yoki norasmiy uslublarga bo'lib ko'rsatgan yuqoridagi lug'atlardagi ma'lumotlarga zid ravishda korpus bazasidagi konkordans miqdori ushbu so'zlarni mutlaqo ikki uslubda ham qo'llanilishi mumkinligini dalillar bilan ko'rsatib bergan[3].

Shu kabi sinonimlar ustida korpus asosida izlanish olib borganlardan, Taylor high va tall so'zlari orasidagi sinonimiya'ni o'rgangan hisoblanib, u o'z ishida tall so'zi high so'ziga nisbatan cheklangan kontekstlarda ishlatilishini va high so'zi vertikal o'lchov ma'nosini bergan hollarda ko'proq ishlatilishini keltirib o'tgan[4].

Chung xuddi yuqoridagi kabi ingliz tilidagi create va produce so'zlari bo'yicha korpus asosida izlanish olib bergan va bu ikki so'z ma'noning talqini bo'yicha bir xil ekanligi ya'ni yangi narsani yaratish ma'nolari bor ekanligini ta'kidlab o'tgan, ammo bu ikki so'z birikmalari hosil qilishda tafovutga uchrashi haqida to'xtalib, create so'zi ko'p hollarda abstract otlar bilan birikma hosil qilishi, produce so'zi esa boshqa turdosh otlar bilan kuzatilishi misollar orqali ko'rsatib bergan.

[5] Cai [6] great so'zi va uning 6 ta sinonimlari hisoblangan awesome, excellent, fabulous, fantastic, terrific, va wonderful so'zlarini korpus asosida tadqiq etgan. U o'z ishi yakunida graet so'zi qolgan sinonimlarga nisbatan umumiy va kuchsizroq ekanligini ta'kidlab, qolgan so'zlarga nisbatan eng ko'p qollanilishini va fabulous, fantastic, great, terrific va wonderful so'zlari so'zlashuv uslubiga ko'proq mosligini va qolgan ikki awesome va excellent so'zlari publististik uslubga mos kelishini ta'kidlab o'tgan.

O'zbek tilshunoslar olimlari orasida esa parallel korpus yoinki, korpus materiallari asosida tahlil ishlari jahon tilshunosligiga nisbatan kamroq ko'lamda olib borilgan va sinonimlarning aynan leksik semantic tahlilini ko'rpas ma'lumotlar bazasi orqali tekshirish ishlari milliy kutubxonalar bazasiga kiritilmagan. Ammo parallel korpus bo'yicha hamda milliy korpus mavzusida ko'plab ishlar olib borilgan, chunonchi Axmedova A.N. [7] o'zbek tilidagi parallel matnlarda qo'llanilgan o'xshatishlarning leksik semantic xususyatlarini tahlil qilganlar hamda O'zbek tili korpusida o'xshatishlarning parallel korpusini yaratgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu ishda tanlab olingan sinonimlarning O'zbek tili korpusi va British National Corpus va Brown Corpus bazasida berilgan misollar tahlili orqali qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni ya'ni ikki tildagi sinonimlarning grammatik-leksik xususyatlarini taqqoslash orqali tarjima ekvivalentligi baholandi.

M.Yo'ldoshev ham o'z tadqiqotlarida badiiy asar tilini o'rganishga bag'ishlangan ishlarda ikki yo'nalishni kuzatish mumkinligi haqida fikr yuritib, olimlar tomonidan "tildagi o'sish-o'zgarishlar, adabiy til va umumxalq tili munosabatlari kabi masalalarni o'rganishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadigan yo'nalishni lingvistik aspekt, yozuvchining umumxalq tiliga bo'lgan munosabati, til boyliklaridan foydalanishi, yozuvchi mahorati, stili haqida xulosa chiqaruvchi yo'nalishni esa stilistik aspekt", deb e'tirof etilishini ta'kidlaydi[5]. Darhaqiqat, til dinamikasini, unda sodir bo'lgan o'zgarishlarni, shu bilan bir qatorda, tilning muayyan davrdagi holatini o'rganish uchun, shubhasiz, badiiy asarlarga murojaat etiladi. Negaki, "har qanday badiiy asar tili muayyan

umumxalq tilini o'zida aks ettiradi. Tildagi o'zgarishlar, rivojlanishlarning eng xolis ko'zgusi chinakam san'at darajasidagi badiiy adabiyotlardir. ...Tilning holati, undagi xilma-xil hodisalar, qonun-qoidalarni tavsiflovchi darslik va boshqa o'quv qo'llanmalarda ham asosiy faktik materiallar badiiy asarlardan olinadi"[5]. Demak lingvopoetik tadqiqotlarning ahamiyati shoir va yozuvchilarning lisoniy kompetensiyasini, ya'ni til resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini yoritish bilangina baholanib qolmay, tilning muayyan davrdagi holati, til hodisalarining mohiyati va taraqqiyotining qonuniyatlari bilan bog'liq ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy xulosalar chiqarishga manba bo'lishi bilan ham belgilanadi.

Fonopoeika "matnning tovush qurilishi til uslubi bilan bog'liq holda turli uslublardagi matnlar tarkibida tovush miqdori va sifati tavsifi, tovushlarning tasviriy-ifodaviy roli, poetik nutq evfoniyasi, tovush tavsifi kabilar"[4]larni o'rganuvchi lingvopoetikaning tarkibiy qismidir. Fonopoeika o'zida badiiy-estetik yuk tashuvchi fonetik vositalar tahlili bilan shug'ullanuvchi lingvopoetik yo'nalishdir.

Lingvistika va poetika munosabati xususida fikr yuritir ekan, R.Yakobson poetikani lingvistikaning tarkibiy qismi deb qarash lozimligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, huddi san'atshunoslik tasviriy strukturalar bilan shug'ullangani kabi poetika ham nutqiy strukturalar masalasi bilan shug'ullanadi. Lingvistika nutqiy qurilmalar haqida umumiy fan bo'lgani bois, u o'z ichiga poetikani qamrab oladi[6].

Fonetik birliklarning poetik imkoniyatlarini tadqiq etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan O.Tursunova "Poetik aktualashgan til vositalarini aniqlashda tovushdan tortib sintaktik birliklargacha tahlil etish mumkin"ligini qayd etadi[4]. Olima poetik nutqning fonetik xususiyatlarini yoritish lingvopoetikaning muhim o'rganish ob'yekti ekanligini e'tirof etar ekan, barmoq she'r tizimining bo'g'inlar miqdoriga asoslanishi, uning turoqlarga bo'linishi, intonatsion xususiyatlari, pauzaning o'rni va tovushlar bilan bog'liq bir qancha san'atlarning yuzaga kelishida fonetika va poetikaning tutash nuqtasi – fonopoeikaning yuzaga kelishini alohida ta'kidlaydi. Uning qayd etishicha, "Fonopoeika poetik nutqning muayyan vazifa bajaruvchi fonetik birliklari tadqiqidir. Buni esa keng ma'noda qabul qilish kerak. Sababi fonetik qonuniyatlarning har birini tahlil etish bilangina fonopoeikaning mohiyati ochilmaydi. Unga yondosh tarzda fonetik qonuniyatlardan poetik maqsadda foydalangan o'rinlar, yozuvda unchalik anglanmagan, lekin o'zi bir nechta yashirin ma'nolarini ifoda etuvchi holatlar ham kuzatiladi. Poetik nutqning qurilish materiali ham aslida fonetik birliklardir"[4]. Darhaqiqat, lingvopoetik tadqiqotlar predmetini badiiy asar tilining uni tashkil etuvchi eng kichik elementdan tortib, yuqori sath elementlarining poetik nutq hosil qilishdagi muhim qirralarini, ularning spesifik xususiyatlarini, matnning ta'sirchanligi oshirishdagi ekspressiv qimmatini tekshirish tashkil etadi. Bu o'rinda badiiy matnning o'ziga xos, boshqa matnlardan ajralib turishiga asos bo'luvchi estetik-ekspressivlik, musiqiylik, ritmik shakllanganlik kabi belgilari fonopoeika materialidir.

Til va uning funksiyalashuvi masalasi bilan shug'ullanish jarayonida L.P.Yakubinskiy oddiy so'zlashuv nutqidagi tovushlar bilan poetik nutqdagi tovushlarning funksiyalashuvida farq borligini ta'kidlaydi. Uning e'tirof etishicha, she'riy matnda nutq tovushlari ong maydoniga chiqadi va butun e'tibor ularga qaratiladi. Nutqning ritmik tuzilishining o'zaroq she'riy lisoniy tafakkurda tovushlarning ong'dagi kechinmalariga ishora qiladi. She'riy matnlarda ritm bo'g'inlarning tovush sostavi bilan uzviy aloqador. She'rlarning ritmik bahosi ulardagi tovushlarning ishtiroki bilan ham belgilanadi[7]. Quyidagi tahlillar orqali

L.P.Yakubinskiy fikrlarining qanchalik asosli ekanligini quyidagi tahlillar misolida ko'rib chiqish mumkin:

Yo'g'-u borimga bois borliqsan, sevgi,  
7+5=12

Yagona yordan yolg'iz yorliqsan, sevgi.  
7+5=12

Yuqoridagi misralarda nafaqat tovush takrori, balki bo'g'in va so'z takrorlarini, shuningdek, ichki va tashqi qofiyalanishlarni ham kuzatamiz. Har ikki misralarda "o" unlisi 9 ta o'rinda, "i" unlisi 7 ta o'rinda, "s" undoshi 7 ta o'rinda, "y" undoshining takrori esa 5 tagacha yetgan. Shu bilan birga "bois" va "yolg'iz" so'zlaridagi oxirgi bog'inlarining talaffuzda bir-biriga juda yaqin kelishi natijasida "s" undoshi takrorini bittaga orttiradi. "Y" tovushining bittaga ortishiga esa "bois" so'zidagi "o" va "i" unllarining birgalikda qo'llanilishi talaffuzda "y" lashgan holda yordamga keladi. Birinchi banddagi, "borimga", "bois", "borliqsan" so'zlarida "b" undoshi va "o" unlisini, ikkinchi banddagi "yordan", "yolg'iz", "yorliqsan" so'zlaridagi "y" undoshi va "o" unlisini birinchi bo'g'inlarda teng miqdorda takror ishlatiladi. Misralardagi "bois", "yolg'iz", "borliqsan", "yorliqsan" so'zlarining ichki qofiyalanishi, misralardagi bo'g'inlarning ochiq va yopiqlik mutanosibliği ritmni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Yuragimni tars yorgan lazzatsan, lazzat,  
7+5=12

Ongimdagi abadiy og'riqsan, sevgi.  
7+5=12

She'rning ikkinchi bayti, birinchi misrasida shoir ajib bir tuyg'uni ifodalash uchun shunday so'z tanlaganki, bu so'zdagi "z" undoshining qo'sh qo'llanilishi, hamda ushbu "lazzat" so'zini takror ishlatilishi misradagi ma'no va mazmuni yanada kuchaytirgan.

Kapalak chang chalganda sochilgan changsan,  
7+5=12

Chumoli torta kelgan tortiqsan, sevgi.  
7+5=12

She'rning uchinchi baytida ham "ch" undoshining 5 marotaba, "ng" undoshini 2 marotaba, "s" undoshini 5marotaba, "t" undoshini 4 marotaba kelishi, birinchi misradagi "chang" so'zini shakldosh sifatida (cholg'u asbobi va g'ubor ma'nolarida) mahorat bilan qo'llanilishi misralarga o'zgacha joziba qo'shish bilan birga shoirning mahoratini yorqinroq namoyon etadi.

**Xulosa va takliflar.** Fonetik birliklarning uslubiy xoslanishi ham ularning poetik imkoniyatlarining voqelanishiga ta'sir ko'rsatadi. Og'zaki so'zlashuv uslubida tovushlar ustsegment birliklar – urg'u va intonatsiyaning qo'shilishi hisobiga betakror jiloga ega bo'ladi. Bunday jilolanishni yozma nutq orqali yetkazib berish mushkul. "Chunki unda nutq tovushlarining ayrim jihatlarinigina ifodalash mumkin, xolos. Tovushlar tovlanishi badiiy asarlarda ma'lum bir uslubiy vazifa bajarib, matnning emotsional ekspressivligini ta'minlashda, ta'sirchanligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bildirilgan fikrlardan xulosa qilish mumkinki, lingvopoetika fanlararo soha sifatida o'ziga xos tushunchaviy apparatga ega bo'lib, u o'zi qatoridagi fanlardan, xususan, adabiyotshunoslik va uslubiyatdan farqli ravishda badiiy matnda qo'llanilgan lisoniy vositalarning poetik imkoniyatlarini o'rganish bilan farqlanadi. Lingvopoetika butunlik sifatida ichki struktur elementlardan: fonetik poetika, leksik poetika, morfopoetika va sintaktik poetikaning yaxlitligidan iborat bo'lib, ushbu poetikalarning alohida tizimli tadqiqi umumiy lingvopoetikaning mohiyatini tushunishga zamin yaratadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. –Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – Б. 112.
2. Ахманова О.С., Задорнова В.Я.
3. Kabuljonova G. She'riy matnda unli tovushlar orqali ma'noning ifodalanishi. – B. 170-173.
4. Muminov S., Kamoliddinova Z. Isajon Sultonning o'xshatishlardan foydalanish mahorati //Journal of Advanced Research and Stability Volume: 03 Issue: 01 | Jan – 2023. – B. 58.
5. Турсунова О. Ўзбек тили фонетик воситаларининг поэтик имкониятлари. Филол.фан. фалс.докт.(PhD)...дисс. – В. 24.
6. Винокур Г.О. О языке художественной литературы. Составитель Т.Г.Винокур. – Москва: Высшая школа, 1991. – С 24.
7. Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. Тошкент: Фан, 2008. – Б. 13.
8. Якубинский Л.П. Избранные работы. Язык и его функционирование. –Москва: Наука, 1986. –С.164.
9. Якобсон Р. Лингвистика и поэтика // Структурализм: "за" и "против". –М,: Прогресс, 1975. –С.193-231.



**Gulhida HASANOVA,**

*O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti 1 kurs doktoranti*

*E-mail: gulhida0898@gmail.com*

*O'zMU professori, f.f.d. N. Abdurahma'nova taqrizi asosida*

### COMPARATIVE STUDY OF SYNONYMS AND THEIR TRANSLATIONS USED IN PARALLEL TEXTS BASED ON CORPUS ANALYSIS

Аннотация

The given article highlights analysis of the translation of near synonyms “Sodiq and sadoqatlik” and their translations as “loyal and dedicated” used in the novel “Days gone by” using analysis based on corpus data in two languages (Uzbek and English) presenting some of the problems concerning their translation equivalency.

**Key words:** Near synonyms, corpus, parallel corpus, translation equivalence.

### СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СИНОНИМОВ И ИХ ПЕРЕВОДОВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В ПАРАЛЛЕЛЬНЫХ ТЕКСТАХ, НА ОСНОВЕ КОРПУСНОГО АНАЛИЗА

Аннотация

В данной статье представлен анализ перевода близких синонимов «содик» и «садокатлик» и их переводов «верный и преданный», использованных в романе «Дни минувшие», с использованием анализа на основе корпусной даты на двух языках (узбекском и английском), представляющих некоторые из них. проблемы их переводческой эквивалентности.

**Ключевые слова:** Синонимы, корпус, параллельный корпус, переводческая эквивалентность.

### KORPUS ANALIZI ASOSIDA PARALLEL MATNLARDA QO'LLANILGAN SINONIMLAR VA ULARNING TARJIMALARI QIYOSIY TADQIQI

Аннотация

Ushbu quyida keltirilgan ish “O'tgan kunlar” asari da qo'llanilgan sodiq- sadoqatlik sinonimlari va ularning U.R Yoldoshev bosh muharrirligi osida I.M To'xtasinov, Mo'minov, Hamidovlar tomonidan tarjima qilingan “Days Gone By” versiyasida qo'llanilgan loyal –dedicated sinonimlarining korpusga asoslangan tahlili va tarjima muammolarini yoritib beradi.

**Kalit so'zlar:** Sinonimlar, korpus, parallel korpus, tarjima ekvivalentligi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Texnika taraqqiyoti sharofati bilan hayotimizning ko'p jabhalaridagi mushkulotlar yilfdan yilga osonlashib bormoqda. Ilm fan sohasi ham bundan mustasno emas. ko'plab yillar davomida qiyin ko'p vaqtni va mehnatni talab qiladigan ba'zi bir vazifalar hozirgi kunda suniy intellekt yoinki oddiygina kompyuter va internet orqali tez va samarali tarzda hal etilmoqda. Leksikografiya, tarjimashunoslik va lingvistika yo'nalishi uchun qiyin bo'lgan vazifalardan biri tildagi sinonimlarni aniqlash, ularni tasniflash, o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash hozirgi kunga kelib til korpus bazalaridan foydalanish orqali tadqiqotchi tilshunoslarning qimmatli vaqtini tejagan holda sifat jihatidan ham anchayin samarali tarzda amalga oshirilmoqda. Korpus bazasining keng qamrovli va muntazam ravishda boyitilib va yangilanib borilishi, ushbu usuldan yoki vositadan foydalanuvchilarning sonini oshirdi. Shuni takidlab, o'tish joizki, ko'rpas ba'zasi bir xil bo'lishiga qaramay tadqiqotchi olim va izlanuvchilar aynan sinonimlarni aniqlash va ular orasidagi leksik semantic munosabatlarni belgilash uchun turli usullardan foydalanishgan. Chunonchi, Juan Shao [1] sinonimlarning insonlar ongida qanday holda namoyon bo'lishini o'z tajribali aniqlashga harakat qilgan hamda qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni korpus tahlili asosida tekshirgan, bunda yaqin yoki mutlaq sinonim sifatida ko'rsatilgan kandidat so'zlarning grammatik xossalari, chunonchi, ularning ma'lum bir grammatik shaklda va rollarda kelishini, hamda ularning leksik jihatdan boshqa leksik birliklar bilan iboralar hosil qilish chastotalari tekshirilgan. Chen [2] sinonimlarni chet tilini o'rgatishda korpus bazalaridan foydalanish o'quvchilarning sinonimlarni to'g'ri qo'llay olish qobiliyatini 2 barobar yaxshilaganini o'z empirik tadqiqoti orqali isbotlab bergan.

Natthapon Petcharat ingliz tilidagi appropriate, proper va suitable so'zlarining o'zaro o'xshashligi va farqli jihatlarini Longman Dictionary of Contemporary English, Longman Advanced Dictionary va Macmillian English Collocations Dictionary lug'atlaridagi manbaalar va Corpus of Contemporary American English korpusi asosida o'rgangan va bu sinonimlar qatorida yagona o'zak ma'noning mavjudligini ammo ularni qo'llanilish doirasi va Grammatik birliklarni hosil qilishi bo'yicha farqli ekanligini xulosa o'rnida keltirib o'tgan. Eng qiziq tarafi muallif korpuslarda lug'atlarda topish qiyin bo'lgan namunalarini olish mumkinligini qayd etgan. Misol tariqasida ushbu so'zlarni qat'iy rasmiy yoki norasmiy uslublarga bo'lib ko'rsatgan yuqoridagi lug'atlardagi ma'lumotlarga zid ravishda korpus bazasidagi konkordans miqdori ushbu so'zlarni mutlaqo ikki uslubda ham qo'llanilishi mumkinligini dalillar bilan ko'rsatib bergan. [3]

Shu kabi sinonimlar ustida korpus asosida izlanish olib borganlardan, Taylor high va tall so'zlari orasidagi sinonimiya'ni o'rgangan hisoblanib, u o'z ishida tall so'zi high so'ziga nisbatan cheklangan kontekstlarda ishlatilishini va high so'zi vertikal o'lchov ma'nosini bergan hollarda ko'proq ishlatilishini keltirib o'tgan. [4]

Chung xuddi yuqoridagi kabi ingliz tilidagi create va produce so'zlari bo'yicha korpus asosida izlanish olib bergan va bu ikki so'z ma'noning talqini bo'yicha bir xil ekanligi ya'ni yangi narsani yaratish ma'nolari bor ekanligini ta'kidlab o'tgan, ammo bu ikki so'z birikmalari hosil qilishda tafovutga uchrashi haqida to'xtalib, create so'zi ko'p hollarda abstract otlar bilan birikma hosil qilishi, produce so'zi esa boshqa turdosh otlar bilan kuzatilishi misollar orqali ko'rsatib bergan.

[5] Chung create va produce o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni ularning ma'nolari va ot birikmalarining semantik xususiyatlari (ya'ni mahsulotlar) asosida o'rganib chiqdi. Ma'lumotlar uchta korpusdan, Brown Corpus va Frown Corpus (ICAME'dan) va Britaniya Milliy Korpusidan (BNC) olingan. Sinonimik fe'llarning ikki ma'nosi bir-biriga mos kelishi aniqlandi, ya'ni "mavjud bo'lish/voqe bo'lish" va sun'iy mahsulot yaratish/ishlab chiqarish". Bundan tashqari, predmet turlarining semantik xususiyatlari ko'rinadi.

Chung mahsulotlarning ma'nolari va semantik xususiyatlariga e'tibor qaratgan bo'lsa, Gu sinonimik fe'llarni olish va qozonishni farqlash uchun bir qator mezonlarni (ya'ni janrlar, kolligatsiya, birikma va semantik prosodiya) o'rnatdi. Ma'lumotlar uchta onlayn korporatsiyadan olingan: Sketch Engine, BNC va shunchaki so'z. Semantik prosodiyaga kelsak, ikkala fe'l ham otlarning konnotativ ma'nolariga qarab baholangan o'xshaydi. Olish ot birikmalarining turli xil konnotatsiyalari asosida aralash semantik prosodiyalarga (ya'ni neytral, ijobiy va salbiy) ega bo'lishi mumkin. Biroq, daromad ko'pincha ijobiy ma'noga ega bo'lgan otlar bilan birga keladi, shuning uchun u ijobiy semantik prosodiyaga ega bo'lish ehtimoli ko'proq.

Cai [6] great so'zi va uning 6 ta sinonimlari hisoblangan awesome, excellent, fabulous, fantastic, terrific, va wonderful so'zlarini korpus asosida tadqiq etgan. U o'z ishi yakunida great so'zi qolgan sinonimlarga nisbatan umumiy va kuchsizroq ekanligini ta'kidlab, qolgan so'zlarga nisbatan eng ko'p qollanilishini va fabulous, fantastic, great, terrific va wonderful so'zlari so'zlashuv uslubiga ko'proq mosligini va qolgan ikki awesome va excellent so'zlari publististik uslubga mos kelishini ta'kidlab o'tgan.

O'zbek tilshunoslar olimlari orasida esa parallel korpus yoinki korpus materiallari asosida tahlilla ishlari jahon tilshunosligiga nisbatan kamroq ko'lamda olib borilgan va sinonimlarning aynan leksik semantik tahlilini korpus ma'lumotlar bazasi orqali tekshirish ishlari milliy kutubxonalar bazasiga kiritilmagan. Ammo parallel korpus bo'yicha hamda milliy korpus mavzusida ko'plab ishlar olib borilgan, chunonchi Axmedova A.N. [7] o'zbek tilidagi parallel matnlarda qo'llanilgan o'xshatishlarning leksik semantik xususiyatlarini tahlil qilganlar hamda O'zbek tili korpusida o'xshatishlarning parallel korpusini yaratgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu ishda tanlab olingan sinonimlarning O'zbek tili korpusi va British National Corpus 1-rasm. O'zbek Tili Korpusida sodiq so'zining lemma bo'yicha konkordansda berilishi.

va Brown Corpus bazasida berilgan misollar tahlili orqali qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni ya'ni ikki tildagi sinonimlarning grammatik-leksik xususiyatlarini taqqoslash orqali tarjima ekvivalentligi baholandi.

**Tahlil va natijalar.** Avvalombor, ushbu tanlab olingan sinonimlarning ular qatnashgan kontekstlari bilan tanishib chiqsak:

Sizmi? – deb kulimsiradi. – Otam bo'lmasangiz ham meni otaliq muhabbati bilan suygan sodiq va mehribon bir kishimsiz – ya'ni ma'naviy otam.

[sodiq]

Ammo davlatlari yori berib, sadoqatlik xizmatkorlaringizdan bo'lg'an Marg'ilon qo'rboshisining yordami birlan O'ttaboyning changalidan arang qutilishg'a muvaffaq bo'ldim...»

[sadoqatlik]

– Barakalla, o'g'lim, – dedi Hasanali, – javobingiz o'z o'ylag'animchadir. Endi sizdan

shuni ham so'rayin: xo'jasig'a sodiq bir qul, sizning ta'biringizcha, ma'naviy bir padar o'z

o'g'lig'a yomonlik sog'inarmi, bu to'g'rida javob beringiz-chi?

Otabek kutilmagan bu savoldan ajablandi:

– So'zingizga tushunolmadim, ota, – dedi

[sodiq]

“You, for me?” – he smiled. – “Although you are not my father, however,

you are the closest friend and loyal man who takes care of me like my own

parent. I'd say, you are my spiritual father.”

[loyal]

– “Good lad, my son”, – Hasanali said – “It is the exact answer which I

wanted to hear. Now, let me ask you one more thing: a dedicated servant to his

master or, as you said, spiritual father, whether he wishes any harm to his son,

now tell me?

[dedicated]

Sodiq – sadoqatli

Sodiq sifati O'zbek tili korpusida 40 marotaba takrorlangan bo'lin, bu misollarning asosiy qismini Tohir Malikning Shaytanat asaridan olingan misollar tashkil etadi (15-rasm)



sodiq  
IZLASH TOZALASH  
6 ta hujjatda 40 ta so'z uchradi.

Tohir Malik  
«Shaytanat 1-kitob»  
1989

tashlamay tong ottirardi. Yangi yil kechasi uning eng sara, eng sodiq to'rt yigiti uchun ham harom edi. Ularning ikkisi ko'chaning u ...ko'proq...

Tohir Malik  
«Shaytanat 1-kitob»  
1989

borib cho'k tushdi-da, onasini quchdi. – Voy, bolam, yupunligingcha kelaveringmi? Sodiq akangnikiga telpon qilsang bo'lmasmidi? Xotining uydaydi-ya, lip etib kiyimlaringni olib ...ko'proq...

Tohir Malik  
«Shaytanat 1-kitob»  
1989

borib cho'k tushdi-da, onasini quchdi. — Voy, bolam, yupunligingcha kelaveringmi? **Sodiq** akangnikiga telpon qilsang bo'lmasmi? Xotining uydaydi-ya, lip etib kiyimlaringni olib ...ko'proq...

Tohir Malik  
«Shaytanat 1-kitob»  
1989

qimorda halol yutib olganidan keyin hushiga kelganini qiladi-da! Jalolshilimshiq Asadbekka **sodiq** edi. Asadbek ham uni qadrlardi. Xo'jayinni qaysi shayton yo'ldan urdi, ...ko'proq...

Tohir Malik  
«Shaytanat 1-kitob»  
1989

aytadigan ikki og'iz shirin so'zim bor», deb qo'ydi. Jamshid odatiga **sodiq** qolgan ravishda jim borardi. Orqa o'rindiqda o'tirgan Elchin unga tikilib, ...ko'proq...

Tohir Malik  
«Shaytanat 1-kitob»  
1989

chog'idagi ayolning o'sha nayrang bo'g'ib o'ldirgan edi. U Bek akasiga **sodiq** edi. Bek akasi uchun, xususan, shu qiz uchun joni lozim ...ko'proq...

Ushbu yuqorida berilgan misollardan tashqari, misollar orasida “Qo'sh ustunning biri” va “ Ota chiroq asaridan “ olingan misollar ham keng o'rin egallaydi:

Bu aslida sarob ekanligini, oq-yaltiroq bo'yrular mayin esgan shamolda beozor tebranyotganini, oy shu'lasida xuddi suv jimirlab oqayotgandek tovlanayotganini xayoliga ham keltirmabdi. Lafziga sodiq qolib, shu zahotiyoq Xisravga tegishga rozilik bildiribdi. Tong yorishar-yorishmas, to'y-tomosh boshlanib ketibdi.

Manba: [‘Abdunabi Haydarov «Qo'sh ustunimning biri » 2014']

Qo'l ko'tarib yetib olganimni bildirgan bo'laman. Shunda doim ilhaq tog', bilarini birovga aytmaydigan tosh, eng toza tushlarni eshitgan bo'lsa-da, o'rgulig ko'rgiligini

2 - rasm. Sadoqatli lemmaning O'zbek Tili Korpusidagi konkordansi

ko'ringanga ko'rmana qilmaydigan suv, har joyda xozir, har narsani biladigan, odamni ichigayam kirib chiqadigan shamol, asl askarlardek sodiq archalar, barcha-barchasi har bir odamning kelishiga minglab yillar ko'z tikishlari, tikkanlari sezimdan o'tadi. Ayniqsa, Olaparning yig'lab bo'lgan qip-qizil ko'zlari shunday degandek bo'laveradi.

Manba:[‘Bahodir Qobul «Ota chiroq » 2011']

Ushbu o'rinda shuni takidlab o'tish joizki, ushbu berilgan misollar orasida sodiq so'zi nafaqat sifat balki atoqli ot ya'ni ism ma'nosida ham keng qo'llanilgan(15- rasm)

Sadoqatli

Sadoqatli sifati o'zbek tili korpusi bazasida 8 marotaba takrorlangan bo'lib, bu misollarning barchasi Tohir Malikning Shaytanat asaridan olingan hisoblanadi(16-rasm)



sadoqatli

IZLASH

TOZALASH

5 ta hujjatda 8 ta so'z uchradi.

Tohir Malik  
«Shaytanat 1-kitob»  
1989

fazilat qidirib ovara bo'lmaylik. Ha, darvoqe, sadoqatni unutibmiz. U Asadbekka **sadoqatli** edi. U o'sha voqeadan keyin kuchli, shafqatsiz odamlarni yaxshi ko'rib ...ko'proq...

Tohir Malik  
«Shaytanat 1-kitob»  
1989

soxta shuhrati o'z boshini yedi. O'ttiz yettinchi yilda sho'rolar uning **sadoqatli** xizmati uchun hibsga olib, tumanli yurtga yubordilar. Sovuqda ochlik azobiga ...ko'proq...

Tohir Malik  
«Shaytanat 2-kitob»  
1991

asta tortadi. Jamshidni qamoqdan barvaqt chiqishiga yordam berganida ham uning **sadoqatli** yigit bo'lishini o'ylamagan edi. «Chiqaversin-chi, balki foydasi tegar», deb xayol ...ko'proq...

Tohir Malik  
«Shaytanat 3-kitob»  
1992

bip-binoyi eplaydi. Eng muhim gap— yonida kimlarning bo'lishida, ya'ni ishonchli, **sadoqatli** odamlarda! Endi «Chuvrindi ukaginasi»ni hisobga qo'shmasa ham bo'ladi. Asadbek uni ...ko'proq...

Tohir Malik  
«Shaytanat 3-kitob»  
1992

chaynalasan! — Gap shuki, o'shanda Jamshidni o'ldirmagan edik. Yaxshi yigit, **sadoqatli** yigit. Jahl ustida aytvordingizmi devdik. Uni Sochiga yuborib, o'likxonadan bir ...ko'proq...

Tohir Malik  
«Shaytanat 4-kitob»  
1993

Botiniy ishi esa xodimlarning ma'lum qismini haydab, ular o'rniqa o'ziga **sadoqatli** odamlarni to'plashdan iborat bo'ladi. Kesakpolvon zohiriy ishlarga muhtoj emasdi, shu ...ko'proq...

Tohir Malik  
«Shaytanat 4-kitob»  
1993

— Savob bo'lardi. — Savobning dodaxo'jasi degin! Xumkalla akaxoniga ja-a **sadoqatli** edi-a? Ja-a kuyib, ezilib ketdi-ku, boyaqish. Shu bugundan kechikmay borsin ...ko'proq...

Muhammad Ali  
«Sohibqiron o'ylari»

ko'rganing ko'k osmonga, pastdagi ilk qadam qo'yg'oning qo'ng'ir yerga hamisha **sadoqatli** bo'li!» — deb tayinlardilar padari Amir Temur yana ko'l uzra ...ko'proq...

Ushbu misollarning barchasida sadoqatli so'zi sifat yoki ot kesim vazifasida kelib, ularning barchasi deyarli bir xil ma'noni ya'ni sadoqatlilik sifatining mavjudligi anglatib kelmoqda. Shuni aytib o'tish joizki bu misollarning barchasida sadoqatli so'zi jonli egalar, aniqrog'I shaxslar uchun ishlatilgan bo'lib, aynan mana shu jihatdan sodiq so'zining hozirgi o'rganilayotgan korpus bazasida berilgan misollardan far qiladi, chunki sodiq so'zi ba'zi hollarda jonsiz predmetlar uchun ham(masalan : sodiq archalar) badiiy adabiyotda ishlatilgan. Ammo ushbu xulosamiz ham yuqoridagi xulosalar kabi nisbiydir. Chunki o'zbek tili birinchi tilimiz ekanligini va bu tilda ko'plab misollar bilan kundalik hayotda duch kelishimizni hisobga olgan holda, sadoqatli so'zining jonsiz

buyumlarga va hayvonlar uchun ham ishlatilishini aytib o'tishimiz joiz.

Loyal- Dedicated

Loyal so'zi Cambridge Online Dictionary da quyidagicha ta'riflanadi:

...firm and not changing in your friendship with or support for a person or an organization, or in your belief in your principles:

Jack has been a loyal worker in this company for almost 50 years.

When all her other friends deserted her, Steve remained loyal.

She's very loyal to her friends.

3-rasm. Loyal lemmasining BNC korpus konkordans bazasida berilishi

British National Corpus (BNC) search results for 'loyal'. The interface includes a search bar, a 'SUBSCRIBE' button, and a list of search results with left and right contexts. The word 'loyal' is highlighted in red in the original image.

Yuqoridagi korpus bazadidan olingan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, loyal lemmasi ushbu korpus bazasida 1331 marotaba takrorlangan.

Dedicated so'zi Cambridge Online Dictionary da quyidagicha ta'riflanadi:

Meaning of dedicated in English

...believing that something is very important and giving a lot of time and energy to it:

a dedicated father/teacher

She's completely dedicated to her work.

The Green Party is dedicated to protecting the environment[16].

4 - rasm. Dedicated lemmasining BNC korpus konkordansida berilishi

British National Corpus (BNC) search results for 'dedicated'. The interface includes a search bar, a 'SUBSCRIBE' button, and a list of search results with left and right contexts. The word 'dedicated' is highlighted in red in the original image.

Dedicated so'zi esa ayban shu korpus bazasida 1925 marotaba ro'yxatga olingan.

Ushbu ikki so'zlar yuqorida tahlil qilingan sinonimlar juftligidan asosiy farqi ular kontekstual yoki qisman sinonimlar hisoblanadi. Ularning birlamchi ta'rifi aynan mana shu xulosaga olib keladi. Misol uchun: Loyal so'zi tarifidan sodiq, sadoqatli ma'nolarini bersa, dedicated so'zi esa ...

ba'xsh etilgan, ..ga moslashtirilgan ma'nosini o'zida ko'proq aks ettiradi. Bu ikki so'z orasidagi sinonimiya hodisasini chuqurroq tahlil etish uchun ularning gapda kelish o'rnlari va birikma hosil qilish xususiyatlarini solishtirib ko'rish maqsadga muvofiqdir.

5 - rasm. BNC korpusida Loyal va Dedicated sifatlarning turli parametrlar bo'yicha farqlari va o'xshashliklari

WORD SKETCH DIFFERENCE tool comparing 'loyal' (1,285 instances) and 'dedicated' (697 instances). The tool displays four columns of data: 'loyal/dedicated' and/or ...', 'subjects of "be loyal/dedicated"', 'modifiers of "loyal/dedicated"', and 'nouns and verbs modified by "loyal/dedicated"'. Each column lists related words and their counts for both terms.

| verbs before "loyal/dedicated" and noun |   |   |     | verbs before "loyal/dedicated" |     |   |     | "loyal/dedicated" to ... |    |   |     | "loyal/dedicated" for ... |   |   |     |
|-----------------------------------------|---|---|-----|--------------------------------|-----|---|-----|--------------------------|----|---|-----|---------------------------|---|---|-----|
| keep                                    | 4 | 0 | ... | stay                           | 23  | 0 | ... | aoun                     | 5  | 0 | ... | life                      | 2 | 0 | ... |
| be                                      | 8 | 0 | ... | remain                         | 93  | 0 | ... | king                     | 10 | 0 | ... |                           |   |   |     |
|                                         |   |   |     | consider                       | 2   | 0 | ... | shah                     | 4  | 0 | ... |                           |   |   |     |
|                                         |   |   |     | feel                           | 6   | 0 | ... | gamsakhurdia             | 3  | 0 | ... |                           |   |   |     |
|                                         |   |   |     | be                             | 177 | 0 | ... | eyadema                  | 3  | 0 | ... |                           |   |   |     |
|                                         |   |   |     |                                |     |   |     | barre                    | 3  | 0 | ... |                           |   |   |     |
|                                         |   |   |     |                                |     |   |     | noriega                  | 3  | 0 | ... |                           |   |   |     |
|                                         |   |   |     |                                |     |   |     | bosnia                   | 3  | 0 | ... |                           |   |   |     |
|                                         |   |   |     |                                |     |   |     | empire                   | 3  | 0 | ... |                           |   |   |     |
|                                         |   |   |     |                                |     |   |     | president                | 4  | 0 | ... |                           |   |   |     |
|                                         |   |   |     |                                |     |   |     | crown                    | 4  | 0 | ... |                           |   |   |     |
|                                         |   |   |     |                                |     |   |     | iskra                    | 2  | 0 | ... |                           |   |   |     |

Ushbu jadvaldan bu ikki so'z orasidagi o'xshashlik kata emasligi ko'rishimiz mumkin. Keling ushbu parametrlarni birma bir ko'rib chiqamiz.

6 - rasm. BNC korpusida Loyal va Dedicated so'zlarining aniqlovchi vazifasida kelgan hollarining cho'gishtirma tahlili natijalari.

Show relation

nouns and verbs modified by "loyal/dedicated"



Diagrammadan ko'rinib turibdiki, loyal so'zi ko'p hollarda inson sadoqatini anglatgan hollarda jonli egalarni aniqlab kelgan, masalan, loyal troop, loyal supporter, servant. Ammo dedicated so'zi esa jonsiz egalar bilan kelganda, ya'ni, predmetlar bilan kelgan, .. ga ixtisoslashtirilgan, ma'nosini bersa, jonlali egalar bilan kelganda o'z kasbiga sodiq ma'nosida ishlatilgan.

Misol uchun:

Loyal

the country's 14 regional commissioners, all of whom had been appointed by the Royal Palace and were regarded as loyal supporters of the King. The dismissals were announced the day after Girija Prasad Koirala, the general secretary of

was so fond of studying with its doggerel verses which drew him and others into the blackest treason.' 'We are the King's loyal servants ,' murmured Bere defiantly. 'Brother Hopkins, God rest him, was a man lost in the past but the manuscript he

Dedicated

extra for as little as £20 over the price of a 512K card.

The extra bonus with the Magician card is the S3 chip which is a dedicated graphics processor . In graphical environments like Windows the whole screen is a colour bitmap image and any changes

and the Alternet for integrating coaxial and twisted pair environments. In 1991, MiLAN introduced the first dedicated print server for TCP/IP networks priced under \$1,000. In 1992, MiLAN will continue to bring unique and innovative

after years of 'attention' from the STB, the Czech secret police which had now, thank God, been disbanded. Sacher was a dedicated socialist who was devoting his

considerable influence to blocking the attempts of private firms from the West to

Ushbu yuqorida berilgan, misollardan shunday xulosa qililishimiz mumkinki, dedicated so'zi bir qarashda sodiq ma'nosini bersada bu so'z loyal so'zidan farqli ravishda biron ish, kasbga sodiqlik ma'nolarida ko'proq ishlatilar ekan.

Sodiq – loyal

Sizmi? – deb kulimsiradi. – Otam bo'lmasangiz ham meni otaliq muhabbati bilan suygan sodiq va mehribon bir kishimsiz – ya'ni ma'naviy otam.

“You, for me?” – he smiled. – “Although you are not my father, however,

you are the closest friend and loyal man who takes care of me like my own

parent. I'd say, you are my spiritual father.”

Ushbu parchada berilga bu ikki sifat tarjimalari, tahlillarimiz davomida bir biriga to'liq mos kelishligi va har ikki tilda ham bir biriga yaqin bo'lgan ma'no va kontextlarda ishlatilishi ayon bo'ldi. Ammo xuddi shunga yaqin bo'lgan keyingi parchada tarjimada qiyinchiliklar tug'ilganligini ko'rishimiz mumkin.

Sadoqatli – dedicated

– Barakalla, o'g'lim, – dedi Hasanali, – javobingiz o'z o'ylag'animchadir. Endi sizdan shuni ham so'rayin: xo'jasig'a sadoqatli bir qul, sizning ta'biringizcha, ma'naviy bir padar o'z o'g'lig'a yomonlik sog'inarmi, bu to'g'rida javob beringiz-chi?

[sadoqatli]

– “Good lad, my son”, – Hasanali said – “It is the exact answer which I


wanted to hear. Now, let me ask you one more thing: a dedicated servant to his

master or, as you said, spiritual father, whether he wishes any harm to his son,  
now tell me?  
[dedicated]

Bir qarashda ushbu parchada hech qanday g'ayri oddiy holat kuzatilmaganda, dedicated so'zining korpus bazasidagi misollarini tahlil qilish ushbu so'zning ko'p hollarda biron kasb yoki sohaga o'zini baxsh etgan yoki shu bilan ko'p shug'ullanadigan inson sifatida, jonsiz jismlar bilan qo'llanilganda esa, ko'p hollarda qurilmalar bilan ishlatilganda

u biron ishga maxsuslashtirilgan va ixtisoslashtirilgan ma'nolarida ishlatilgan. Bularning barchasini hisobga olgan holda, ushbu kontekstda sadoqatli ma'nosini berish uchun dedicated so'zini tanlash qisman noo'rin bo'lishi mumkin deb hisoblaymiz. Ammo bir asarda bir so'zni ko'p takrorlanishi o'quvchi uchun bir xillikka sabab bo'lishi mumkinligini hisobga olgan holda, ushbu sadoqatli so'zi devoted deya tarjima qilinishi maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lar edi. Chunki devoted so'zi ko'rpuz bazamizda inson aniqlovchisi bo'lib kelgan hollar dedicated so'ziga nisbatan ko'proq.

7 - rasm. BNC korpusida Dedicated va devoted so'zlari so'z aniqlovchisi bo'lib kelgan so'zlar va ularning farqlari  
nouns and verbs modified by "devoted/dedicated"



**Xulosa va takliflar.** Sinonimlarning korpus ba'zasiga asoslangan taxlili nafaqat ushbu sinonimlarning o'xshash va farqli jihatlari aniq ko'rsatib beradi, balki ushbu sinonimlarning berilgan kontekstda muayyan tarjimalarini qanchalik to'g'ri va dekvat tarjima qilinganligini obektiv baholash imkonini beradi. Yuqorida o'tqazgan kichik korpus

analizimioz shuni ko'rsatdiki aslida sinonim ba'zan esa Mutlaq sinonim sifatida qaralgan so'zlar ma'lum kontekstlarda o'z ma'noviy farqlari bilan farq qilishi hamda tarjima jarayonida aynan mana shu ma'no nozikligini yo'qotishi mumkin.

#### ADABIYOTLAR

- Juan Shao. Synonymy and lexical priming. A:z cross linguistic investigation of synonymy from corpus and psychological perspectives: Filol. fan. dokt.... diss. — Liverpool, 2018. —B. 54- 56.
- 李远帆, A Study on the Corpus-driven Teaching and Learning of English Near Synonyms. 海外英语, (16). 2015. PP.205-207.
- Natthapon Petcharat Language Institute, Thammasat University. Corpus-Based Study of English Synonyms: Appropriate, Proper, and Suitable // LEARN Journal: Language Education and Acquisition Research Network Journal, Volume 10, Issue 2, 2017
- Taylor, J. R. Near synonyms as co-extensive categories: 'high' and 'tall' revisited // Language Sciences, 2003. 25(3), P. 263-284.
- Chung, Siaw-Fong. A corpus-based analysis of "create" and "produce" // Chang Kung Journal of Humanities and Social Sciences. 2011. 4(2) (October 2011), PP. 399-425. Cai, Jiutian // Is it "great" enough?: a corpus-based study of "great" and its near synonyms. 2012.
- Ахмедова А.Н., Г.И.Эргашева // Corpus-based translation studies. Ўзбек миллий ва таълимий корпусларини яратишнинг назарий ҳамда амалий масалалари мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари — Тошкент. 2021 7 май.
- Eshmo'minov. A. O'zbek tili milliy korpusining sinonim so'zlar bazasi. F.b.fals.d-ri (PhD). Diss. — Toshkent: 2019
- Hojjiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. — Toshkent. O'qituvchi, 1974.
- Isamuhamedov S. Xozirgi zamon adabiy tili sinonimlari. Toshkent. — 1963
- Jamolxonov H. Hozirgi O'zbek adabiy tili. — Toshkent. Talqin. 2005.
- Jumaniyozov R. Sinonimlar ta'rifi masalasi // O'zbek tili va adabiyoti, 1-son, 5-bet.
- <https://www.english-corpora.org/coca/>
- [https://app.sketchengine.eu/#dashboard?corpname=preloaded%2Fbnc2\\_tt21](https://app.sketchengine.eu/#dashboard?corpname=preloaded%2Fbnc2_tt21)
- [https://app.sketchengine.eu/#sketchdiff?corpname=preloaded%2Fbnc2\\_tt21&tab=advanced&lemma=loyal&lemma2=dedicated&showresults=1](https://app.sketchengine.eu/#sketchdiff?corpname=preloaded%2Fbnc2_tt21&tab=advanced&lemma=loyal&lemma2=dedicated&showresults=1)
- <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/dedicated>



UDK:859.8(856.2)

*Dilafro'z SHARIPOVA,*  
*Buxoro davlat universiteti 2 kurs magistranti*  
*Nafisa QOSIMOVA,*  
*Buxoro davlat universiteti dotsenti, (PhD)*

*BuxDU dotsenti, (PhD) M.Akhmedova taqrizi asosida*

### CONCEPTS "HAPPINESS" AND "UNHAPPINESS" IN THE LINGUOCULTURAL CONTENT OF ENGLISH PROVERBS

Annotation

This article analyzes two concepts as "happiness" and "unhappiness" by which the psychological state of the individuals can be seen. The chosen concepts are analyzed with the help of proverbs in English language. The analysis part gives an overall view and understanding about the meanings of the terms used in proverbs and examples taken from the contrasted languages show their culture.

**Key words:** Culture bound words, concept, linguocultural aspects, proverbs, happiness, unhappiness.

### INGLIZ MAQOLLARINING LINGVOMADANIY MAZMUNIDA "BAXT" VA "BAXTSIZLIK" TUSHUNCHALARI

Annotsatsiya

Ushbu maqolada "baxt" va "baxtsizlik" kabi ikkita tushuncha tahlil qilinadi, ular orqali odamlarning psixologik holatini ko'rish mumkin. Tanlangan tushunchalar ingliz tilidagi maqollar yordamida tahlil qilinadi. Tahlil bo'limida maqollarda qo'llanilgan atamalarning ma'nolari haqida umumiy fikr va tushuncha berilgan va qarama-qarshi tillardan olingan misollar ularning madaniyatini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Madaniyatga bog'liq so'zlar, tushuncha, lingvomadaniy jihatlar, maqollar, baxt, baxtsizlik.

### КОНЦЕПТЫ «СЧАСТЬЕ» И «НЕСЧАСТЬЕ» В ЛИНГВОКУЛЬТУРНОМ СОДЕРЖАНИИ АНГЛИЙСКИХ ПОВЕЧИКОВ

Аннотация

В данной статье анализируются два понятия «счастье» и «несчастье», с помощью которых можно увидеть психологическое состояние человека. Выбранные понятия анализируются с помощью пословиц на английском языке. Аналитическая часть дает общее представление и понимание значений терминов, используемых в пословицах, а примеры, взятые из контрастирующих языков, показывают их культуру.

**Ключевые слова:** Культуровязанные слова, понятие, лингвокультурные аспекты, пословицы, счастье, несчастье.

**Introduction.** The conducted study of the concepts "happiness" - "unhappiness" allows us to conclude that ideas about happiness and unhappiness, characterized by complexity and diversity, are among the key ones in the English national picture of the world. They organize the subject's life world and largely determine how he perceives the surrounding reality. At the same time, ideas about happiness and unhappiness act as value judgments about life as a whole: they formulate the purpose of existence, determine the criteria for choosing a way of life outside of individual existence.

**Literature review.** The psychological nature of happiness and unhappiness is dual. It is based on objective and subjective factors, which may not coincide for happiness and unhappiness. A distinctive feature of happiness and unhappiness is the high degree of intensity of their experience. At the same time, unhappiness is characterized by more diverse shades of mental states compared to happiness. The psychological specificity of happiness and unhappiness lies in the complexity of the transition from one state to another[6].

The study of the concepts "happiness" - "unhappiness" is distinguished by the accentuation of their value components. The value specificity of happiness is expressed in its final, resulting nature, since happiness is a consequence of the realization of those values that seem significant for a given individual. Within the framework of the English national tradition, the relationship "happiness/unhappiness - morality" acquires special significance. The question of the moral legitimacy of one's

own happiness comes to the fore, as well as the morally purifying, redemptive meaning that is attached to unhappiness. Thus, attention is focused on the spiritual and moral foundations of the transition from unhappiness and suffering to happiness.

**Research methodology.** The study of the concepts "happiness" - "unhappiness" helps to identify such culturally significant oppositions as "happiness / unhappiness - truth", "law - truth - conscience". The study of the etymology of the lexemes "happiness" - "unhappiness" allows us to establish the probable source of origin of these concepts, which is based on the ideas of the ancients about some higher power that endows a person with a good or bad lot. Happiness and unhappiness are associated with the process of division into parts, shares (the lexemes "happiness", "unhappiness" "god", "share", "(y) part"), so happiness could be participation in what is shared, as well as a good share received as a result of division, unhappiness is the inability to participate in the division and receive a good share. In the popular consciousness, happiness and unhappiness can act as mythological creatures.

The establishment of lexemes that are originally close to "happiness" and "unhappiness" makes it possible to identify the semantic and national-cultural features of the concepts under study. Happiness and unhappiness can be characterized by the characteristics of 'animation', 'irrationality', 'unpredictability'. Happiness and unhappiness are characterized by the attribute of 'predestination': share/not

share, star, (y) part. The hallmark of happiness is its instability [5].

Unhappiness is presented as something burdensome, heavy, capable of increasing (the lexemes “trouble”, “sinister”, “unhappiness”, “valiantly”, “grief”). The lexeme “rock” actualizes the inevitability of unhappiness. Happiness could be represented in the lexemes “meeting”, “time”, “day”, “sun”, unhappiness – by the lexemes “timelessness”, “evening”, “night”, which causes the appearance of happiness - unhappiness at a certain time, period.

Analysis of lexicographic sources allows us to trace the main stages in the formation of the concepts “happiness” – “unhappiness”. The loss of semantic and word-formation connections of the lexemes “part” – “happiness/unhappiness” leads to a change in the meaning of words. Happiness and unhappiness are no longer designations of specific objects, but become abstract names. In the evolution of the concepts “happiness” – “unhappiness”, their anthropocentricity and psychologization can be traced: attention moves from an external force – the cause of happiness / unhappiness to a person, his will and state of mind. Happiness and unhappiness are the object of assessment by the linguistic personality. In this case, unhappiness is perceived as something heavy, bitter, serious. Happiness can be understood as easy, undeserved, or have the meaning of the highest degree of bliss, which brings it closer to the sphere of “high”, and, therefore, illusory.

**Analysis and results.** The specificity of the main meaning of the lexemes “happiness” – “unhappiness” (state - event, respectively) determines the characteristics of concepts based on ‘awareness – unconsciousness’. Analysis of the synonymous series of the lexeme “happiness” allows us to conclude that what is valuable in happiness is a feeling of harmony, uplift, which in terms of intensity can vary from a restrained manifestation of feelings to wild joy. The lexemes “bliss”, “grace”, “idyll”, “rapture”, “bliss” are associated with receiving pleasure, enjoyment from a happy life. In the lexeme “well-being” the attribute “wealth” is updated. The synonymous series “fate - luck / talent - fortune” emphasizes a possible source of happiness. The correlation of happiness with luck and fate gives it such qualities as unpredictability and predestination at the same time [1].

Analysis of the synonymous series of the lexeme “unhappiness” allows us to identify the distinctive signs of unhappiness: a difficult, most often unexpected event - unhappiness, calamity, tragedy, adversity; the lexeme “grief” defines unhappiness as a mental experience, suffering; “unhappiness”, “valiantly”, “unhappiness” refer to the representation of unhappiness - a mythological creature; The lexeme “lack of share” reflects the etymology of the word “unhappiness.” “Blow of fate” refers to a possible source of unhappiness. The word-formation potential of the lexemes “happiness” – “unhappiness” is determined by the use of the morphological (suffixal, prefixal, prefix-suffixal) method of word formation, as well as substantivization. At the level of word formation, happiness and unhappiness are correlated according to the principle of antonymic symmetry.

